


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**«ZAMONAVIY PSIXODIOGNOSTIKA MUAMMOLARI»**

**MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent 2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchi: O‘zMU, “Psixologiya” kafedrasи professorи v.b., ps.f.d., A.Rasulov.

Taqrizchilar: O‘zMU, “Psixologiya” kafedrasи professorи, psixol. f.d. D.Muxamedova

**O‘quv -uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2021 yil dekabrdagi №**

## **MUNDARIJA**

<b>I.</b>	<b>ISHCHI DASTURI</b>	<b>4</b>
<b>II.</b>	<b>MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI</b>	<b>9</b>
<b>III.</b>	<b>NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI</b>	<b>15</b>
<b>IV.</b>	<b>AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI</b>	<b>52</b>
<b>V.</b>	<b>GLOSSARIY</b>	<b>139</b>
<b>VI.</b>	<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	<b>151</b>

## ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulining maqsadi:** psixodiagnostikani rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, ta'limdagi zamonaviy psixodiagnostika muammolari, shaxs va guruh, tibbiy psixologik diagnostika, shaxs klinik psixodiagnostikasi, kadrlar boshqaruvida psixodiagnostika, sportda zamonaviy psixodiagnostika yo'naliishlari, kasbga yo'naltirish va kadrlar saralashda psixodiagnostika, intellektuallik testlarini xorijiy psixologiyada qo'llashning zamonaviy bosqichi, psixodiagnostika metodikalarini ishlab chiquvchi va foydalanuvchilarga meyoriy ko'rsatmalar, kompyuter psixodiagnotikasi va O'zbekistonda psixodiagnostika: muammo va yechimlar haqida oliv ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini oshirish.

### **Modulning vazifalari:**

□ psixodiagnostikani rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, ta'limdagi zamonaviy psixodiagnostika muammolari, shaxs va guruh, tibbiy psixologik diagnostika, shaxs klinik psixodiagnostikasi, kadrlar boshqaruvida psixodiagnostika, sportda zamonaviy psixodiagnostika yo'naliishlari, kasbga yo'naltirish va kadrlar saralashda psixodiagnostikasi, intellektuallik testlarini xorijiy psixologiyada qo'llashning zamonaviy bosqichilarini tahlil qilish imkoniyatlari:

- psixodiagnostika metodikalarini ishlab chiquvchi va foydalanuvchilarga meyoriy ko'rsatmalar, kompyuter psixodiagnotikasi va O'zbekistonda psixodiagnostikaning muammo va yechimlari haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Modulni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

□ zamonaviy vositalaridan foydalanib psixologik natijalarni statistik tahlil qilishni;  
□ psixologik tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarni ishlab chiqishni **bilishi** kerak.

- psixologik tekshiruv va tadqiqotlarni tashkil etish;

□ psixologiya metodlari va metodikalarini klassifikatsiyasini qo'llash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

□ psixologik testlarni moslashtirish va metodikalarni qo'llash;

□ psixologiyada o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyatga tatbiq qilish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

□ psixodiagnostika rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish;

□ amaliy psixologiyada psixodiagnostikani tatbiq qilish yo'naliishlarini izohlay olish;

□ kadrlar boshqaruvida psixodiagnostikaning o'rni va rolini, sportdagi zamonaviy psixodiagnostika yo'naliishlarini tushuntira olish;

□ kasbga yo‘naltirish va kadrler saralashda psixodiagnostika usullarini tatbiq qila olish;

□ intellektuallik testlarini xorijiy psixologiyada qo‘llashning zamonaviy bosqichini tahlil qila olish ***kompetensiyasiga*** ega bo‘lish lozim. **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspressso‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Zamonaviy psixodiagnostika muammolari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Amaliy testologiya muammolari”, “Ta’limda psixologik xizmat muammolari” va “Tatbiqiyoj ijtimoiy psixologiya” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida zamonaviy psixodiagnostikada qo‘llanilayotgan metodikalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagisi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida zamonaviy psixodiagnostika tamoyillari, qonuniyatlar va metodikalaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### **“Zamonaviy psixodiagnostika muammolari” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Auditoriya uquv yuklamasi</b>			
		<b>Жами</b>	<b>jumladan</b>		
			<b>Назарий</b>	<b>Амалий машгулот</b>	<b>Кўчма машгулот</b>
1.	Psixodiagnostikani rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.	2	2		
2.	Amaliy psixologiyada psixodiagnostika	2	2		
3.	Ta’limdagisi zamonaviy psixodiagnostika muammolari. Shaxs	2		2	

	va guruh sotsial-psixologik diagnostikasi				
4.	Tibbiy psixologik diagnostika. Shaxs klinik psixodiagnostikasi	2		2	
5.	Kadrlar boshqaruvida psixodiagnostikaning o‘rni va roli.	2		2	
6.	Sportda zamonaviy psixodiagnostika yo‘nalishlari.	2		2	
7.	Kasbga yo‘naltirish va kadrlar saralashda psixodiagnostika	2		2	
8.	Intellektuallik testlarini xorijiy psixologiyada qo‘llashning zamonaviy bosqichi	2		2	
9.	Kompyuter psixodiagnostikasi	2		2	
10.	Psixodiagnostika metodikalarini ishlab chiquvchi va foydaluvchilarga meyoriy ko‘rsatmalar	2		2	
11.	O‘zbekistonda psixodiagnostika: muammo va yechimlar	4			4
	<b>Jami:</b>	<b>24</b>	<b>4</b>	<b>16</b>	<b>4</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-mavzu. Psixodiagnostikani rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. (2 soat).

- 1.1. Psixodiagnostikaning rivojlanish tarixi.
- 1.2. Psixodiagnostikaning sohalariga ko‘ra rivojlanish xususiyatlari
- 1.3. Psixodianostikaning rivojlanish tendensiyalari va unga muvofiq hal qiladigan vazifalari.

### 2-mavzu. Amaliy psixologiyada psixodiagnostika (2 soat).

- 2.1. Psixodiagnostika amaliy faoliyat sifatida .
- 2.2. Psixodiagnostikaning psixologik konsultatsiya sohasida qo‘llash.
- 2.3. Psixodiagnostikaning psixologik yordam jarayonida qo‘llash.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-amaliy mashg‘ulot. Ta’limdagi zamonaviy psixodiagnostika muammolari. Shaxs va guruh sotsial-psixologik diagnostikasi (2 soat).

**2-amaliy mashg‘ulot.** Tibbiy psixologik diagnostika va shaxs klinik psixodiagnostikasi (**2 soat**).

**3-amaliy mashg‘ulot.** Kadrlar boshqaruvida psixodiagnostikaning o‘rni va roli. (**2 soat**).

**4-amaliy mashg‘ulot.** Sportda zamonaviy psixodiagnostika yo‘nalishlari (**2 soat**).

**5-amaliy mashg‘ulot.** Kasbga yo‘naltirish va kadrlar saralashda psixodiagnostika (**2 soat**).

**6-amaliy mashg‘ulot.** Intellektuallik testlarini xorijiy psixologiyada qo‘llashning zamonaviy bosqichi (**2 soat**).

**7-amaliy mashg‘ulot.** Kompyuter psixodiagnostikasi (**2 soat**).

**8-amaliy mashg‘ulot.** Psixodiagnostika metodikalarini ishlab chiquvchi va foydalnuvchilarga meyoriy ko‘rsatmalar. (**2 soat**).

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

**Ko‘chma mashg‘ulot.** O‘zbekistonda psixodiagnostika: muammo va yechimlar (**4 soat**)

1. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish psixologik-pedagogik tashxich markazidagi iqtidorli bolalar diagnostikasi, maktab amaliyatchi psixologlar faoliyatida psixodiagnostika metodikalarining shakllantirilganlik holati bilan tanishish.

2. O‘zbekiston milliy universitetidagi tayanch kafedra va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi «Psixologiya o‘quv-ilmiy markazi».

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi: - ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash); - davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); - bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.**


### **«FSMU» metodi**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqposlash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**


- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

**Namuna: "Internetning multimadaniy muloqot maydoni"** fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### **Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

<b>Tushuncha</b>	<b>Xal qiluvchi kuch</b>	<b>Samarasi nimada aks etadi</b>	<b>Yondashuvni ilgari surgan olimlar</b>
<i>Postindustrial jamiyat</i>			
<i>Axborot jamiyati</i>			

<i>Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot</i>			
<i>Virtual jamiyat</i>			

**Izoh:** Bo'sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>
"V" – tanish ma'lumot.		
"?" – mazkur ma'lumotni		
tushunmadim, izoh kerak		
"+" bu ma'lumot men uchun yangilik		
"—" bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

### **"Bumerang" texnologiyasi**

**Maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

**Amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqika davomida sinchiklab o‘rganish talab etiladi. .
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi guruh a’zolarini o‘qilgan ma’lumot hakqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
3. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri o‘qigan ma’lumot hakqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.
4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi, va fikr almashingan ma’lumot yuzasidan boshqa guruxlarga berish uchun savol shakllantiradi.
5. Xar bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va tugri javob uchun 1-3 gacha ball kuyiladi.
6. Trener-o‘qituvchi barcha guruxlar to‘plagan ballarni umumlashtirib, g‘olib guruxni e’lon qiladi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa:** Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so‘ng guruhda muxokama qiling

<p style="text-align: right;">1- йозулган ахборот</p>	<p>Multiskript bu axborot uzatishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bir tomondan katta hajmdagi videomateriallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o‘z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediyaviy formatlarni oladi. Bizni qiziqtirgan videotasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez va katta aniqlikda tanlab olish mumkin. Multiskript o‘z ichiga uchta blokni oladi – pleyer, “stenogramma” va “mazmun”. Videomaterialni ko‘rish uchun pleyer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Videotasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko‘rishni uch yo‘l bilan amalgalash oshirsa bo‘ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- <i>pleyer tagida joylashgan kursov yordamida;</i></li> <li>- <i>“Stenogramma” blokida mant fragmentini bosib;</i></li> <li>- <i>“Mazmun” blokida sarlavhani aktivlashtirish orqali</i></li> </ul>
<p style="text-align: right;">2- йозулган ахборот</p>	<p><i>Slayd-shou.</i> Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo‘yiladi. Slayd-shou ovoz bilan birligalikda audio-illyustratsiya elementlarini, ya’ni audiotitatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan to‘yintirilgan matnni o‘z ichiga olishi mumkin. Vizual ketmakeketlik ixtiyoriy. Ular voqealari joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturalar va h.k. bo‘lishi mumkin. Bu texnologiya reportaj, ocherk, ba’zida yangiliklarni illyustratsiya qilish uchun kerak.</p>

<p><b>3-сурʼуха базифа</b></p> <p><i>Audioslayd-shou – zamonaviy jurnalistikaning multimediyaviyligi sabab yaratilgan fotoillyustratsiyalashtirishning sintetik varianti boʼlib, mustaqil janrga aylandi. Bu tushuncha 2000 yillarda paydo boʼlgan. Baʼzi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbirda yozib olingan ovozni qoʼllaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qoʼyilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozitsiya yoki muallif oʼqigan matn boʼlishi mumkin. Mazmunning asosi boʼlib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audiotitsata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqeа sodir boʼlgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujjatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</i></p>
<p><b>4-сурʼуха базифа</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- <i>Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta boʼlgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, obektlarni, peyzaj, joylarni tasvirga olishda ularning masshtabini koʼrsatishda aktualdir.</i></li> <li>- <i>Interaktiv foto – shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qoʼyilgan boʼlib, ularni bosganda matn, video, ssilka, ijtimoiy toʼrlarning statuslari chiqadi.</i></li> </ul>

### **III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

#### **1-MAVZU. PSIXODIAGNOSTIKANI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.**

**Reja:**

- 1.1. Psixodiagnostikaning rivojlanish tarixi.
- 1.2. Psixodiagnostikaning sohalariga ko‘ra rivojlanish xususiyatlari
- 1.3. Psixodianostikaning rivojlanish tendensiyalari va unga muvofiq hal qiladigan vazifalari.

***Tanyach tushunchalar.***

**Psixodiagnostikaning rivojlanish tarixi.**

***Testlashtirishning tarixiy ildizlari<sup>1</sup>.*** X1X asrning eksperimental psixolog F.Galton individual farqlar o‘lchash bilan shug‘ullanadi. Ularning asosiy maqsadi umumiyl qoidalarni yaratishdan iborat edi

Inson xususiyatlarini diqqat xususiyatlari, farqlar va o‘xshashliklar , idrokning individual xususiyatlari tadqiq etish edi

Shunday qilib, haqiqatdan shaxslarni bir xil kuzatiladi , deb oqibatda og‘ishlar, alohida o‘zgaruvchanlik, umumlashma qilish uchun emas, balki aniq va taxminiy xulosalarga kelishga erishdi. Shaxsga bunday yondashish ilk ilmiy laboratoriyalarda amalga oshirildi.

U o‘z ishlarini Leypsdagi 1879 yilda tashkil etilgan V. Vund ning ilk tajrijalariga tayanib olib bordi. Uning tadqiqot yo‘nalishi va eksperimental ishlarni olib borishidagi dastlabki bosqichda boshqa asoschilarining tajribalari belgilovchi rol o‘ynaydi. Dastlabki tajribajalar fizika qonuniyatları bilan aloqador bo‘lib, muammolar , asosan laboratoriyalarda vizual, eshituv va boshqa sezuvchanlik, oddiy reaksiya vaqtini o‘rganishga bag‘ishlangan edi. 19-asrda eksperimental psixologiyasida individual farq yo‘nalishini ta’sir boshqa jihatdan tajriba-sinov rivojlantirishga sabab bo‘lgan ile psixologik yondashuv sanaladi. Tajribalar qattiq monitoring sharoitida, kuzatuvlarini

<sup>1</sup> Anne Anastasi, Susana Urbina. Psychology Testing.-Prentice-Hall International, Inc.2000. P6-7.

o‘tkazish . Misol uchun, ko‘rsatmalar , bizga ruxsat mavzu tajribada reaksiya ancha oshirish yoki uning tezligini kamaytirish mumkin . Shuningdek, atrofdagi nur yorqinligi yoki vizual sezgi faoliyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday qilib, kuzatishning ahamiyati isbotlandi. Bu esa keyinchalik standart sharoitlarda sinovlarni va tartib standartlashtirishni amalga oshirishda psixologik testlarni yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Francis Galtonning eksperimental izlanishlar olib borishda o‘ziga xos hissasi bor. Ingliz biolog Sir Francis Galton amaliy psixologiyani rivojlanishning asoschilaridan biri edi. Uning ko‘p va xilma-xil tadqiqotlari irsiyatni o‘rganishga bag‘ishlangan edi. Irsiyatni o‘rganish kabi ohang , odamlar xususiyatlaridan o‘lchashdan ko‘proq xabardorligi ishlarni amalga oshirishiga qo‘l keldi. Faqat shu yo‘l bilan u o‘zini tadqiqot yo‘nalishiga ega bo‘ldi. Shuning uchun, ota-onalar o‘rtasidagi o‘xshashlikning aniq darajasi aka- ukalar, yaqinlar va amakivachchalari yoki egizaklarni

O‘rganishda ham hisobga oldi. Buning uchun F. Galton antropometrik tajribasinovlarini o‘tkazdi. U shuningdek, jahon ko‘rgazmasida 1884 yilda antropometrik laboratoriyanı ishga tushirdi va tajriba-sinovlarni amalga oshirdi. U yerda mehmonlarning jismoniy xususiyatlari, ko‘rish va eshitish, mushak kuchi , reaksiya vaqtı uchun testlarni tatbiq etdi.

F. Galton o‘zi eng oddiy sinovlarda ishlangan ayrim sinov vositalari hali ham mavjud. Masalan, vizual og‘ish , hushtak uzunligi, idrok imkoniyatlarini, kinestetik og‘ishlarni o‘lchash uchun seriyali topshiriqlardan foydalangan.

F. Galton hissiy o‘zgarishlarni aniqlash testlar bo‘lishi mumkin , deb hisobladi. O‘z navbatida Galton ham aqliy nuqsonlarni o‘rganishga e’tibor qaratdi. Keyinchalik Galton o‘z tadqiotlarida K.Pirsonning matematika usullarini tadbiq etdi.

Jeyms Kettell va uning < ruhiy testlar > . ayniqsa psixologiya tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega . Psixologik test rivojlantirishda hissa Amerika psixolog Jeyms McKeyen Kettell salmoqli ishini amalga oshirdi.

U bu borada ma’lum asarlar yaratgan bo‘lib, natijasida uning xizmatlari tufayli eksperimental psixologiya paydo bo‘ldi. Kettellning tadqiqotlarida Vundt va Galtonning ta’sir mavjud. U o‘zining keyigi tadqiqotlarida zehn testlarini yaratish va qo‘llash masalalariga yo‘naltirdi. 1890 yilda J. Kettell tomonidan maqolada “Intellekt va uning o‘lchash masalasiga” bo‘yicha maqola yozdi.

Ushbu maqolada bir qator testlarni intellektual aniqlash uchun qo‘llash xususiyatlari yoritildi.

P.X. Dyubua (P.H.Dubois, 1966) qadimgi xitoy zadoganlarini ishga qabul qilishda psixologik testlashtirishdan bundan 3000 yilga yaqin yildan oldinroq amalga oshirilganligini qayd etadi. Qadimgi greklar testlashtirishni ta’lim jarayonining

yo‘ldoshi sifatida qarab, jismoniy va aqliy ko‘nikmlarni o‘zlashtirishni baholashda testlardan foydalanganlar.

Suqrot metodi ta’lim jarayonining testlashtirish bilan uyg‘unlashuvni ifodalaydi. O‘rta asr yevropa universitetlari uchun ilmiy unvon va darajalar berish uchun imtihonlar joriy etildi. Biroq zamonaviy psixologik testlashtirish haqimda so‘z borganda XIX asrga e’tibor qaratishni talab etadi.

Testlashtirishning tarixidan ham ma’lumki, dastlabki diagnostik metodikalar, xususan, ispan olimi Xuan Xart (1530-1589) va fransuz olimlari J.Eskirol (1772-1840), E.Segen (1812-1880), tomonidan taqdim etilgan diagnostik vositalar inson psixologiyasining ma’lum bir jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lsa-da, tashxis natijalari sifatini baholash borasida ma’lum talablar masalalari xususida to‘xtalishga erta edi. Shunday bo‘lsa-da, J.Eskirol va E.Segenlar psixik kasallik bilan aqliy taraqqiyotda ortda qolish o‘rtasidagi farqlashni muayyan mezonlar orqali o‘rganishga kirishgan edilar.

Birinchi psixologik testlarning to‘liq bayoni F.L. Gudinaf (F.L.Goodenoligh, 1949). Dj.Peterson (J. Peterson. 1926)ning ishlarida uchraydi. Psixologik testlashtirish tarixi E.G. Boring (E.G. Boring, 1950) va G. Merfi, Dj.K. Kovach (G. Murphy, J.K. Kovach, 1972), P.X. Dyubua (R.N. Dubois, 1970)larning asarlarida o‘z aksini topgan<sup>2</sup>.

Psixologik testlashtirish tarixida keltirilgan umumiylar ko‘ra aqliy taraqqiyotdan ortda qolganlik muammosining davolay olmaslik haqidagi fikrlar E. Segen (YE. Seguin, 1907)ning tajribalarida uzoq vaqt davomida oli borgan ta’lim metodlarida yangi bir yondashuvni joriy etish imkonini berdi. Natjada 1837 yilda aqliy taraqqiyotdan ortda qolgan bolalarni o‘qitish maktabiga asos solindi. 1848 yilda Amerikaga ketib, uning g‘oyalari yuqori darajada e’tirof eilishga sabab bo‘ldi. E.Segennenning bir qator usullari harakat testlari va noverbal intellekt testlarni joriy etilishiga olib keldi. Bunga E.Segennenning nomi bilan ataladigan doska shaklini keltirish mumkin. Ushbu doskada individdan har xil figuralarni tezkorlik bilan joylashtirishni talab etadi.

Testologiyada yetarlicha izlanishlar va metodikalar yaratilayotgan bo‘lsa-da, ammo tatbiq etish sifati doimo mutaxassislar diqqat marakazida bo‘lishi lozim bo‘ladi. Testologiya tarixidan ham ma’lumki, dastlabki diagnostik metodikalar, xususan, ispan olimi Xuan Xart (1530-1589) va fransuz olimlari J.Eskirol (1772-1840), E.Segen (1812-1880), tomonidan taqdim etilgan diagnostik vositalar inson psixologiyasining ma’lum bir jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lsa-da, tashxis natijalari sifatini baholash borasida ma’lum talablar masalalari xususida to‘xtalishga erta edi. Shunday bo‘lsa-da, J.Eskirol va E.Segenlar psixik kasallik bilan aqliy taraqqiyotda ortda qolish o‘rtasidagi farqlashni muayyan mezonlar orqali o‘rganishga kirishgan edilar.

Ilmiy Testologiyaning tarkib topishida psixologiya fanida eksperiment va natijarlarni o‘lhash g‘oyalaringin kirib kelganligini tadqiqot sohasida qo‘yilgan katta

<sup>2</sup> Anne Anastasi, Susana Urbina. Psychology Testing.-Prentice-Hall International, Inc.2000. P18-19.

qadam, deb baholash mumkin. Bu boradagi o‘rinishlarni XIX asrning 30yillarida nemis olimi Wolf tomonidan diqqat xususiyatlarini aniqlash borasida uzoq vaqt davomida olib borgan izlanishlarida kuzatish mumkin. Bu tadqiqotlarda nemis olimi “psixometriya” tushunchasini birinchilardan bo‘lib fanga olib kirgan. E.Veber va G.Fexnerlarning (XIX asr o‘rtalari) psixofizik tadqiqotlarini ham eksperimental psixologiyada psixik hodisalarni o‘rganishdagi yangi yo‘nalish deyishimiz mumkin. Bu tarzdagi tadqiqotlarlar ko‘lamni yana bir qator olimlar tomonidan kengaytirildi. Ammo psixologik tadqiqotlarda statistik qayta ishslash usullarini tatbiq etilishini, olamshumul ilmiy inqilob, deb qarash mumkin. F.Galton o‘z davridayoq “korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash” metodini (1888 yil) antropometriya va irsiyatni aniqlashda qo‘llagan edi. F.Galton va uning izdoshi K.Pirsonlarning korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlash usulini, A.Bine va T.Simon intellektni o‘lchashda shkalalarga tayangani (1905), V.L.Shtern tomonidan intellekt koeffitsiyenti (IQ)ni fanga kiritilganligi tadqiqotlarda sifat o‘zgarishi yuz berishidan dalolat beradi

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlar psixodiagnostika sohasidagi ilk ilmiy qadamlar hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ham psixodiagnostik metodikalarni tatbiq etishda sifat masalasiga e’tibor qaratish tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lishi lozim. Chunki, ko‘p holatlarda tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilayotgan muammoning baholash apparati, ularning mezonlari va yondashuvlari mavhum holda bo‘ladi. Natijada tadqiqotdan olinayotgan ma’lumotlarda ilmiy yanglishishlar yo‘l qo‘yiladi, yoki tadqiqot yangiligini izohlashga asos bo‘lmay qoladi. Shuning uchun psixodiagnostik metodikalarni tatbiq etish yoki diagnostika sifatini aniqlashda, uning darajalari va jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda golland olimi Yan ter Laakning yondashuvini e’tiborga olish lozim. Uning fikricha, testologiyada sifatni muhokama qilishdan oldin, testlar nazariyasi (klassik va zamonaviy ), muhit bilan taraqqiyot borasidagi nazariyalarni, metodika bilan tadqiqot muammosining mosligini, diagnostik jarayoning borishidagi talablarni yaxshi bilish muhim.

Ammo testologiyada sifatni aniqlash masalasi keng ko‘lmdagi ishlarni bajarishni talab etadi. Buning uchin psixodiagonistik metodikalar sifatini belgilovchi asosiy jihatlarga murojaat etish o‘rinli. Psixodiagnostik metodikalar sifatini belgilashda beshta kategoriyyaga tayaniladi: testlarni yaratish maqsadi, testni strukturalashtirish, meyorlar (normalar), ishonchlilik va validlik. Bundan ko‘rinadiki, testlar va so‘rovnomalalar yaqqol psixodiagnostik ishlanmalar natijasi sanaladi. Ularni baholashning esa o‘ziga xos tizimi mavjud. Baholash tizimidagi yetakchi kategoriylar, ya’ni ishonchlilik va validlikning o‘zini ham to‘g‘ri farqlay olish lozim.

Psixodiagnostik adabiyotlarda qayd etilgan ma’lumotlarga tayanganimizda, test nazariyalari borasida o‘ziga xos tajribalar va talablar aniq belgilab qo‘yilganligining guvohi. Testlar va so‘rovnomalarni yaratish, ularni bir muhitdan ikkinchisiga moslashtirish yoki yangi modifikatsiyalarni yaratishning o‘zi ulardan muttasil foydalanish lozim, degan xulosani bermaydi. Testlar va so‘rovnomalarning ishonchlili

va validligini belgilovchi standartlar mavjud. AQShda har yili obektiv ko'rsatkichlarga ega bo'lgan testlar va so'rovnomalalar haqida "Aqliy qobiliyatlarni o'lchash yilnomasida" ma'lumotlar berib boriladi. Bundan ko'rindiki, qator mamlakatlarda testlar va so'rovnomalalar rasmiylashtiriladi va baholanib borilar ekan.

Bugungi kunda bizning sharoitimizda ham psixodiagnostik tadqiqotlarda sifat bosqichiga erishish uchun mavjud tajribalarga tayanib, mahalliy mutaxassislar tomonidan bir qator masalalar qayta ko'rib chiqilishi lozim:

1. Jahon psixologiyasida qo'llanilib kelinayotgan "Standartlar"ga tayanib, psixodiagnostik metodikalardan foydalanish borasida mahalliy muhit uchun aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish.
2. Mahalliy sharoit uchun qo'llanishi lozim bo'lgan psixodiagnostik metodikalarni nashr ettirib borishni yo'lga qo'yish.
3. Test va so'rovnomalardan foydalanishning ilmiy-tatbiqiylar asoslar bo'yicha Respublika miqyosida anjuman o'tkazish.
4. Psixodiagnostik metodikalardan foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanmalar ishlab chiqish.
5. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida psixodiagnostika va testologiya kurslari o'quv dasturlarida test va ularning standartlari masalasi uchun alohida mashg'ulot mavzulari ajratish lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalar bo'yicha olib boriladigan chora-tadbirlar Respublikamizda o'tkazilgan psixologik tadqiqotlar sifatini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Psixologik testlardan foydalanishning tadrijiy taraqqiyotining bir davri, 20-asrning boshlarida faoliyat olib borgan fransuz olimlari A.Bine va T.Simonlarning nomlari bilan bog'liq. Chunki ular tomonidan bolaning maktabga tayyorligini psixologik jihatdan aniqlashga qaratilgan dastlabki urinishlarini J.Kettellning intellekt bo'yicha izlanishlarining uzviy davomi sifatida qarashga to'g'ri keladi. Ular Fransiya maorif vazirligi tomonidan berilgan topshiriqlarni amalga oshirish uchun olib borgan natijasida psixologiyada aqliy yoshni aniqlashga erishdilar.

A.Bine<sup>3</sup> va T.Simonning tadqiqotlariga qadar nemis olimi G.Ebbingaus tomonidan olib borilgan izlanishlar, aynan ularning intellektula testlarni ishlab chiqishi uchun nazariy asos bo'ldi deyish mumkin. Chunki, G.Ebbingaus tomonidan taqdim etilgan xotirani o'rganish testlari inson psixologiyasi borasidagi yangi metodik izlanishlar natijasi edi.

1905 yilda A.Bine va T.Simon bolani intellektini o'rganishga qartilgan 30 topshiriqdan iborat shkala ishlab chiqdilar. Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko'ra tuzilgan edi. Ushbu topshiriqlar o'ta «qo'pol» usulda tuzilgan bo'lib, (masalan, 5 yoshli bola 14- topshiriqdan yuqorisini bajara olmaydigan). Ushbu topshiriqlarda sensor-

<sup>3</sup> Anne Anastasi, Susana Urbina. Psychology Testing.-Prentice-Hall International, Inc.2000. P10-11.

perseptiv rejadagi masalalarga e'tibor berilishi bilan bir qatorda, ularning asosiysini verbal materiallar tashkil etar edi.

1908 yilda Bine-Simon shkalasining takomillashtirilgan varianti e'lon qilindi. Bu variantda 59 test topshiriqlari bo'lib, ular yosh guruhiba ko'ra 3 yoshdan 13 yoshgacha mo'ljallangan bo'lib, ularning yosh xususiyatlariga ko'ra farqlanishi foiz hisobida ajratilar edi. Bunda yosh bosqichlarini ajratuvchi foizli mezon 67 % dan 75 % diapazon olingan. Berilgan topshiriqlarni ko'p miqdorda bolalar yecha olmasalar bu test topshiriqlari murakkab, aksincha ko'pchilik qismi yecha olgan hollarda yengil test topshiriqlari hisoblangan.

Test tarixidagi A.Bine va T.Simonning test topshiriqlari misol sifatida keltiriladi (1911). Ularning ilmiy izlanish natijalari bir muncha bo'lsa-da testlarning ishlab chiqishda o'ziga xos ilmiy – nazariy asos bo'la olgan. Ularning test namunalaridagi topshiriqlardan keltirib o'tamiz.

7 yoshlilar uchun:

1. O'ng va chap tomonlarni farqlash.
2. Taklif etilayotgan suratni tafsillash.
3. Ber nechta topshiriqlarni bajarish.
4. Bir necha chaqalarni umumiy qiymatini aytish.
5. Ko'rsatilgan to'rta asosiy ranglarni nomini aytish.

8 yoshlilar uchun:

1. Xotirada ikkita obektning taqqoslash. Ularning orasidagi o'xshashlikni ko'rsatish.
2. 20 dan 1 ga qarab teskari sanash.
3. Odamlarni ifodalashda tushirib qoldirilgan elementlarini topish (4 ta topshiriq).
4. Kun, sana, oy, yillarni nomlash.
5. Beshta bir xil sonlar qatorini takrorlash.

Bu testlarning muhimligi shundaki, har bir yosh meyoriga ko'ra normal bolalar ularni to'g'ri yecha olgan. Bola o'zining yoshidagi topshiriqlar guruhibi yecha olgan bo'lsa, u normada deb hisoblangan. Buni tadqiqotlar bolaning xronologik yoshi bilan solishtirish asosida aniqlanadigan aqliy yosh deb hisobladilar.

Testlar tarixida A.Bine va T.Simonning izlanishlarini davomida intellektni mutloq emas, balki nisbiy o'lchash mumiknligini e'tirof etib, 1912 yilda INTELLEKT KOEFFITSIYENTINI aniqlash usulini fanga kiritdi. Uning qisqartirilgan varianti IQ bo'lib, u

*akliy*

$$IQ = \frac{yosh}{yosh} \times 100 . \text{ xronologik}$$

Bine o‘zining shkalasidagi bunday o‘zgarishlarni ko‘rib, bunga nisbatan samimiy munosabatni bildirib, kamchiliklarini aniqlash imkoniga ega bo‘ldi.

Bine-Simonning testlari qisqa vaqt oralig‘ida yer yuziga tarqaldi. Intellektni test orqali o‘rganish borasidagi XX asrning dastlabki o‘n yilligida rivojlanish davri Bine-Simonning xizmati bilan bog‘liq.

Shuningdek, intellekt testlarini statistik tahlil bilan bog‘lab tushuntirish konsepsiysi Charlz Edvard Spirmen qarashlarida aks etgan. CH.Spirmen izlanishlari intellektning ikki omilli nazariyasisni yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu nazariga ko‘ra intellekt umumiy (G-general faktor) va maxsus (S –spetial faktor) omillarga ajratildi. Konsepsiada ijobiy korrelyatsiyalar faqat umumiy omillar kuchida tushuntiriladi. Ushbu faktorda testlarning chuqur kirib borishi ular orasidagi yuqori korrelyatsiyani ifodaladi. Maxsus omillar o‘lchashdagi xatolarni ifodalaydi. Shundan kelib chiqib CH.Spirmen ko‘p omillarni to‘g‘ri hisoblash lozimligi to‘g‘risidagi xulosasiga keldi.

***Psiyologik testlardan foydalanishning XX asrning boshlarida rivojlanishi.*** Psiyologik testlarning XX asrning boshlarida rivojlanishining tarixiy ildizlari borasidagi dastlabki mulohazalarimiz A.Bine va T.Simonning izlanishlari bilan boshlangan bo‘lsada, ammo XX asrning boshlarida izlanishlarning ko‘p qismi AQShda keng olib borildi. Dastlab Bine Simonning standartlashtirilmagan testlarini AQShda qo‘llagan tadqiqotchi Genri Goddard hisoblanadi. Bine-Simon testlarini G.Goddartdan so‘ngira amerikalik olim Lyuis Medison Termen X.D.Chayldz bilan birgalikda testlarni adaptatsiya qilish bilan shug‘ullana boshladi. Ko‘pgina toshiriqlar modifikatsiya qilindi va ayrim topshiriqlar esa qo‘shildi. Termenning mulohazalariga ko‘ra IQning 90 dan 109 ko‘rsatkichlari o‘rtacha intellekt darajasini, 70 dan pasti esa aqli pastlikni, 140 dan yuqorisi esa daholikni ifodalaydi. Termen tomonidan adaptatsiya va modifikatsiya etilgan test varianti (Stenford versiyasi hisoblanadi) AQShda aqliy qobiliyatlarni aniqlashda qo‘llanila boshlandi. AQShda birinchi jahon urushi arafasida keng ko‘lamda testlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Birinchi jahon urushi vaqtida psixologik testlar instrumentariysining rivojlanishi o‘ziga xos o‘rin tutdi. P.Fressning fikricha, «testlarni yaratishga» asos solindi. Amerikada Bosh Komitet tomonidan armiyada psixologik tadqiqotlar uyushtirildi. Komitetga DJ.Kettell, G.Stenli Xoll, Torndayk va boshqa yetakchi psixologlar jalb etildi. Ushbu davrda ikkita test batareyalaridan foydalanila boshlandi.

□- testlar va □-testlardan foydalanila boshlandi. Armiyadagi 1726 000 nafar askar test sinovlaridan o‘tkazildi. Ulardan 500 000 nafari savodsiz, 8000 nafri esa aqliy zaif sifatida armiya safidan chiqarildi, 20 000 nafari esa maxsus batalionga xizmatga yo‘naltirildi<sup>4</sup>.

Birinchi jahon urushidan keyin AQShda Stenford shkalasidan tashqarii Kulman (1922), Yerks (1923), Gering (1922), aqliy qobiliyatni o‘rganishga mo‘ljallangan

<sup>4</sup> Anne Anastasi, Susana Urbina. Psychology Testing.-Prentice-Hall International, Inc.2000. P12-13.

CAVD (1925) shkalasi (Torndayk rahbarligida) ishlab chiqildi. Yevropada intellekt diagnostikasi borasida Rishar Meyli samarali izlanishlar olib bordi. U intellektning analitik testi (1928), uning intellektni to‘rt omilli : yetarlicha murakkab, plastik, yaxlitlik va ravnligi. Dj.Stenkiston tomonidan umumiy mexanistik qobiliyatni terma testi (1923), Florens Laura Gudinaf Odam rasmini chizish testi (1926) ishlab chiqdi. Bu testlarda olimlarni uchta muammo bezovta qildi: 1) katta yoshdagilarni intellektual taraqqiyotini belgilash uchun individual foydalanish shkalalarning mavjud emasligi; 2) go‘daklarning aqliy taraqqiyotini aniqlash uchun qulay shkalalarning zarurligi; 3) intellekt va shaxs muhim psixologik konstruktlar sifatida psixologik testlarni ishlab chiqishning umumiy nazariyasini yaratish.

Bolalarning aqliy rivojlanishi borasidagi eng e’tiborga sazovor ishlarni Arnold Lyusius Gezellning (1925) ishlarida uchratish mumkin. Bu borada uning «Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti» mavzusidagi ishini alohida ko‘rsatib o‘tish o‘rinli. Gezell bolalarning xulq-atvorini o‘rganish uchun kinomotografiyadan foydalandi. O‘zining kuzatishlari asosida «Go‘daklik va inson kamoloti» (1929) asarida, bolaning rivojlanish holatini 3 oylikdan 30 oylik davrini 195 ta mezon bilan o‘lhash mumkinligini qayd etib o‘tdi.

Intellekt testlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda shaxsni nokognitiv sohasini o‘rganishga qaratilgan metodikalar (shaxsni o‘rganish testlari) ham yaratilishiga e’tibor qaratilmoqda. Shaxs savolnomalari borasida Robert Session Vudvorts (1917) anormal xulqni o‘rganishga mo‘ljallangan testni ishlab chiqdi. Ammo psixologiyada shaxsni o‘rganish so‘rovnomalari borasida dastlabki savolnomalarni bиринчи bora, 1909 yilda gollandiyalik olimlar G.Xeymans bilan YE.Virsm tomonidan ishlab chiqilgan degan mulohazalar bor. Ular «Shaxsiy ma’lumotlar varog‘i» tarzdagi bir necha savolnomalarning mualliflari sanaladilar.

So‘ngra shaxs savolnomalari borasida Floyd va Gordon Ollport shaxs fazilatlari reytingini (1921-22) taklif etdilar.

Folker tomonidan shaxsni baholash testi (1921). Shuningdek psixodiagnostik testlar borasida German Rorshaxning (1921) va Trumen Li Kellining (1928) xizmatlarini ham hisobga olish lozim.

### ***Psixologik testlarning 1930-39 yillarda rivojlanishi.***

XX asrning 30 –yillarida bir qator testlar vujudga keldi. Ularning ko‘p qismi AQShda yaratildi. Shuningdek, 1936 yilda eng yetakchi testlar sifatida quyidagi beshta testlar e’tirof etildi: Stenford-Bine, Rorshax testi, Bernteyterning shaxs savolnomasi, Sishoning musiqiy talantni aniqlash testi, Strongning professional qiziqishlar blanki.

1938 yilda buyuk Britaniyada psixologiyada keng ko‘lamda qo‘llaniladigan Ravenning progressiv matritsalar testi ishlab chiqildi. Uning mualliflari Dj.Raven va L.Penros edi. Ular umumiy intellektni o‘rganish testiga asos solgan edilar.

Intellektning susayishini o‘rganishga erishgan David Veksler, o‘zining shkalasini yaratdi. Unda 11 sub’test mavjud bo‘lib, intellektning turli qirralarini o‘rganishga qaratilgan.

Shuningdek, Vekslerning izlanishlarida ham IQning yangi bir koeffitsiyentini topish formulasi taqdim etildi.

### *IQ □ Erishilgan(real)natija*

#### *Yoshguruxidagikutilayotganurtachakursatkich*

1937 yilda Kaliforniya universitetida aqliy yetuklikni aniqlash testi e'lon qilindi. Uning mualliflari Edvard Li Torndayk va Luis Lion Terstoun hisoblanadi. 1938 yilda Terstoun o'zining birlamchi aqliy qobiliyat testlarini e'lon qildi.

30-yillardagi yana bir muvaffaqiyatli izlanishlarni Uristian Morgan va Genri Aleksandr Myurrey amalga oshirdi. Ularning 1935 yilda «Shaxs tadqiqotlari» kitodida psixologik proyeksiya to‘g‘risidagi nazariy g‘oya xususida to‘xtalingan edi. So‘ngra u asosida Tematik appersepsiya testi (TAT) vujudga keldi.

Shuningdek ushbu yillarda proyektiv metodikalarning yaratilishida tub burilish yuz berdi, deyish mumkin. Chunki, venger-shvetsariyalik olim Leopold Sondi testi psixologiya olamiga kirib keldi. Uning testida 6 seriya har xil psixik kasallikdan azoblanayotgan bemorlarning (har bir seriyada 8 tadan portretlar) fotografiyalar bo‘lib, tekshiriluvchilarga har bir seriyadan o‘zlariga eng ko‘p yoquvchi va eng kam yoquvchilaridan ikkitasini tanlash tavsiya etilgan.

#### *40-yillarda psixologik testlarning rivojlanishi.*

1940 yillarda Oskar Burosning «Psixik o‘lchashlarning yilnomasi» nashrida psixologik testlar haqida ma’lumotlar taqdim etila boshlandi. Bunda 325 test sharhlanib, 200 test faqat sanab o‘tilgan edi. Birinchi jahon urushi singari, ikkinchi jahon urushi arafasida ham AQShda yangi testlar ishlab chiqila bordi. Amerikalik olimlar yana asosiy e’tiborni armiya uchun zarur guruhiy testlarni yaratishga kirishdilar va Armiyaning umumiyl klassifikatsiyalovchi testiguruhiy testi yaratildi. Unda 10mlnga yaqin harbiy xizmatchilar testdan o‘tkazildilar. Shuningdek, harbiylarda Rorshax, TATning qisqartirilgan varianti, vaziyatli testlar ham tatbiq etila boshlandi. Buyuk Britaniyada esa Ravenning progressiv matritsalari harbiy klassifikatsiyalashda qo‘llanila boshlandi.

40-yillarda Stenfordning “Erishganlik darajasini aniqlash” testi, Otisning klassifikatsion testi, Kyuderning 168 topshiriqli savolnomasi, shuningdek, Katrin Briggs va uning qizi Isabel Mayers tomonidan «MayersBriggsning tiplar indikatori» ustida ishlar olib borilib, 1962 yilda ushbu test e'lon qilindi.

Ushbu yillarda ko‘pchilikni e’tiborini Minnesotning ko‘p jabhali shaxsni o‘rganish savolnomasi (MMPI) o‘ziga jalb etdi. G.Y.Ayzenkning Moudsleysk tibbiyot savolnomasi yaratildi. Shuningdek, Gilford «Temperament sharhi» deb nomlangan testni ishlab chiqdi.

Urushdan so‘ngra Saul Rozensveyning frustratsiyaga reaksiyani aniqlash proyektiv testi (24 ta suratdan iborat) vujudga keldi.

50-yillarda Vekslerning katta yoshdagilarni intellektini o‘rganish shkalasi yaratildi. R.Kettellning intellektni aniqlashning erkin madaniy testi va 16 faktorli shaxs

savolnomasi yaratildi (1958). Dj.Teylarning bezovtalanishning namoyon bo‘lishini aniqlash metodikasi (1953) keng ko‘lamda tadqiqot maydoniga kirib keldi.

Test yordamida o‘tkazilgan deyarli barcha tadqiqotlarda test yutuqlari muayyan ijtimoiy-iqtisodiy darajaga mansub fanlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi haqidagi xulosa tasdiqlandi. Xususan, test sinovlari bo‘yicha eng yuqori ball olgan kishilar guruhi har doim ishchilar va dehqonlarning bolalaridan kamroq bolalarni o‘z ichiga olgan ota-onalar o‘rta sinfga, ziyolilarga tegishli edi. O‘sha yillardagi bunday test sinovlari asosida "ta’lim nomzodlari" deb nomlangan guruhlar aniqlandi, ular ta’limni davom ettirish bo‘yicha tavsiyalar oldilar.

Ma’lumki, keyin 1936, psixodiagnostika ustida tadqiqot bir necha o‘n yillar davomida cheklandi. 60-80-yillarda psixodiagnostika muammolariga qiziqishning yangi hosilasi kuzatilmoxda. Biroq asosiy e’tibor testlarni tanqid qilishga qaratilgan bo‘lib, kam darajada yangi usullarni yaratish ishlari olib borilmoqda. Tanqidiy tahlil asosan psixodiagnostika testlari bilan amalga oshiriladi (K. M. Gurevich, D. B. Elkonin, N. F. Talyzina va boshqalar.). Masalan, D. B. Elkonin "o‘quv faoliyati diagnostikasi va bolalarning aqliy rivojlanishi" to‘plamiga so‘zboshida» (1981) ularning kamchiliklari aniq eng muhim quyidagi ekanligini qayd qildi, psixodiagnostika testlari uchun asosiy da’volarni shakllantirmoqda: "birinchidan, faqat miqdoriy jarayon sifatida ruhiy rivojlanish jarayoni g‘oyasi; ikkinchi, bir davrdan boshqasiga o‘tish paytida sifat o‘zgarishlarni hisobga olmagan holda turli yosh davrlarida (maktabgacha va mактаб) tashxis uchun umumiy sxemadan foydalanish; uchinchidan, rivojlanish darajasi oldindan rivojlanish darajasi haqida asosiy g‘oyalar, oxir-oqibatda meros bo‘lib o‘tadi.; to‘rtinchidan, bunday diagnostika asosida hech qanday korreksion-pedagogik choratadbirlar qurish mutlaqo mumkin emas." Psixologlar intellekt testlari testda namoyon bo‘ladigan madaniyatga asosan test shkalasiining tanishlik darajasini o‘lchaydi, degan muhim xulosa chiqaradilar. Test nima uchun buni boshqasidan ko‘ra ko‘proq darajada bajarishga muvaffaq bo‘lganini ko‘rsatmaydi. Shu bilan birga test natijasini intellektni baholash yoki testda keltirilgan madaniyatga mavzuning tanishlik darajasi deb atash befarq emas. Xuddi shu paytni o‘zida, test tanqidi tufayli milliy ozchiliklar vakillari tomon kansituvchi yo‘naltirilganligiga xorijda ortib bormoqda, muhojirlar, bolalar kambag‘al oilalar va boshqalar. (L. Kemin, J. Loler, J. Naem, va hokazo)

Eng muhim tanqid psixodiagnostika uzoq vaqt asos qilib olingen nazariy va metodologik pozitsiyalardir. Eng umumiylizoh bir madaniyatda ishlab chiqilgan testlarni boshqasiga o‘tkazmaslik va natijalarni o‘xshash baholash amalga oshirilmasligi kerak edi. Shunday qilib, psixodiagnostikaning quyidagi jihatlari ko‘pincha tanqid qilindi: testlarda muayyan psixologik mazmunni joriy etish uchun nazariy asos yo‘qligi, psixodiagnostika uchun juda muhim bo‘lgan konsepsiyaning noaniqligi va nomuvofiqligi, fikrlash protsessual tomonini e’tiborsizlik, faqat uning natijasida e’tibor, ta’lim qobiliyati (rivojlanish imkoniyatlari) va rivojlantirishda sifatli lahzalarga kam e’tibor, ishonchsizlik psixologik test mazmuni zarariga statistik metodlarni bilan tuzatish

ish, test natijalarini baholash uchun faqat mumkin mezon sifatida statistik normalar foydalanish va boshqalar.

R.Amtxauerning intellektuallik darajasi o‘lchash testi esa verbal (so‘zli), matematik hisoblash, fazoviy va mnemik (xotira) xususiyatlarini baholovchi mantiqiy saralash, umumi xususiyatlarini aniqlash, analogiya (o‘xshashlik), klassifikatsiyalash, sanash, sonlar qatori, figuralarni tanlash, kubiklar, diqqat va xotirani o‘rganishga yo‘naltirilgan 9 ta subtest (alohida xususiyatni baholashga mo‘ljallangan va mustaqil test qismi)lardan iborat.

R.B.Kettell esa intellektuallikni inson hayotining barcha bosqichlarida shakllanadigan (krisstallashgan) va madaniy muhit ta'siriga bog'liq bo'lмаган "sof" (flyudlashgan) intellektga ajratgan. Shunga muvofiq, "sof" intellektni o'lchashga yo'naltirilgan "Madaniy muhit ta'siridan xoli intellektni o'rganish testi" shakllantirildi. Bu test psixologik tadqiqot va amaliyotda keng qo'llanib kelinmoqda.

Iqtidor - ijodiy imkoniyat ko'rsatkichi sifatida ham alohida mezonlar ajratilgan. Ushbu yo'nalishda bolalarning ijodiy imkoniyatlarini baholashga mo'ljallangan amerikalik olim YE.P.Torrens testini misol sifatida keltirish mumkin. YE.P. Torrensning "Ijodiy tafakkur testi" 1990 yillarda 32 tilda tarjima qilinib, 2000 dan ortiq tadqiqolardan tatbiq qilingan. YE.P.Torrens ijodkorlik (kreativlik)ni muammoni yechish, muammoga nisbatan sezgirlikni paydo bo'lishi, muammoni aniqlash va uni xususiyatlarini o'zlashtirish, muammoni yechish yo'llarini taxmin qilish, ularni tekshirish, o'zgarishlar yoki yanglishishlarni aniqlash, yechimni topish uchun yangi taxminlarni ilgari surish, yechimni topish, uni talqin qilish va natijalarini ma'lum qilishdan iborat jarayon sifatida qaraydi. U tomonidan yaratilgan test ham ushbu g'oyaga asosan ishlab chiqilgan. Test 5-6 yoshli bolalardan boshlab, yuqori sinf o'quvchilarning kreativlik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Test bolalarning kreativlik xususiyatlari aniqlashga yo'naltirilgan "Suratni chizing", "Figuralarni yakunlang", "Takrorlanuvchi chiziqlar" subtestlaridan iborat. Subtestlar bolalar kreativligining "mahsuldorligi" (bolaning ijodiy mahsuldorlik darajasi), "originalligi" (ijodiy faoliyat natijasining noyobligi, o'ziga xosligi), "ishlab chiqilganlik" (o'ylab topilgan g'oyaning mayda detallarigacha ishlab chiqilganligi), "g'oyalar qarama-qarshiligi" (g'oyalarning xilma xilligi va kashf qilingan yangilikni uzoq vaqt davomida saqlash qobiliyati, original g'oyani yaratish) kabi mezonlar bo'yicha baholaydi [3].

Iqtidorli bolalar diagnostikasi sohasida qo'llanilayotgan usullarning xilma xillagini yaqqol namunasi buyuk insonlar hayotini tadqiq etishning biografiya metodidir. Ushbu yo'nalishda Garvard universiteti professori G.Gardner buyuk insonlarning biografiyasini o'rganish asosida faoliyat yo'nalishiga ko'ra intellekt tiplarini ajratgan va maxsus tadqiq etish anketasini shakllantirgan [4]:

- mantiqiy-matematik intellekt-tabiiy va matematik (A.Eynshteyn);
  - vizual-fazoviy intellekt- geometriya, rassom, haykaltarosh, arxitektura, topografiya, shaxmat (P. Picasso);
  - verbal yoki lingvistik intellekt-yozuvchilar, shoirlar, oratorlar (T.Eliot);
  - tana-kinestetik intellekt- raqs, pantomima, sport, xirurgiya (M. Grexem, M. Marso); □ musiqiy intellekt-bastakorlar, musiqachilar, raqqoslar, ashulachilar (I. Stravinskiy); □ emotsional yoki shaxslararo intellekt-liderlar, diplomatlar, pedagoglar (M.Gandi); □ ekzistensial yoki ma'naviy intellekt- psixologlar, psixiatrlar (Z.Freyd).
- Yuqorida keltirilgan mulohazalar real voqelikda amalga oshirilgan va mavjud xorijiy tajribalarning natijasi sanaladi.

# IQTIDORLI BOLALARNI DIAGNOSTIKA QILISH

## (A.I. SAVENKOV)

### **Bolalar uchun ko‘rsatma**

Quyida berilgan savollarga aniq javob berishga harakat qiling. Barchasi 35 ta savol bo‘lib, sizga yoqmasa “-”, agar yoqsa “□”, juda yoqsa“□□” belgisini qo‘ying.

### **Ota -onalar uchun ko‘rsatma**

Bolangizning qobiliyatini rivojlantirish uchun uning layoqatini bilish lozim. Sizga 35 ta savol tavsiya qilinadi. Ularning har biriga javob bering. Bolangizning imkoniyatini orttirib ham, kamaytirib ham baholamang.

### **Savollar varaqasi**

Hamma savollar «**sizga yoqadimi**» tarzida boshlanadi.

1. Savodxonlik va mantiqiy topshiriqlarni yechish.
2. Ertak, hikoya, qissalarni mustaqil o‘qish.
3. Ashula aytish.
4. Jismoniy tarbiya (futbol, voleybol, basketbol va h.k.) bilan shug‘ullanish.
5. Bolalar bilan har xil jamoa o‘yinlarini birgalikda o‘ynash.
6. Tabiat haqidagi hikoyalarni (eshitish) o‘qish.
7. Oshxonada nimanidir bajarish ( idishlarni yuvish, ovqat tayyorlash va h.k.).
8. Texnik qurilmalar bilan o‘ynash.
9. Til o‘rganish, yangi notanish so‘zlardan foydalanish.
10. Mustaqil chizish.
11. Sport, harakatli o‘yinlar o‘ynash.
12. Bolalar bilan o‘ynaganda rahbarlik qilish.
13. O‘rmonda, dalada yurish, o‘simlik, hayvonlarni kuzatish.
14. Oziq-ovqat sotib olish uchun magazinga borish.
15. Texnika, mashina, kosmik kema haqidagi kitoblarni o‘qish.
16. So‘z topish o‘yinini o‘ynash (shahar, hayvon va h.k. nomini).
17. Ertak, hikoyalarni mustaqil tuzish.
18. Kun tartibiga rioya qilish.
19. Yangi notanish odamlar bilan suhbatlashish.
20. Uyda akvarium, qush, hayvonlarni saqlash.
21. O‘zi bilan kitob, daftар, o‘yinchoqlar olib yurish.
22. Samolyot va kemalar chizish va yasash.
23. Tarix bilan tanishish.
24. Kattalar yordamisiz mustaqil badiiy ijod bilan shug‘ullanish.
25. Sport haqidagi kitoblarni o‘qish, sport ko‘rsatuvlariini ko‘rish.

26. O‘z fikrini boshqa bolalarga yoki kishilarga tushuntira olish.
27. Uy o‘simliklarini parvarishlash.
28. Uyni saranjom-sarishta tutishga yordamlashish.
29. Maktabda matematika bilan shug‘ullanish.
30. Ijtimoiy hodisa va xalqaro voqealar bilan tanishish.
31. Spektakllar qo‘yishda ishtirok etish.
32. Seksiya va to‘garaklarda sport bilan shug‘ullanish.
33. Odamlarga yordam berish.
34. Bog‘da ishslash, poliz o‘simliklarini o‘stirish.
35. Bichish-tikish, kir yuvishni mustaqil bajarish.

## *Kalit*

1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31	32	33	34	35

### *Natijalarни гайта ишлаш*

Savollar bola layoqatining yetti sohasini qamrab olgan.

- **Matematika va texnika**
- **Gumanitar soha**
- **Badiiy faoliyat**
- **Jismoniy tarbiya va sport** ▪ **Kommunikativ qiziqish**
- **Tabiat va tabiatshunoslik**
- **Uy yumushlari, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish.**

Vertikal bo‘yicha plyus va minuslar miqdori hisoblab chiqiladi. Qaysi yo‘nalishdagi layoqat bo‘yicha plyus ko‘p bo‘lsa, o‘sha layoqat ustun hisoblanadi.

### *Shaxs va guruh sotsial-psixologik diagnostikasi.*

Hozirgi kunda shaxs psixodiagnostikasiga gumanistik yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etish va rivojlantirish uchun dolzarb ehtiyoj mavjud bo‘lib, uning asosiy qiymati hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxsni psixologik tashxislash, korreksiyalash, rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishning zamonaviy usullarini amaliy psixologiyada keng qo‘llashni ta’minlaydi. Bunday yondashuv shaxsni psixologik tashxislash, korreksiyalash, rivojlantirish va o‘zo‘zini rivojlantirishning zamonaviy usullarini amaliy psixologiyada keng qo‘llashni ta’minlaydi. Zamonaviy psixologiya fanida psixodiagnostikaning predmeti va mohiyatini tushunish va ochib berishda bir qancha modellar mavjud. S. T. Posoxova ta’kidlaganidek, muayyan shartlilik darajasiga ega bo‘lib, hozirgi vaqtida quyidagi yondashuvlar ishlab chiqildi:

- a) instrumental;
- b) loyihalash;
- c) gnostik;
- d) yordam beruvchi shaxs;
- e) amaliyotga yo‘naltirilgan;
- f) adaptiv;
- g) ajralmas.

Psixodiagnostikaning bunday xilma-xil modellarining mavjudligi ko‘p sabablar bilan izohlanadi:

- a. ushbu soha turli fanlarning yutuqlari: ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqalar ta’siri ostida rivojlandi va rivojlanmoqda.;
- b. psixodiagnostikaning fan sifatida umumiy nazariy asoslari yo‘q;
- c. psixologning ko‘p aspektli kasbiy faoliyati mavjud;
- d. psixodiagnostika fanining imkoniyatlari o‘zi yetarli darajada ochib berilmagan.

Jamiyatning barcha amaliy jihatdan psixologik bilimlarga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq holda tadqiqot, shaxsiy yondashuvni qo‘llash zarurati tug‘ildi.

Bu ehtiyoj ayniqla turli ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tashkiliy psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan psixodiagnostika va kadrlarni baholashning zamonaviy texnologiyalari, masalan, "360-darajali baholash", baholash markazlari, shaxsni kasbiy va shaxsiy yo‘naltirish so‘rovnomalari yangi avlod mutaxassislariga ko‘pincha so‘nggi, xorijiy ishlanmalar mahsuli sifatida taqdim etiladi. Biroq XX asrning 70-yillari o‘rtalaridan boshlab psixodiagnostika fanining maxsus tarmog‘i-shaxsning ijtimoiy-psixologik diagnostikasi asta-sekin rivojlandi.

Metodologik jihatdan insonshunoslikka har tomonlama yondashish g‘oyasi birinchi navbatda V. M. Bexterev tomonidan ilgari surilib, aslida rus psixologiyasida antropologik ilmiy yo‘nalishni shakllantirdi. Ushbu g‘oyaning boshqa falsafiy pozitsiyalarda rivojlanishi B. G. Ananevning konseptual tizimida o‘z aksini topgan

Insonni psixologik bilish maqsadida murakkab o‘rganishni nazariy va metodologik asoslashda qo‘llaniladi. N. A. Loginova haqli ravishda ta’kidlaganidek, integratsiyalashgan yondashuv-bu maxsus metodologik strategiya va insonning keng qamrovli va yaxlit psixologik bilimlarining yeng yetarli vositasidir.

B. G. Ananev kompleks yondashuv asosiy tamoyili bo‘lishi, inson o‘rganish integratsiyasini ta’minlaydi fanlararo tamoyilini ko‘rib chiqildi. B. G. Ananev insonni har tomonlama o‘rganish dasturida uchta asosiy bo‘limni aniqladi, unda disiplinlerasasi tamoyil:

1. Inson taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va muhitning biotik, abiotik omillari bilan tugaydigan) tadqiq etiladi.
2. Inson taraqqiyotining asosiy xususiyatlari.
3. Insonning ajralmas tuzilishining asosiy tarkibiy qismlari (shaxsning muayyan tashqi ta’sirlarga bo‘lgan har qanday reaksiyasini belgilovchi komponentlar o‘rtasidagi munosabatlar).

Ushbu tadqiqotda belgilovchi, tasniflovchi metod ijtimoiy psixologiyaning klassik metodiga aylangan ekspert baholashning ijtimoiy-psixologik usuli, ya’ni uning modifikatsiyasi-guruhiy shaxsni baholash (maqsad) tomonidan taklif etilgan. Maqsad insonning kasbiy faoliyatida, uning boshqa kishilar bilan o‘zaro munosabatlarida

namoyon bo‘ladigan shaxsiy va psixologik sifatlarning mavjudligi va ifodalanganlik darajasini baholash imkonini beradi. Maqsad shaxs-ijtimoiy jamoa a’zosi (haqiqiy guruh) haqidagi jamlangan guruh fikrini ("umumlashgan boshqa") ifodalaydi va guruh a’zolarining har biri haqidagi g‘oyalarning ijtimoiy-psixologik hodisasi bo‘lib, muloqot jarayonida kishilarning o‘zaro bir-birlarini bilishlari natijasida yuzaga keladi.

Murakkab yondashuv ijtimoiy-psixologik tashxisda ustunlik qiladi, lekin u bilan birga qiyosiy yondashuv — psixologyaning yeng qadimgi usuli, shuningdek, tasavvurlar usuli sifatida ham tanilgan. Bu usul insonning aqliy tashkil topishi rivojlanishining turli bosqichlarini va guruhning turli rivojlanish darajalarini, ya’ni bir xil hodisaning turli rivojlanish darajalarini taqqoslash imkonini beradi.

Qiyosiy xususiyat kategoriyalari, birinchi navbatda, jins, yosh, shuningdek, ijtimoiy-demografik xususiyatlari: ta’lim, kasbiy mansublik, rasmiy holat, millat, yashash joyi va boshqalar kiradi. Qiyosiy metodni tashkil yetishda yeng muhim g‘oya shundan iboratki, har qanday berilgan mezon bo‘yicha farq qiluvchi guruhlar taqqoslash uchun tanlanadi.

Farqlovchi xususiyat sifatida tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos keladigan va taqqoslangan odamlar va guruhlar o‘rtasidagi yehtimoliy farqlarni aniqlaydiganlar tanlanishi mumkin. Bular insonning ijtimoiy, ijtimoiypsixologik, psixologik, psixofiziologik va boshqa xususiyatlari bo‘lishi mumkin. Ushbu yondashuvning asosiy talablari:

- a. taqqoslangan guruhlarda bir xil usullar va psixodiagnostik metodlardan to‘liq foydalanish kerak;
- b. odamlar va guruhlar o‘rtasidagi qiyosiy tahlil jins, yosh, kasb kabi o‘ziga xos mezon asosida amalga oshiriladi, lekin o‘rganilgan hodisa davomida olingan bir xil ko‘rsatkichlarga ko‘ra.
  - i. Qiyosiy yondashuv quyidagi afzalliklarni beradi:
    - c. katta guruhlarni taqqoslash va ularning farqlarining asosiy determinantlarini aniqlash;
    - d. bir xil ijtimoiy, madaniy, tarixiy va iqtisodiy sharoitlarda guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash;
    - e. individual o‘zgaruvchanlikning shaxs mansub bo‘lgan guruh ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi;
    - f. tanlangan usullarni va muayyan tadqiqot uslubiyotlarini kompleks yondashuv tamoyiliga rioya qilish uchun sozlash va tozalash

## **2-AMALIY MASHG‘ULOT. TIBBIY PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA VA SHAXS KLINIK PSIXODIAGNOSTIKASI.**

## **Reja:**

1. Tibbiy psixologik diagnostikaning xalqaro tajribasi va uning O‘zbekistondagi holati..
2. O‘zbekistonda tibbiy psixodiagnostikaning rivojlantirish: muammo va yechimlar

Psixologiya o‘zining rivojlanish tarixida qator fanlar bilan uzviy aloqadorlikda kechganligini aniq ilmiy manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bu holat psixologiya bilan tibbiyat sohalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chetlab o‘tmagan. Jahon psixologiyasining qator vakillari ham psixologiyada yuksak ilmiy g‘oyalarni ilgari surishlarida tabiiy va tibbiyat sohalarida izlanishlari bilan inson ruhiyatining o‘ziga xos qonuniyatlarini o‘zaro singdirishga harakatlari tufaylidir. Shu boisdan ham F.Galton [2], Z.Freyd [26], K.G.Yung [28], A.Adler [28], K.Xorni [27], E.Krechmer [28], R.Assadjioli [28], R.Mey [28], V. Frankl [25] va boshqalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini misol sifatida keltirish mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi ham o‘z navbatida jahon psixologiyasi erishgan yutuqlarning ajralmas qismi sifatida hamda uning an’alariga hamohang tarzda rivojlanishini taqozo etmoqda. Shu sababli ham psixologiya fanining har bir sohasidagi o‘zagrishlarning o‘zbek psixologiyasida ham uchratish va ularning o‘zaro birligini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Muammo bu tarzdagi munosabatning keltirishning o‘ziga xosligini mamlakatimizda psixologiya fani sohalari bo‘yicha kadrlar tayyorlash masalasidagi o‘zgarishla bilan bog‘lash mumkin. Bugungi kunda O‘zMU, TDPU, O‘zXIA, SamDU, BuxDU, FarDU, QarshiDU, Nukus DU, TerDU, UrDU, ADU, TTAda va boshqa ta’lim muassasalarda 5210200-Psixologiya (umumiy psixologiya), 5210203-Psixologiya (amaliy psixologiya), 5210204-Psixologiya (oila psixoloiyasi), 5210205-Psixologiya (yoshlar psixologiyasi), 5210200-Psixologiya (din sotsiopsixologiyasi), 5210200Psixologiya (sport) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavr, 5A210201-Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha), 5A210201-Psixologiya (sotsial psixologiya), 5A210201Psixologiya (oilaviy munosabatlar psixologiyasi), 5A210201-Psixologiya (din psixologiyasi), 5A510116-Tibbiy psixologiya bo‘yicha magistratura mutaxassislari tayyorlanayotganligini e’tirof etish mumkin. Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda psixologiya sohasining rivojlanishiga e’tibor yuqori bo‘layotganligidan dalolat beradi.

Muammoning tadqiqot muhokamasiga qo‘yishning o‘ziga xos bir jihat psixologiya, xususan, psixodiagnostika bilan tibbiyat sohasi orasidani munosabat masalalariga aniqlik kiritish uchun yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni asos sifatida keltirishga to‘g‘ri kelmoqda. Birinchi jihat psixologiya fanining rivojlanishiga e’tiborning kuchayotganligi bo‘lsa, ikkinchi jihat o‘zbek psixologiyasini jahon psixologiyasi muammolari bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda respublikamizda psixologiya fani bilan tibbiyat sohasining uyg‘unligini ta’minlashga yo‘naltirishdan iborat bo‘lmoqda. Agar jahondagi yetakchi oliy ta’lim muassasalariga e’tibora qaratilsa, ularda klinik psixologiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash jarayoni faol amalga oshirilayotganligining guvohi bo‘lamiz (Moskva davlat universiteti, Sankt Peterburg davlat universiteti, Janubiy Ural davlat universiteti, Southern

Illinois University Edwardsville (AQSH), The University of Western Australia (UWA)

### **Dobavleno primechaniye ([A1]):**

(Avstraliya), University of Auckland (Yangi Zelandiya), Manchester Metropolitan University (Buyuk Britaniya) va boshqa). Jahon psixologiyasi tajribalariga hamohang tarzda inson psixologiyasi bilan organizm o‘rtasidagi bog‘liqlik kasalliklarni oldini olish va davolashning muhim sharti ekanligi g‘oyasiga tayangan holda amalga oshirish masalasi maydonga chiqmoqda. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda psixologiya va tibbiyotning munosabatini psixodiagnostika o‘lchash ishlari bilan bog‘lash maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik. Bu esa fanda tibbiy psixodiagnostika muammolari hisoblanadi.

Psixologiya fanida olib borilgan izlanishlarda psixikani biologik, ijtimoiy va psixologik ko‘rinishlari birligida yaxlit o‘rganish g‘oyalari, xususan Sankt-Peterburg eksperimental va patologik psixologiya maktabining rivojlanish davrida uzoq vaqtlardan buyon izlanishlar amalga oshirilmoqda (Bekxterev V.M., 1907, 1923; Bernshteyn A.N. 1911; Lazurskiy A.F., 1908, 1923; Frank S.L., 1912; Basov M.Y., 1920). Mazkur g‘oyaning metodologik mohiyatini faqat psixologiyada tizimli yondashuv rivojlanishi bilan to‘liq anglash mumkinligi ta’kidlanadi Shu sababli, hozirgi paytda psixologiya muammolarini tizimli ko‘rib chiqishning aniq uslubiy va ilmiy asoslangan metodologiyasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu umuman psixologiya faniga ham, uning alohida sohalariga ham tegishli. Xususan, tibbiy psixologiyaning tobora murakkablashib borayotgan tabiat bilan bog‘liq holda, psixologik

diagnostika kabi tibbiy psixologlarning kasbiy faoliyatining bunday sohasini yo‘lga qo‘yishda fanning ilg‘or g‘oyalari va usullaridan foydalanish dolzarb bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda tibbiy psixodiagnostika sohasida psixologik metodikalarning tatbiq qilish xususiyatlari masalasi eng dolzrab muammolardan biri deyish mumkin. Mazkur yo‘nalishda tibbiyot bilan psixologiyaning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashda ikkita masalaning yechimini topish zarurati bor:

Birinchisi, tibbiy psixodiagnostika bo‘yicha psixologiyadagi metodikalarning qo‘llashga xizmat qiluvchi nazariy-metodologik asoslarni tizimlashtirish.

Ikkinchisi, psixodiagnostika amaliyotida qo‘llanilayotgan metodikalarning tibbiy psixodiagnostika amaliyotida bemorlarning psixologik jihatlarini inobatga olib, joriy etish majmuasini shakllantirishdan iborat.

Mazkur masalalarni yechimini topish borasidagi ma’lum analitik –tahliliy tadqiqotning ayrim jihatlari haqida quyida to‘xtalamiz.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, G‘arbiy Yevropa va Amerikada klinik psixodiagnostika rivojlanishining asosiy bosqichlari 19-asr o‘rtalarida boshlanib, hozirgi kunda zamonaviy talablarga mos tuzilma hosil qilgan Masalan, intellektning test yordamida diagnostikasi paydo bo‘lish, shaxsni o‘rganishga birinchi nazariy va uslubiy yondashuvlarning paydo bo‘lish bosqichi hisoblansa-da, psixodiagnostikada proyektiv yondashuv metodologiyasi alohida o‘ringa ega. Zamonaviy psixodiagnostika usullarining paydo bo‘lishi uchun ijtimoiy va ilmiy zaruriyatlar tahlil qilindi. Birinchisi qatorida, xususan, Birinchi va Ikkinci Jahon urushi paytida psixologik testlarga bo‘lgan ehtiyojning keskin o‘sishi, XX asrning ikkinchi yarmida keng gumanistik g‘oyalarning jamiyatda tarqalishi, yangi psixologik yo‘nalishlari - bixevoirizm, psixoanaliz, geshtalt psixologiyasi, urushdan keyingi yillarda - shaxsga yo‘naltirilgan psixoterapiya nazariyasi va amaliyoti klinik psixologik tadqiqotlarning rivojlanishiga xizmat qilgan ( A.Anastazi, S.Urbina 2001 [2]; L.F.Burlachuk 2002 [6]; V.S.Avanesov, 2004 [1] va boshqalar).

Hayot tarzining jadal kechishi so‘nggi yillarda tibbiy va psixodiagnostika vositalarini rivojlantirishning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘ta kuchli stress omillari va o‘ta inqirozli vaziyatlarga ta’sir qilishning psixologik oqibatlarining aniqlash va baholash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan metodikalarni yaratish alohida ta’kidlanmoqda.

Bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari xulosasiga ko‘ra hozirgi vaqtida psixologik diagnostika tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasida ishlaydigan psixologlarning kasbiy faoliyatining asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, tibbiy psixodiagnostikaning vazifalari neyropsikik va psixosomatik kasalliklarga chalingan bemorlarni davolash va tiklash vazifalari bilan, kasalliklarning oldini olish vazifalari bilan bir qatorda bemorlarga psixologik maslahat berish, psixologik korreksiya, psixoterapiya va ijtimoiy reabilitatsiya vazifalari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy xulosalangan (L.I.Vasserman [7], O.Y.Shelkova, 2003 [33]; 2003; V.M.Bleyxer [5] ; M. Antony , D Barlow ., 2004 [34]; G. Groth-Martnat , 2005 [35]; M.Roberts,

S.Ilardi, 1995 [36]). Har qanday maqsadli kasbiy faoliyat singari tibbiyotdagi psixologik diagnostika ham diagnostika jarayonining barcha bo‘g‘inlarining o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladigan yaxlit va integral xarakterga ega. Aynan tibbiy psixodiagnostikaning tabiatи shaxsni har xil hayotiy vaziyatlarda va ishslash sharoitida uning individual ruhiy ko‘rinishlarining har xilligida batafsил o‘rganishni amalga oshirishga imkon berishini o‘rganilgan (L.I., Vasserman, 1997 [7]; O.Y.Shelkova, 2003 [33]). Bundan kelib chiqadiki, inson psixikasini tizimli va o‘zaro aloqadorlikda tekshirishga qaratilgan tibbiy psixodiagnostikaning o‘zi insonning eng murakkab faoliyati bo‘lib, uni yetarli darajada tavsiflash va chuqur tahlil qilish o‘zining tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Tibbiy psixodiagnostikaning o‘lchash vositalarini ko‘rib chiqishning dolzarbligi ushbu ilmiy va amaliy sohada muhim empirik materiallar to‘planib, tadqiqotlar tobora kengayib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu sohadagi bilimlarni tizimlashtirish, tibbiyotdagi psixodiagnostik faoliyatning umumiy nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bundan tashqari, XX asrning 50-70-yillarida B.V.Zeygarnikning patopsixologik maktabi [13], A.R.Luriyaning neyropsixologik maktabi [18] va V.N. Myasishevning tibbiy psixologiya maktabida ishlab chiqarilgan klinika tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan an‘anaviy psixologik tadqiqotlar metodologiyasi so‘nggi yillarda sezilarli ravishda xorijiy yondashuvlar bilan to‘ldirildi. Shuning uchun tibbiy psixodiagnostikaning nazariy va uslubiy yaxlitligini saqlab qolish uchun uning hozirgi holatini tahlil qilib borish, ilm-fanning zamonaviy rivojlanish darjasini, shu jumladan yangi axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi xususiyatlarini hisobga olgan holda uning asosiy uslubiy yondashuvlari va tamoyillarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa albatta tibbiyotda psixodiagnostika usullarini tatbiq qilishda aniq metodologiyaga tayanish lozim bo‘ladi. Shuning uchun tibbiy psixodiagnostikada metodikalarni joriy etishini yetarlicha va to‘laligini ta‘minlanishining yo‘iga qo‘yishda quyidagi holatlar o‘rinli bo‘ladi:

1. Zamonaviy ilm-fan va amaliyotning eng muhim uslubiy prinsiplariga tayanish.
2. Salomatlik bilan kasallikkarda inson psixikasini o‘rganishga yaxlit yondashuvning mavjud an‘analariga tayanish.
3. Muammoning tadqiq etishda pssixologiyani murakkab (B.G. Ananiyev) va tizimli (B.F. Lomov) yondashuvlar tamoyillari, psixikani o‘zaro bog‘liq funksiyalari, jarayonlari, holatlarining murakkab tizimi sifatida tushunish (V.D.Balin [3], L.M. Vekker [8], A.V. Karpov [15], V. S. Merlin [19], shaxs - munosabatlar tizimi sifatida (V. N. Myasishev)dagi g‘oyalarni metodologik asos sifatida qabul qilish
5. Psixodiagnostik faoliyatning nazariy va uslubiy asoslari, psixologik tashxis qo‘yish ilmi va amaliyoti sifatida psixologik diagnostika haqidagi zamonaviy g‘oyalarga (A. Anastazi [2], S. N. Kostromina [16], V. V. Stolin [22], A. G. Shmelev [30, 31,32] va boshqa) asoslanish.
6. Psixodiagnostika metodikalarining bemorlarning kasallik xususiyatlariga mos tanlash va tatbiq qilish tizimini shakllantirish.

7. Psixolog-psixodiagnost bilan tibbiyot xodimining metodikalardan foydalanish ko‘nimalari bo‘yicha mutaxassislarning hamkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

8. Tibbiy psixodiagnostikani joriy qilishda mutaxassis faoliyatini tartibga soluvchi kasbiy-etikaviy tamoyillarini talablar darajasida tatbiq qilish.

Yuqorida keltirilgan asoslardan ko‘rinadiki, tibbiy psixodiagnostikani o‘rganishning nazariy va uslubiy asoslari murakkab dinamik obektlarni o‘rganishda ilmiy bilimlarni birlashtirish va differensiyalash birligi prinsiplari, sog‘liqni saqlash va kasallikdagi inson psixikasini o‘rganishga bag‘ishlangan yondashuvlar bilan belgilandi.

O‘zbekiston sharoitida tibbiy psixodiagnostikani joriy etish uchun ham metodologik asos sifatida xizmat qiluvchi yondashuvlar hamda psixodiagnostika metodiklar bazasi uchun ehtiyoj bor. Shuning inobatga olgan holda tibbiy psixodiagnostikaning joriy etishning metodikalar bazasi qanday tartiblanishi va qanday bog‘liqlikka ega bo‘lishi lozim? degan savol tug‘iladi. Buning uchun ko‘tarilayotgan masalaning yechimini topishga xizmat qiluvchi aniq faoliyat yo‘nalishlari lozim. Ushbu holatni inobatga olgan holda bir qator amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni keltirib o‘tamiz.

Tibbiy psixodiagnostikada metodikalarning qo‘llash xususiyatlarini tekshirish vazifasiga muvofiq ruhiy va somatik kasalliklarga chalingan bemorlarning turli xil kontingenqlarini, shuningdek, sog‘lom odamlarni empirik tadqiqotlar o‘tkazishda klinik va eksperimental psixologik usullarning kompleksidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu esa metodikalar majmuini tibbiy psixodiagnostikaning tadqiqot predmeti va yo‘nalishlari tuzilishiga mos keladigan quyidagi bandlarni o‘z ichiga oladi.

1.O‘zbekiston sharoitida tibbiy psixologik xizmatni joriy etilganligi, psixologik xizmat sharoitida tibbiy psixologik diagnostika bo‘yicha mutaxassislarning metodikalarni tatbiq qilish va tahlil qilish bo‘yicha faoliyatini ekspert baholash tizimiga tayanish. Buning uchun muammoning xususiyatidan kelib chiqqan holda ekspert baholash kartasini shakllantirish lozim bo‘ladi.

2. Kognitiv faoliyatni o‘rganishda psixodiagnostika amaliyotida qator metodikalar mavjud. Mavjud metodikalarning tibbiy psixodiagnostika maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish lozim bo‘ladi. Buning uchun "Neyropsixologik diagnostika texnikasi", "Vizual retensiya testi", "Korrektura sinovi testi", "Raqamlarni topish (Shulte jadvallari)", Krepeilen jadvali, "O‘nta so‘z" (A.Luriya), "Piktogrammalar", "Ortiqcha predmetni uchiring", "Oddiy analogiya", "Analogiya" va boshqa metodikalarni tatbiqini ta’minlash.

3. Shaxsning psixik holatni o‘rganishda "Depressiyani baholash shkalasi", "Depressiv holatlarning anketasi", "A. Bekning depressivlikni baholash so‘rovnomasasi", "Vaqtning semantik differensiali", "Nevrotiklik darajasi", "Psixopatologik simptomlarning ifodalanganlik darajasini aniqlash so‘rovnomasasi" vaa boshqa metodikalardan foydalanish.

4. Shaxsning emotsional-motivatsion sohasi va irodaliviy sifatlarini o‘rganishda "Subektiv nazorat darajasi" testi, "O‘z-o‘zini anglash uchun ko‘p faktorli so‘rovnoma", "Ruhiy so‘lish", ekspres-psixodiagnostika texnikasi kompleksi: "O‘zini va atrof-muhitni

nazorat qilish ongi", "Kelajakka hissiy munosabat" testi, "Frustratsiyani o'rganish" testi va boshqalarni qo'llashni yo'lga qo'yish.

5. Bemorning shaxs tuzilishini o'rganishda "Shaxsni tadqiq qilishning standartlashtirilgan usuli", "Shaxs differensial" testi, "Shaxsning aksentuatsiyasini aniqlash so'rovnomasasi", "Shaxsning neyrotik xususiyatlari", "Katta beshlik" so'rovnomalari va boshqalarni klinik amaliyotda psixodiagnostika maqsadari uchun joriy etish.

6. Bemor shaxsning psixologik himoya tizimini ishlashini va uning moslashuv mexanizmlarini o'rganish usullari uchun "Hayot tarzining ko'rsatkichi", "Psixologik himoya mexanizmlari dinamikasi", "Muammoni hal qilishni rejalashtirish", "Stress bilan kurashish strategiyasining ko'rsatkichi" va boshqala metodikalarning amaliy holatini sinovdan o'tkazish.

7. Bemorlarning shaxslararo munosabat tizimini o'rganish usullari tizimini shakllantirishda "Reabilitatsiya kartasi", "Tugallanmagan jumlalar", "Ijtimoiy frustratsiya darjasasi", "Q-saralash", "Turi kasalliklarga munosabat tiplari", "Hayot sifati bo'yicha so'rovnomasi" va boshqa metodikalarini tatbiqini tashkillashtirish.

Mamlakatimizda tibbiy psixodiagnostikani yo'lga qo'yish bo'yicha ko'tarilayotgan ilmiy muammo va uning yechimlariga bag'tshlangan tahliliy-tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirib o'tishi mumkin:

1. Tibbiy psixodiagnostikani mahalliy sharoitga mos tizimini shakllantirish o'z ahamiyatiga ega va bu soha mutaxassislarining doimiy diqqat markazidagi masala hamda faoliyat yo'nalishi hisoblanadi.

2. Tibbiy psixodiagnostikada psixologik tadqiqot metodikalarini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari jahon psixologiyasida ilgari surilgan g'oyalarga tayaniadi va mazkur yo'nalish muammolarini omilkorani hal etishga tayanch sifatida xizmat qiladi.

3. Psixodiagnostika amaliyotida metodikalarning ulushi ko'p, ammo ularning o'rnini belgilash baholash vositalarini tibbiy psixodiagnostikadagi maqsadlarida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va metodikalar tizimini shakllantirish lufayli erishiladi.

4. Tibbiy psixodiagnostikada metodikalarini tatbiq etish ham psixologik, ham tibbiy tadqiqotlar o'rtasida ilmiy aloqalarni shakllantirish yorlamida yetarlicha ta'minlanadi.

Jahonda inson salomatligining ta'minlashda psixologik omillar o'rni yuqoriligi sababli tibbiyot psixologiyasi, klinik psixologiya, psixoterapiya, neyropsixologiya singari fanlarning keng yoyilishiga sabab bo'lmoqda. Xavotirlanish va depressiv holatlardan shizofreniyaning og'ir shakllari bilan yakunlangan turli xil ruhiy anormalliklarning eng katta ulushi dunyodagi rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Avvalo, bu Yevropa davlatlari kuzatilib, Juhon sog'lijni saqlash tizimi (JSST) rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, masalan, Yevropada yashovchi 870 million fuqaro bunday kasalliklardan azob chekishini qayd etmoqda [11]: "depressiya va bezovtalanish

oqibatidagi ruhiy buzishlar-100 million; surunkali alkogolizm-20 milliondan ortiq, Alsgeymer kasalligi va boshqa aqliy zaiflik turlari-8 million; shizofreniya-4 million; bipolyar buzilishlar-4 million; vahima oqibatida paydo bo‘layotgan buzilishlar — 4 million nafer kishini taqazo etmoqda. Ruhiy kasalliklar yurak-qon tomir kasalliklaridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Bu shifokorlar doimiy yoki davriy kuzatuvga muhtoj bo‘lgan juda ko‘p nogiron fuqarolardir. Bundan tashqari, ruhiy kasalliklar barcha surunkali kasalliklarning 40% ni tashkil qiladi”. Bu esa inson ruhiy salomatligini ta’minlashda psixologiya va tibbiyat fanining o‘zaro hamkorligini ta’minlash dolzarb muammo sifatida maydonga chiqishiga sabab bo‘ladi.

Dunyoda inson salomatligini ta’minlashda tibbiy va psixologik omillarning uyg‘unlashtirish, psixologik davo choralarining samarali yo‘llarini shakllantirish, organizm va inson ruhiyati o‘rtasidagi munosabat, jarohatlar tufayli vujudga kelgan stressli buzilishlarning klinik-psixologik va psixosotsial omillari, aqliy taraqqiyotdan ortda qolish va shizofreniya sharoitida kognitiv funksiyalarning buzilishi, oliv o‘quv yurti talabalarining amaliy sog‘lom holatida tafakkurda uchraydigan psevdopatologik xususiyatlar, muttasil miya ishemik kasalliklarning ilk diagnostikasi va davolashning biosotsial omillari, autistik buzilishli bolalar bilan oilaviy munosabatlarni tashkil etish xususiyatlari, shizofreniya kasallarining qadriyat yo‘nalishlari, saraton kasalligiga chalingan bemorlarga munosabat, tibbiyat xodimlardagi so‘lish sindromi va emotsiyal intellekt xususiyatlari, o‘smir va o‘spirinlardagi psixosomatik buzishlarning psixosotsial omillari, xavotirlanish va vahimaning kuchayib borishi tipologiyasi, dinamikasi va korreksiyasi va boshqa qator muammolar tadqiqot yo‘nalishlari sifatida o‘rganilgan. Bularning o‘rganishning optimallashtirishda tibbiy va psixologik diagnostika baholash vositalarining ustuvor shakllaridan foydalanish doimo mutaxassislarining diqqat markazida bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida aholi salomatligini ta’minlashda xususiy tibbiyat tashkilotlarini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari, Umuman olganda, mamlakatimizda tibbiyat sohasining xususiy sektori faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonunida mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirish ko‘zda tutilganligi, onkologik xizmatni yanada rivojlantirish va onkologik kasalliklarning kechki bosqichlarini boshidan o‘tkazayotgan bemorlarga tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi meyoriy hujjatlar tibbiyat va psixologiya sohasi mutaxassislarining oldida yangi vazifalar qo‘ymoqda. Ushbu talablarga hamohang tarzda psixologiya fani yutuqlarini tibbiy diagnostika va davolash jarayonlariga yo‘naltirish eng dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Yuqoridagi mulohalardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda tibbiyat va psixologiya fanlari integratsiyasi masalasi doirasida yoki fanlarning o‘zaro integratsiyasiga bog‘liq bo‘lmagan holda ma’lum tajribalar mavjudligi kuzatiladi. Mamlakatimizda esa tibbiyat

psixologiyasi doirasidagi tadqiqotlarning yakuniy yechimlari anchagina kam sonli tadqiqotlar bilan cheklanayotganligini guvohi bo‘lamiz. Bu boradagi izlanishlar sirasiga hozirgi kunda psixologlardan G‘.Shoumarov [10], V.Karimova [7], Z.Ibodullayev [3], SH.Baratovlar [1] salomatlik psixologiyasi, psixofiziologiya, psixogigiyena, tibbiy psixologiya, turli sohalarda psixologik xizmat masalalari bo‘yicha, shuningdek, M.Karamyan [5; 6], D.I.Ilxamova [4], D.Urazbayeva [9], F.G‘oziyeva [2] tibbiyot psixologiyasiga doir izlanishlari, kasalliklarning kelib chiqishi, kechishi va davolashda psixologik omillarning o‘rni, bemor psixologik holati va shaxsiy xususiyatlarining kasallik reabilitatsiyasidagi roli Z.R.Ibodullayev [3], M.X.Karamyan [5, 6], Y.K.Narmetova [7] kabilarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar va yaratilayotgan ilmiy adabiyotlar tibbiyot va psixologiya fani o‘zaro aloqalarining dastlabki bosqichi deyish mumkin. Ammo bu holatlar Respublikadagi tibbiy psixodiagnostika tajribalarini yo‘lga qo‘yish uchun yetarli emas.

Biz yuqoridagi mulohazalarga mos ravishda O‘zbekistonda tibbiyot fanining rivojlantirish va mutaxassislar kasbiy salohiyatini oshirishda psixologiya bilimlar, xususan, tibbiy psixodiagnostikaning rivojlantirish bilan bog‘liq quyidagi muammolar mavjudligini qayd etib o‘tmoqchimiz:

psixodiagnostika psixologiya fani va amaliyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Umumlashтирilган rejada uning mohiyati "yagona" shaxsning holati, xususiyatlari va imkoniyatlarini tashxislash, uni tarbiyalash va o‘qitish, oldini olish va davolash uchun har bir shaxs bilan amaliy yordam ko‘rsatishga zaruratning mavjud; psixodiagnostika inson psixikasining tizimli mexanizmlarini, biologik va psixosotsial munosabatlarni ochib berish imkoniyatini ruyobga chiqarishga xizmat qilishi, ammo bu borada O‘zbekistonda yetarlicha psixodiagnostik vositlarni amaliyotda tatbiq etish amaliyotining yetarli emasligi; tibbiyot uchun psixologiya fanining ahamiyati, xususan, psixodiagnostikaning ahamiyatining o‘ziga xosligi haqida ishonch bilan gapirish mumkin bo‘lib, u tibbiyotda psixodiagnostika nazariyasi va usullari asosida kasallik etiologiyasi, patogenezi, kasalliklarni davolash va oldini olishda psixologik omillarning rolini o‘rganish bilan bog‘liq muammolarni hal qiladi, ammo mamlakatimizda tibbiyot bo‘yicha mutaxassislarning psixologik tayyorgarlikni ta’minlash bo‘yicha o‘quv kurslari mavjud emas; umumiyl tibbiy amaliyotda neyropsixik kasalliklar, psixosomatik patologiya va somatopsixik kasalliklarning tarqalishi, miya shikastlanishi, bolalar va o‘smlarning rivojlanish anomaliyalari, o‘z joniga qasd qilish xattiharakati va boshqalarning sabablarini aniqlashda psixodiagnostika metodikalarini tibbiyotda qo‘llash samarali natijalar berishi mumkinligi haqida so‘z boradi, ammo uning to‘laqon tatbiq etish bo‘yicha amaliy tizim mavjud emas. turli tibbiy muassasalarda tibbiy diagnostika usullari bilan psixologik diagnostika usullarini uyg‘unlikda qo‘llash kasalliklar sabablarini aniqlash va dovalash tadbirlarini oqilona tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur holatlar mamlakatimizda psixologiyada tibbiy diagnostika yo‘nalishida tadqiqotlarga zarurat tug‘dimoqda. Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq:

O‘zbekistonda tibbiyot va psixologiya fanlari integratsiyasiga erishish uchun jahon amaliyoti o‘rganish hamda uning yutuqlarini mahalliy muhitga mos tarzda tatbiq etish;

O‘zbekistondagi tibbiyot va psixologiya fanlari integratsiyasini ta’minlash maqsadida soha mutaxassislari o‘zaro hamkorlikda fanlar doirasidagi tutash ixtisosliklar bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; jahonda tibbiy psixodiagnostikasining shakllanganlik holati va O‘zbekistonda tibbiy psixologik diagnostikani joriy etishga bo‘lgan ehtiyojning aniqlash mexanizmini shakllantirish va ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish; mahalliy sharoitda qo‘llanilayotgan psixodiagnostika metodikalar

tizimlashtirish va ularning tibbiy psixodiagnostika maqsadlarida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash;

Tibbiyot sohasidagi ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassislarining kasbiy tayyoragarlik bosqichlarida kasalliklarning diagnostika tadbirlari borasidagi o‘quv kurslarida tibbiy psixodiagnostika masalalariga doir mavzularni singdirib borish.

Tibbiyot va psixologiya sohalaridagi yetakchi mutaxassisliklari o‘zaro hamkorligida tibbiy psixodiagnostika yo‘nalishida o‘quv adabiyotlari tayyorlash va ularni ta’lim jarayonida taqdim etish.

### **3-AMALIY MASHG‘ULOT. KADRLAR BOSHQARUVIDA PSIXODIAGNOSTIKANING O‘RNI VA ROLI.**

#### **Amaliy mashg‘ulotni amalga oshirish:**

1. Taqdim etilgan material bilan tanishing va kadrlar boshqaruvida psixodiagnostikaning o‘rni va ahamiyati haqidagi shaxsiy munosabatingizni ifodalang.
2. Taqdim etilgan metodika asosida boshqaruv tizimidagi rahbar shaxsiga doir xulosaning taqdim eting.

#### **1.Kadrlar boshqaruvida psixodiagnostikaning o‘rni va roli.**

So‘nggi o‘n yilliklar turli sohalarni psixologlashtirining ortishi bilan belgilandi. Ta’limda maktabgacha ta’lim muassasalari, mакtablar, oliy o‘quv yurtlari dasturlari bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda albatta tuzilganligi, ularning yoshi, ijtimoiy ahvoli, alohida ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tuzilganligi kuzatildi. Ichki va oilaviy munosabatlar sohasida mutaxassislarga (psixologlarga, psixoterapevtlarga) murojaat qilish tendensiyasi mavjud, masalan, so‘nggi 90-yillarda bunday murojaatlar juda kam edi. Ammo bugungi kunda ham mamlakatimizda ayrim kishilar psixologik yordam xodimlariga shubha bilan qaraydilar. Respublikamizda psixologga murojaat qilishdan ko‘ra, uning hissiy tajribalarini almashish, maslahat so‘rash uchun do‘siti yoki yaqin kishisiga maslahatga borish

ehtimoli ko'proq. Axloqiy qo'llab-quvvatlash, albatta, inson uchun zarur va muhim, lekin ba'zan professional qo'llab-quvvatlash ham foydalidir. Bunday nevrozlar, ruhiy tushkunlik, loqaydlik kabi tananing psixologik haddan tashqari oqibatlarini oldini olish uchun yordam beradi.

Psixogillashtirish boshqaruv faoliyatini saqlab qolmagan. Keling, ilgari qanday qilib odamlar yollanganini eslaylik: ta'lim muassasalaridan tarqatish orqali, taqdim etilgan tavsiyalarga ko'ra yoki boshqa xususiyatlarga asoslangan (yoqimli ko'rinish, oila yoki do'stona munosabatlar va boshqalar). Shaxsiy fazilatlarni qanday aniqlaganimizni eslang: biz xodimni uzoq vaqt kuzatdik, u qanday faoliyat turlarini boshqalardan yaxshiroq bajarishi mumkinligini aniqladik. Bugungi kunda ushbu protseduralar muayyan sinov mashqlari yoki texnikaga soddalashтирilган. Bu vaqtini tejaydi va tashkilot menejerining ishini osonlashtiradi. Xodimlarni boshqarish sohasidagi bu tendensiya maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Tajribaga ega bo'lган menejerlar psixodiagnostik faoliyat uchun maxsus tayyorgarlikka muhtoj bo'lib, "xodimlarni boshqarish" yo'nalishida tahsil olayotgan zamonaviy talabalar mazkur metodlarni universitetning asosiy dasturi doirasida qo'llash asoslari va yo'llarini o'rganadilar. Masalan, O'zbekiston Milliy universitetida universitetida "Umumiy psixodiagnostika" uzoq yillardan buyon boshqaruv tizimida psixodiagnostikaning qo'llash istiqbollari masalasi o'qitiladi. Fanning o'tkazishning kichik amaliyoti asosida shuni qayd etish mumkinki, zamonaviy talabalar diagnostika turlariga faol qiziqadilar, o'zlarini va o'rtoqlarini o'rganishga intiladilar. Ular psixodiagnostikaga faqat shaxsiy tadqiqotlarda foydalanish uchun ham qiziqadilar.

Shubhasiz, bu amaliyot boshqa kishilar, ularning xodimlarini o'rganishda kasbiy faoliyatda ham yordam beradi. "Psixodiagnostika" tushunchasining kelib chiqishiga murojaat qilaylik. Psixodiagnostika o'zining eng umumi shaklida psixologik tashxis qo'yish fani va amaliyotidir.

"Diagnostika" atamasi normal faoliyat yoki rivojlanishdan har qanday og'ishni tan olish, hatto muayyan obektning (alohida shaxs, oila, kichik guruh, muayyan ruhiy funksiya yoki jarayonning) holatini aniqlash sifatida tushunila boshlandi. "Psixodiagnostika" tushunchasi ham shaxslar va guruhlarning profilaktik tekshiruviga o'tdi. Mamlakatimizning avvalgi tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy ishbilarmonlarga psixologik diagnostikani boshqarishda bilimlarni rivojlantirish va ulardan foydalanishga alohida e'tibor qaratishni maslahat beramiz. Psixodiagnostik metodlardan foydalanuvchi ishbilarmonlar va menejerlarga ularning xodimlari haqida muhim psixologik ma'lumotlar beriladi. Xodimlarning psixologik holatini samarali tashxis qilish uchun ikkita asosiy tamoyilga rioya qilish kerak: tashxisning uzluksizligi va murakkabligi. Psixodiagnostikaning uzluksizlik tamoyili xodimning psixologik holatini o'rganishda tashxis biryoqlama bo'lmasligi, ya'ni uning holatini faqat tadqiqot paytidagina baholab bo'lmasligini nazarda tutadi. Diagnostika qilingan insonda shaxsining shakllanishi, o'sishi, kamoloti va o'zgarish bosqichlarini tahlil qilish kerak. Murakkablik tamoyili xodimning o'z hayotining turli sohalarida, masalan, ish vaqtida

hamkasblari bilan munosabatlar, muloqot, boshqaruv va boshqaruv kengashi, jamoadagi mavqeい xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Ammo psixodiagnostik faoliyatning asosiy tamoyili "zarar yetkazmaslik!", mohiyati uning shakllantirish aniq bo'lgan. Psixodiagnostikaning juda muhim tomoni bu faoliyat turini bajarish uchun sharoit yaratishdir. Shaxs psixodiagnostikasini o'tkazishning eng muhim shartlaridan biri mutaxassis tomonidan kasb etikasiga rioya qilish bo'lib, u tashhis qo'yilgan shaxsning shaxsiy qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini hurmat qilish majburiyatini o'z ichiga oladi. **Psixologik diagnostikada asosiy axloqiy tamoyillar:**

1. Mas'uliyatlilik tamoyili: psixodiagnostik tekshirishning barcha bosqichlarida ruhiy va jismoniy salomatlikni, hissiy va somatik qulaylikni va subektning ijtimoiy farovonligini saqlab qolish uchun diagnostikaning javobgarligi.

2. Kompetentlik tamoyili: psixodiagnostik tekshiruv har doim malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Psixodiagnostika ana shu vazifa va masalalarni hal qilishni o'z zimmasiga oladi.

3. Konfidensiallik tamoyili: psixodiagnostik shaxsning shaxsiy roziligisiz natijalarini oshkor qilmaslik. Psixodiagnostika tajriba tadqiqotining bir qismi sifatida ilmiy maqsadlarda amalga oshirilganda istisno qilinadi, lekin bu holda ham adabiyotlardagi predmetlarning aniq nomlari va familiyalarini ko'rsatish tavsiya etilmaydi. Odatda, diagnostik faoliyat natijalari oshkora oshkor etilmasligi kerak.

4. Ilmiy amal qilish tamoyili: psixodiagnostik metodlar asosli va ishonchli bo'lishi, ya'ni to'liq ishonish mumkin bo'lgan shunday natijalarini berishi kerak.

5. Shaxs huquqlarini himoyalash: psixodiagnostika natijalari tekshirilayotgan shaxsga zarar yetkazish uchun hech qanday holatda foydalanilmasligi kerak. Agar psixodiagnostika raqobatli tanlov maqsadida yoki shaxsni ishga qabul qilishda amalga oshirilsa, bu tamoyil obektga natjalarning ochiqligi tamoyili bilan bирgalikda qo'llaniladi, bu yesa uning nima va qanday sinovdan o'tishi, uning tekshirish natijalari haqida ma'lumot talab qiladi.

6. Obektivlik (xolislik) tamoyili: test natijalariga asoslangan xulosalar ilmiy jihatdan mustahkam bo'lishi va test o'tkazayotganlarning subektiv munosabatlariga hech qanday bog'liq bo'lmasligi kerak.

7. Samaradorlik tamoyili: psixodiagnostika asosida berilgan tavsiyalar, albatta, berilgan shaxs uchun foydali bo'lishi kerak.

8. Murakkab diagnostika tamoyili-bir xil aqliy xususiyatni tashxislashda turli metodik metodlarni birlashtirish, shuningdek, tegishli ruhiy xususiyatlarga qaratilgan metodlarni birlashtirish, diagnostik xulosaning aniqligini oshirish tamoyili. Boshqa har qanday fanda bo'lgani kabi psixodiagnostika ham o'zining metodologik asoslariga ega.

M. K. Akimovaning fikricha, psixodiagnostika odatda shaxsini –uning ruhiy sifatlari, harakatlari, xususiyatlari va holatlarini o'rganishga qaratilgan.

Psixodiagnostikaning asosiy metodlari testlashtirish va so'rov bo'lib, uning metodologik timsoli o'z navbatida test va so'rovnomalar bo'lib, ular metod deb ham ataladi. Usullar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) ular diagnostik ma'lumotlarni nisbatan

qisqa vaqt ichida to‘plashga imkon beradi; 2) ular inson haqida umuman ma’lumot bermaydi, balki muayyan xususiyatlar (aql, xavotirlanish va boshqalar) haqida ma’lumot beradi; 3) axborot siz boshqa odamlar bilan shaxsning sifatli va miqdoriy taqqoslash berish imkonini beradi shaklida keladi; 4) diagnostika texnikasi orqali olingan axborot aralashuvi, uning faoliyatini bashorat shuningdek rivojlantirish uchun proqnoz, aloqa, va shaxsning faoliyati samaradorligi.nuqtai nazaridan foydalidir,

Psixodiagnostikaning eng keng tarqalgan turi testdir.

Eng mashhur diagnostika usullaridan biri javob variantlarining mavjudligi va shuning uchun tanlovdir. Ammo zamonaviy psixodiagnostik testlar ishlashning boshqa shakllarini ko‘zda tutadi: rasm chizish, suhbat va boshqalar.

Test predmetning ma’lum bir faoliyatni bajarishini nazarda tutadi (bu masalalarni yechish, rasm chizish, rasmdan hikoya qilish va boshqalar bo‘lishi mumkin.), ya’ni muayyan sinovdan o’tadi. Test natijalari asosida tadqiqotchi predmetdagi muayyan xususiyatlarning mavjudligi, xususiyatlari va rivojlanish darajasi haqida xulosa chiqaradi. Individual testlar standart topshiriqlar to‘plami va baholash uchun zarur materialni ifodalaydi; standart-topshiriqlarni taqdim etish tartibi va natijalarni baholash tartibi.

## 2.Rahbar xodimlarining shaxsiy sifatlarini baholash metodikasi

Hurmatli respondent! Sizga taklif etilayotgan ushbu tasdiq-mulohazalarni diqqat bilan o‘qing va ularning har biriga quyidagi javoblar variantidan mosini tanlab, uni javob varaqasi katagida belgilang:

1. To‘liq qo‘shilaman — 2
2. Qisman qo‘shilaman — 1
3. Qo‘shilmayman — 0

Agar test savolnomasida keltirilgan tasdiq-mulohazani to‘liq e’tirof etsangiz, javob varag‘i kattakchasiga 2 raqamini, qisman e’tirof etsangiz 1 raqamini, agar mazkur fikrga mutlaqo qo‘silmasangiz 0 raqamini yozing.

### *Test savolnomasi*

1. Qonunlarga so‘zciz rioya qilish kerak.
- 2.Jamoa manfaati shaxsiy manfaatlardan yuqori bo‘lishi kerak.
3. Hozir mehnat jamoasi muammoni hal etish huquqiga ega emas.
- 4.Rahbarlarni saylash o‘z ma’nosini yo‘qotgan.
- 5.Yoshlar orasida norasmiy harakatlarning rivojlanishga to‘sqinlik qilish lozim.
6. Iqtisodning barcha sohalarida, shuningdek, ta’lim sohasida ham qat’iy tartibga erishish hukumat uchun zarur.
7. Xususiy tadbirkorlik ishi – sofdir odamlar uchun maqbul emas.
8. Siyosat borasida shaxsiy mulohaza bildirish ancha murakkab.
9. Hammasini o‘zim bajarishga uringanim ma’qul.

10. Menga buyruq berishlarini yoqtirmayman.
11. Yaxshi variant taklif qilgan holda tanqid qilish mumkin.
12. O'zing rahbarlik qilganingda qaror qabul qilish shaxsiy mas'uliyat talab etmaydi.
13. Men prinsiplarimga to'g'ri kelmaydigan ishni bajara olmayman.
yo‘qmi aniqlab olish kerak. Kadrlarni tanlashni amalga oshira turib xodimlarning optimal sonini aniqlashga alohida e’tibor berish zarur, ya’ni xodimlar yetishmasa ishlab chiqarish dasturlarini bajarishda uzilishlar yuzaga kelishi, ishlab chiqarish travmatizmi avj olishi, jamoada nizoli vaziyatlar vujudga kelish ehtimoli ortishi kuzatiladi, bu esa maoshlarga pul mablag‘larining ko‘p sarf qilinishiga, sifatli va yuqori malakali mehnatdan manfaatdorlikning pasayishiga, malakali ishchilarning tashkilotdan ketib qolishiga olib keladi. Qisqa qilib aytganda kadrlarni tanlash xususiyati shundaki, tashkilotdagi kadrlar tarkibini uning oldida turgan ishlab chiqarish vazifalariga mos kelishini nazorat qilishdir.

Tashkilot strategiyasi, uning tuzilmasi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqbul tashkilot madaniyati haqidagi axborotga ega bo‘lgan holda, kadrlarni tanlash bilan shug‘ullanuvchi personal kerakli xodimlarni izlash va tanlash bilan shug‘ullanishi mumkin. Tashkilotni kadrlar bilan ta’minlashning ishchi va tashqi manbalari ajratiladi:

### **3.Kadrlarni psixologik saralash metodlari klassifikatsiyasi**

Psixologiya doim juda qiziqarli masalalardan biri – mazkur konkret inson qanday odam ekanligini belgilarga qarab aniqlash masalasini hal etishga intilib kelgan. Bunday axborot insonning u yoki bu vaziyatdagi xulq-atvorini oldindan aytib berish ikoniyatini beradi, bu esa inson hayotining barcha sohalarida juda muhim hisoblanadi. Eng kuchli psixodiagnostik instrument – intellekt testlari tarixi 100 yil oldingi davrlarga borib taqaladi va Bine hamda Simon ishlari bilan boshlanadi. Shunga o‘xhash tarzda shaxsni o‘rganuvchi testlar ham – shaxslilik so‘rovnomasи ham, proyektiv metodikalar ham o‘zining uzoq tarixiga egadir. Bu davrga kelib juda ko‘p foydali psixometrik usullar ishlab chiqildi. Psixologik testlar yordamida shaxsni tadqiq etish – bu psixologik testlarni qo‘llagan holda shaxsning ma’lum psixologik sifatlari va xossalarni tekshirishdir. Psixologik testlarni asosan o‘qitish va tarbiyalashni optimallashtirishda, ishga qabul qilishda, psixoterapiya hamda psixologik konsultatsiya o‘tkazishda, psixokorreksiya uchun qo‘llaydilar.

A.V.Brushlinskiy (1991) fikricha inson bu avvalo ijtimoiy rivojlanish subekti bo‘lib, o‘zini o‘zi rivojlantirishning faol subekti hamdir. Individ tomonidan faqatgina ijtimoiy tajribaning o‘zlashtirilishi haqida gapirish emas, balki shaxsni ijtimoiylashuvning faol subekti sifatida qarash muhimdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda individ avvaldan boshlab ijtimoiylik xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina ijtimoiylikdan individuallikka tomon emas, balki turli yo‘nalishlarda rivojlanishga qodirdir.

E.G‘.G‘oziyev (2010) fikricha, har bir shaxs o‘z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta’sirlarning obekti hisoblanadi<sup>8</sup>. (E.G‘.G‘oziyev 2002) Shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o‘zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda aloqadorlik,

<sup>8</sup> Фозиев Э. Умумий психология. Т. 2010.

shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi. Afsuski, biz ba'zan inson haqida fikr yuritganimizda sog'liq, kasallik va uchinchisi sog'liqqa ham, kasallika ham qo'shilmaydigan bir holat haqida fikr yuritishimizga to'g'ri keladi.

V.Shtern shaxsda oltita tipni ajratadi: a) nazariy tip – shaxsning barcha intilishlari borliqni anglashga qaratiladi; b) estetik tip – bunday shaxs uchun obektiv borliqni anglash yot bo'lib, u individual tanlanganlikka ega; v) iqtisodchi tip – bunday shaxsning sa'i-harakatlaridagi shiori qilib, ko'proq foyda (natija)ga qaratilgan bo'ladi; g) ijtimoiy tip – hayotining mazmunini muhabbat, muomala va o'zgalar uchun yashash tashkil etadi; d) siyosiy tip – bundaylar uchun mansabga intilish, ta'sir o'tkazish va buyruq berish xosdir; ye) diniy tip-har qanday voqeani ham hayotning va dunyoning mohiyati bilan haspo'shlashga urinadi. V. Shternning fikricha, o'tish davri nafaqat ideal va intilishlar, hislar hamda fikrlarning yo'nalganligi, balki harakatlarning o'ziga xos siymosi (obrazi) hamdir.

Kadrlarni psixologik saralash metodikalari klassifikatsiyasi bugungi kunga kelib juda turli-tuman ko'rinishga ega bo'lib, asosan shaxsni, uning psixik xususiyatlari, qobiliyatları, ko'nikma va malakalarni egallashga layoqatlari va x.k.ni o'rganishga qaratilgan. Shaxsni o'rganuvchi testlar – psixodiagnostikaning shunday metodlariki, ular yordamida shaxsning turli tomonlari o'rganiladi: ustakovkalar, qadriyatlar, emotsiyal, motivatsion va shaxslararo munosabatlar, shuningdek xulq-atvorning tipik shakllari ham. Bunday testlarning asosiy vazifasi individning motivatsiyasi, qiziqishlari, emotsiyal munosabatlarining namoyon bo'lishini aniqlashdan iborat, shuningdek uning ma'lum vaziyatlardagi xulq-atvor xususiyatlari ham aniqlanadi. Bunday psixologik xususiyatlarni bilish har bir insonga o'z ishida maksimal darajaga erishishi uchun ishni qanday tashkil etilishi mumkinligiga ko'rsatma ham berishi mumkin.

Testlarning bir necha yuz turlari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri tushunish, tahlil qilish va natijalaridan mas'uliyat bilan foydalanish juda muhimdir.

Shaxslilik so'rovnomalariiga temperament, xarakter testlari, motivatsiya testlari, emotsiyani tadqiq etish testlari, qobiliyatlarni o'lhash testlari, qadriyatlar yo'nalishini aniqlash metodikalari va boshqalar kiradi. Boshqa bir tomonidan shaxsni o'rganuvchi kompleks metodikalarni ham ajratish mumkin. Bu metodikalar shaxs haqida va uning alohida xususiyatlari haqida har tomonlama ma'lumotlar beradi. Shaxslilik testlari o'z ichiga quyidagi shkalalarni olishi mumkin: intellekt, tarbiyalanganlik (etiket va masofani ushlab turishga rioya qilish), originallik (iste'dod va kreativlik), ekstraversiya – introversiya (muloqotmandlik - tortinchoqlik), qo'shilish – mustaqillik, o'zini o'zi nazorat qilish – impulsivlik, emotsiyal muqimlik – bezovtalanish, o'qishga moyillik – inertlik, ishonchlilik (javoblarning ijtimoiy ma'qulligi).

Shaxslilik so'rovnomalaring yuzaga kelish tarixi 1912 yilda Edvard Torndaykning shaxsda ustunlik qiluvchi qiziqishlarni aniqlashga qaratilgan shaxslilik testlarini ishlab chiqilishi bilan bog'liq. Biroq amaliy jihatdan tan olingan birinchi test sifatida Robert Vudvorts tomonidan 1919 yilda ishlab chiqilgan harbiylarda nevrozlarni aniqlash uchun shaxslilik inventariysi hisoblanadi. Bu so'rovnoma harbiy xizmatda

nevrotik simptomatika mavjud bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularni saralash uchun mo‘ljallangan edi(9). O‘sha asrlardan buyon o‘tgan yillar mobaynida so‘rovnomalari shaxsni tadqiq etuvchi psixodiagnostik metodlar sifatida keng ommaviylikka ega bo‘ldi.

So‘rovnomalari — metodikalarning keng guruhi bo‘lib, ulardagi topshiriqlar savollar va tasdiqlovchi fikrlar ko‘rinishida keltiriladi, tekshiriluvchining vazifasi esa o‘zi haqidagi ba’zi ma’lumotlarni javob ko‘rinishida mustaqil keltirishidir. Bu metodning nazariy asosi o‘zini o‘zi kuzatish psixologiyasi introspeksionizmdir. So‘rovnomalari metodi dastlab o‘zini o‘zi kuzatish turi sifatida qarala boshlagan edi. Biroq berilgan variantlarda standartlashtirilgan xarakter berilgan o‘zini o‘zi kuzatish juda ko‘p rasmiy belgilariga ko‘ra testlashtirishga yaqinlashadi. So‘nggi 50 yillar mobaynida eng ommaviy hisoblangan shaxslilik testi — so‘rovnomasasi — MMPI (Minnesot ko‘p tarmoqli shaxslilik so‘rovnomasasi)dir. U nisbatan ko‘proq klinik amaliyotda qo‘llaniladi. Agar shaxslilik so‘rovnomalarining yuzaga kelish tarixi sharhini olib boriladigan bo‘lsa, ahamiyatli metodikalarning xronologik ro‘yxati quyidagicha bo‘lishi mumkin::

- 1927 y. — Edvard Strong o‘zining “Kasbiy qiziqishlar xaritasini” e’lon qiladi;
- 1926 y. — Gordon Olportning “Ustunlik qilish-bo‘ysunishga moyillik” testi yuzaga keldi;
- 1928 y. — “Shaxslilik qadriyatlari testi” Gordon Olport va Filipp Vernon tomonidan e’lon qilinadi;
- 1940 g. — S. Xatavey va D. Makkinli MMPI — g‘arbda eng ommalashgan testlarini taqdim etadilar. Shaxslilik-faoliyatli testlar deb atalmish testlardan birinchilar qatorida ikkita proyektiv tipdagi metodikalarning ishlab chiqilishini aytib o‘tishimiz mumkin: German Rorshax tomonidan ishlab chiqilgan “siyoh dog‘lari” metodikasi va TAT – tematik apperception test, uning mualliflari G. Myurrey va S. D. Morgan(9).

Proyektiv metodikalar shaxs xususiyatlari va intellektni o‘rganishga qaratilgan. Ular bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, standartlashtirilgan metodlardan quyidagicha farq qiladi:

- stimuli material xususiyatlari bilan;
- respondent oldiga qo‘yilgan vazifaning xususiyatlari bilan;
- natijalarni qayta ishlash va interpretatsiya qilish xususiyatlari bilan.

1. Stimuli materialning ajratib turuvchi xususiyati bir xil emasligi, kamtuzilmaviyligi bo‘lib, proyeksiya prinsipini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shaxsning stimuli material bilan o‘zaro ta’sirga kirishishida tuzilmalashtirish yuz beradi, uning mobaynida shaxs o‘z ichki dunyosi xususiyatlari, ehtiyojlari, nizolari, xavotirlanish va x.k.larni proyeksiya qiladi.

2. Nisbatan tuzilmaviy bo‘lmagan masala, u ehtimolli javoblarning chegaralanmagan turli-tumanligini nazarda tutadi – bu proyektiv metodikalarning asosiy xususiyatlaridan biridir. Proyektiv metodikalar yordamida respondent uning javobida eksperimentator aynan nimani interpretatsiya qilishini payqamaydigan qilib test olib

borishdir. Proyektiv metodikalar so‘rovnomalarga nisbatan falsifikatsiyaga kamroq beriladi.

3. Proyektiv metodikalarni standartizatsiya qilish muammosi mavjud. Ba’zi metodikalar olingen natijalarni obektiv qayta ishlash uchun matematik apparatga, normalarga ega emas. Ular uchun shaxsni o‘rganishda sifatiy yondashuv xos bo‘lib, ularning ishonchliligi va validligini aniqlashning adekvat metodlari ishlab chiqilmagan. Proyektiv metodikalarning birlamchi ko‘rinishi so‘zli assotsiatsiyalar metodidir. Mustaqil so‘zli assotsiatsiyalar metodining yuzaga kelishi yuqorida zikr etilgan F. Galton (1822—1911) nomi bilan bog‘liq. 1879 yilda u o‘zining assotsiativ eksperimentlarini taqdim etdi. Tekshiriluvchiga so‘zqo‘zg‘atuvchiga miyaga birinchi kelgan fikr bilan javob berishni taklif etib, Galton sekundomer vositasida javob vaqtini belgilab boradi. Keyinchalik bu metodika E. Krepelin (1892), K. Yung (1906), G. Kent va A. Rozanov (1910) hamda boshqalar tadqiqotlarida rivojlantiriladi(5).

Assotsiativ eksperiment proyektiv metodikalarning shunday guruhining yuzaga kelishini stimullashtirdi, bular tugallanmagan gaplar metodikasıdır. Shaxsni o‘rganish uchun tugallanmagan gaplar metodikasi 1928 yilda A. Peyn tomonidan qo‘llanildi.

Assotsianizmdan tashqari proyektiv metodikalarning nazariy manbalarini psixoanalizda – ongsizlik tushunchasida uchratish ham mumkin. Ongsizlik dastlab shaxsni sirli harakatlantiruvchi sifatida, organizmning chuqurligida ko‘r-ko‘rona harakat qiluvchi motiv sifatida qabul qilingan edi. Ongsizlikka nisbatan aql faqat niqoblashtiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Psixolog ongsizlik sohasiga kirishi uchun undagi sirli tendensiyalarni tushunish kerak, eksperimentda ongi alohida topshiriqlarni hal etishga yo‘naltirish zarur, ular ongsizlikka alohida proyektiv produksiyada – syujetsiz so‘zli assotsiatsiyalarda, rasmlarda ifodalangan syujetli fantaziyalarda, obrazlar va hikoyalarda aks etadi. Aynan shunday topshiriqlar proyektiv metodikalarga kiritilar edi.

Yana bir mashhur va ko‘proq tarqalgan proyektiv metodikalaridan biri – TAT – tematik apperception test 1935 yilda amerikalik olimlar X . Morgan va G. Myurrey tomonidan ishlab chiqildi(9).

Ikkinci jahon urushidan keyin g‘arb amaliy psixodiagnostikasi uchun yangi laboratoriya ishlanmalarining yuzaga kelishi bilan bir qator ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlar o‘tkazildi. Har qanday yangi testga u ilmiy jihatdan qanday bo‘lmasin bunday sharoitda klassik metodikalar bilan raqobat qilish qiyin edi. Xattoki yangi kompyuter testlari bir qator afzalliklarga ega bo‘lishiga qaramasdan klassik metodikalar bilan taqqoslashga o‘zlariga yo‘l ocha olmadilar. Zamonaviy kompyuter testlarining juda ko‘p namunalari ham o‘zlarigacha mavjud bo‘lgan oddiy qog‘ozu qalamlar bilan ishlanadigan metodikalaridan o‘ta olmadilar. G‘arbda shaxslilik psixodiagnostikasi sohasining yangi ilmiy yo‘nalishlaridan biri semantik differensial texnikasi ham o‘z tarafdarlarini qiyinchilik bilan yig‘di. (CH. Osgud,1962; Dj. Kelli, 1996)(2).

Psixodiagnostikada psixologik metodikalar klassifikatsiyasining bir nechta turlari mavjudki. Ulardan kadrlarni saralashda psixologik vositalar sifatida foydalanish

mumkin. Ular turli mezonlarga ko‘ra birlashtirilganlar. Quyida ulardan bir nechtasini ko‘rib chiqamiz.

1. Y.Shvansara bo‘yicha psixologik metodlar klassifikatsiyasi(9).

Y.Shvansara psixodiagnostik metodlarni guruhlarga quyidagi asoslarga ko‘ra ajratadi:

1. ishlataladigan materialiga ko‘ra (verbal, noverbal, manipulyatsion, “qalam va qog‘oz” metodlari va boshqalar);

2. olinadigan ko‘rsatkichlar soniga ko‘ra ( oddiy va majmuaviy);

3. “to‘g‘ri javobli” testlar va turli javob extimollari mavjud testlar;

4. sinaluvchilarning psixik faolligiga ko‘ra: introspektiv (sinaluvchining o‘z shaxsiy tajribasi, munosabatlari haqidagi ma’lumotlari), anketa, suhbat; ekstrospektiv (turli holatlarni kuzatish va baholash); proyektiv metodlar; bajaruvchi. Tekshiriluvchi qandaydir harakatni amalga oshiradi (perseptiv, fikran, motor).

2. V.K.Gayda, V.P.Zaxarov bo‘yicha psixodiagnostik testlar klassifikatsiyasi

Mazkur klassifikatsiyalar mualliflari psixologik metodikalarni quyidagi asoslarga ko‘ra birlashtiradilar: sifatiga ko‘ra – standartlashtirilgan, standartlashtirilmagan. Qo‘llanilishiga ko‘ra: ○ umumdiagnostika (so‘rovnama tipidagi shaxs testlari (R.Kettell,

G.Ayzenk, umumiy intellekt testlari); ○ kasbiy yaroqlilik testlari; ○ maxsus qobiliyatlar testlari (texnik, muzika, uchuvchilar uchun testlar); ○ erishuv testlari;

2. sinaluvchi qo‘llaydigan materialga ko‘ra:

○ blankli;

○ predmetli (Koos kubiklari, Veksler to‘plamidan "figuralarni taxlash" );

○ apparaturali (diqqat xususiyatlarini o‘rganish uchun moslam alar);

3. tekshiriluvchilar soniga ko‘ra: individual va guruhiy;

4. javob shakliga ko‘ra: og‘zaki va yozma;

5. yetakchi yo‘nalish bo‘yicha: tezlikka oid test, kuchlilikka oid test, aralash testlar. Kuchlilikka oid testlarda masalalar juda qiyin va ularni yechish vaqt chegaralanmagan, tadqiqotchini masala yechish muvaffaqiyati bilan bir qatorda uni yechish usuli ham qiziqtiradi.

6. masalalar bir xilligi darajasiga ko‘ra: gomogen va geterogen. (shunisi bilan farq qiladiki, gomogen holatlarda bir biriga o‘xshaydi va ma’lum shaxslilik va intellektual xususiyatlarni o‘lchash uchun qo‘llaniladi; geterogen testlarda msalalar turli-tuman va intellektning turli xarakteristikalarini baholash uchun ishlataladi.

7. kompleksliliga ko‘ra: izolyatsiyalashgan testlar va testlar to‘plami (batareyasi);

8. masalalarga javoblar xarakteriga ko‘ra: oldindan yozilgan javobli testlar, mustaqil javobli testlar;

9. psixikani jamlash sohasiga ko‘ra: shaxs testlari va intellektual testlar;
10. aqliy xarakatlar xarakteriga ko‘ra: verbal, noverbal.

3. A.A.Bodalev, V.V.Stolin bo‘yicha psixodiagnostik metodlar klassifikatsiyasi: ular quyidagi asoslarga ko‘ra psixodiagnostik metodlarni birlashtiradilar:

1. mazkur usul asosiga qo‘yilgan metodik prinsiplar xarakteristikasiga ko‘ra:
  - obektiv testlar (ularda to‘g‘ri javob extimoli bor); □ standartlashtirilgan hisobotlar:
    - test-so‘rovnomalar, ochiq so‘rovnomalar;
    - shkalali texnikalar (semantik differensial (CH.Osgud), subektiv klassifikatsiya);
    - individual-yo‘naltirilgan texnikalar (ideografik), masalan repertuar panjaralar;
    - proyektiv texnikalar;
    - dialogik texnikalar (suhbat, intervyyu, diagnostik o‘yinlar);

2. psixodiagnostika qiluvchi shaxsnin diagnostika jarayoniga bevosita kirishishi darajasiga ko‘ra – obektiv va dialogik. Birinchisida psixodiagnost psixodiagnostika jarayoniga minimal darajada kirishgan bo‘ladi, ikkinchisida ko‘proq daraja. Kirishish meyori eksperimentator shaxsi tajribasi ta’siri, kasbiy ko‘nikmalari va diagnostik muolajaning o‘zi bilan xarakterlanadi. Quyida psixodiagnostik metodlarning obektiv qutbdan dialogik qutbgacha bo‘lgan kontinuumi keltirilgan.

### **OBEKTIIV DIALOGIK testlar suhbat**

ko‘p so‘rovnomalar, intervyyu  
shkalali texnikalar diagnostik o‘yinlar, patopsixologik  
eksperiment, ba’zi proyektiv metodikalar

Hozirgi davrga kelib juda ko‘p sonli shaxslilik so‘rovnomalari ishlab chiqilgan.

- tipologik so‘rovnomalar (shaxs tiplari aniqlash bazasida ishlab chiqiladi va tekshiriluvchilarni u yoki bu tipga mansubligini aniqlash imkonini beradi).

Ularga Gans Ayzenk so‘rovnomasini kiritish mumkin.

- motivlar so‘rovnomalari (masalan, A. Edvards so‘rovnomasi);
- qiziqishlar so‘rovnomalari (masalan G. Kyuder so‘rovnmoalari);
- qadriyatlar so‘rovnomalari (masalan D. Super so‘rovnomasi);
- ustakovkalar so‘rovnomalari (masalan L. Terstoun shkalasi);

Ishlab chiqish asosiga qo‘yilgan prinsiplarga mos ravishda quyidagicha klassifikatsiyalar mavjud:

- omilli so‘rovnomalar, ular o‘z ichiga omilli tahlilni qamrab oladi (masalan R. Kettell so‘rovnomasi);

- empirik so‘rovnomalari, mezoniy-kalitli prinsip asosida tuziladi (masalan, MMR1).

V.V. Nikandrov va V.V Novochardov so‘rovnomalarning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etadilar:

1. tuzilish prinsipi ko‘ra:

- so‘rovnmoa-anketalar;
- shaxslilik so‘rovnomalari.

2. Nisbatan qo‘llanilish sohasiga ko‘ra:

- tor profilli: klinik; proforiyentatsion; o‘qitish sohasiga oid;

menedjment sohasiga oid va personal bilan ishlashga doir va boshqalar.

- keng qo‘llaniladigan so‘rovnomalari.

3. diagnostika qilinayotgan psixik hodisa shakliga ko‘ra:

- holatlar so‘rovnomalari;

b) xususiyatlar so‘rovnomalari (shaxslilik so‘rovnomalari);

v) kompleks so‘rovnomalari.

4. Shaxsni tasvirlash prinsipi ko‘ra:

- qirralar prinsipini amalga oshiruvchi test-so‘rovnomalari: - bir o‘lchovli; - ko‘p o‘lchovli.

b) tipologik so‘rovnomalari.

5. baholanayotgan makroxarakteristikaga ko‘ra:

- temperament so‘rovnomalari;

b) xarakter so‘rovnomalari;

v) qobiliyatlar so‘rovnomalari;

g) oshaxsnинг yo‘nalganligi so‘rovnomalari;

d) aralash so‘rovnomalari.

6. beriladigan savollar formasiga ko‘ra:

a) ochiq

b)yopiq.

Proyektiv metodikalar ichida ham olimlar ko‘proq Lyusher metodikasi va geometrik figuralar metodikalarini ajratib krsatadilar.

Psixogeometriya testi shaxsni aniqlashdagi eng qulay va amaliy metodika bo‘lib, A.A.Alekseyeva va L.I.Gromovalarning fikricha har qanday kishining xarakter tipi va psixologik qiyofasini tez va aniq tashxis etishga imkon beradi(5). Mazkur metodika shaxsning xarakterologik xususiyatlarini aniq va ravshan bir shaklda tavsif etish bilan birga turli hayotiy vaziyatlarda kishi o‘zini qanday tutishini, xatti-harakatlarini bilishga yordam beradi .

Psixogeometriya metodikasi ilk bor AQShda ishlab chiqilgan (5)bo‘lib, uning muallifi Syuzen Dellinger hisoblanadi. Binobarin, metodikani o‘tkazish tartibi juda oddiy bo‘lib, uning talqini ham unchalik katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. Birinchi

tanlagan shakl bu tekshiriluvchining asosiy, markaziy shakli hisoblanadi. Bu shakl uning ustunlik qiluvchi muhim xarakter xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. qolgan to‘rtta shakl birinchi (asosiy) shakl xususiyatlarini u yoki bu darajada “bezab” turishi mumkin. Oxirgi shakl esa sinaluvchining tegishli xususiyatni rad etishini, ya’ni unga mos kelmagan xislatni ko‘rsatadi.

Demak, har bir shakl o‘zida murakab psixologik jihatlarni qamrab oladi va quyida ularning qisqacha psixologik tavsifi keltiriladi.

Birinchi jaxon urushi davridan boshlab psixologlar insonni o‘zigi xos sifatlarini o‘lchashga mo‘ljallangan metodlarni xizmatdagi muvafaqqiyatlarni, kelajagini oldindan aytib berish uchun yaratgan edilar. Bu metodikalarning maqsadi darajani aniqlash va turli mavqelarga nisbatan mos keluvchi nomzodlarni tanlashdan iborat edi. Ma’lumki, individuumning kuchli va zaif jihatlarini baholash, uning qobiliyatları va layoqatlari haqida ma’lumoti to‘g‘risidagi guvohnomalar va ish tajribasi haqidagi ma’lumotlardan ko‘ra ko‘proq narsani bilishga yordam beradi. Bu sohadagi ko‘pgina tadqiqotlar testlarning qay darajada aniqligi, keljakdagi kasbiy muvafaqqiyatni belgilashga qaratilgan suxbat va boshqa tanlov metodlariga qaratilgan bo‘lib, quydagи ikki fundamental muammoga e’tibor qaratilgan edi:

Qanday qilib kadrlar tanlash bo‘yicha mutaxassis qabul qilingan xodimlarning keljakda unumliroq faoliyat yuritishiga erishishi mumkin? Qanday qilib, xizmat mas’uliyatlari muvaffaqiyati darajasini kadrlar qarori to‘g‘riligini baxolash orqali o‘lchash mumkin? Dastlabki ma’lumotlar qarama-qarshi natijalarni bergen edi. Bir tadqiqotda belgilangan metod xizmat vazifalarini bajarishning kelajagini yaxshi ayta olgan bo‘lsa, boshqa tadqiqotlarda tanlov metodi nisbatan ishonchsiz natijalarini ko‘rsatgan edi. 1970 yilda bir metod turli sharoitda turlicha natija berishi aniqlandi. Bu shuni bildirar ediki, xar safar yangi sharoitda maxsus tadqiqotlar o‘tkazilganda metodlarning validligi aniqlanishi zarur. 1980 yilda ma’lumotlarni statistik tahlil etish sohasidagi yangi yutuqlar ushbu nuqtai nazarga e’tibor qaratishga majbur qildi. Tanlov metodlari natijalaridagi bunday qarama-qarshi metodlar validligini tadqiq etishda tanlovlardagi insonlarning kamligi bilan izohlandi. Barcha mavjud tadqiqotlarning natijalari birlashtirish orqali tanlama shakllantirilganda natijalar birmuncha ishonchli ko‘rsatkichlarni namoyon etadi. Bu shuni ko‘rsatdiki, kadrlar tanlashning ko‘pgina keng tarqalgan metodlari o‘rganilayotgan lavozim va inson xarakteristikalariga mos kelsa, yetarlicha aniq malumotlarni bera oladi. Bunga misol sifatida stajyor-menedjer lavozimiga nomzodlar tanlash uchun psixometrik testlarni qo‘llovchi «Trafalgar Xaus Grup» dep nomlanuvchi qurilish bo‘limini ko‘rsatish mumkin. Aniqlandiki, testlardan foydalangan holda nomzodlar tanlanganda oldingi menedjerlarga nisbatan yangi menedjerlar o‘rtasida ishdan bo‘shash holati kamayadi, shu bilan birga muvaffaqiyat darajasi ortadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ma’lum lavozim doirasida sistematik ravishda ishlab chiqilgan metodlar yaxshi natija beradi. Shu bilan bir qatorda unumlilik tahlili bo‘yicha ishlanmalar belgilangan aniqlik bilan kadrlar tanlashda potensial moliyaviy foya sifatida ham

baholanishi mumkin. Masalan, politsiyada katta ofitserlarni yuqori boshqaruv kurslariga o‘qitish maqsadidagi **tanlovda** assessmeit-septras metodidan qo‘llanilganda unumlilik tahlili 800 ming funt sterling miqdoridagi foydani ko‘rsatdi. Bu yutuqlar kadrlar bo‘yicha mutaxassislarga boshqa boshqaruv sohalari bo‘lmish marketing moliya, xo‘jalik bo‘limlari va bugalteriyalar bilan teng xuquqli raqobatdoshlik asosida tashkilotda mavjud resurslarni qo‘lga kiritish imkoniyatini berdi. Afsuski, tanlov metodlari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘pgina korxonalar klassik trio – ariza blankasi, ixtiyoriy tarzda o‘tkaziluvchi suxbat va oldingi ish beruvchilardan ma’lumotlar yig‘ishga tayanganlar. Bunda ma’lumotlarning ishonchlilik va validlik darajasi kamroq hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yirik korxonalar baholovchi markazlar va psixometrik testlashtirishga o‘z qiziqishlarini bildirsalarda, tanlov metodlarida ko‘pgina korxonalar natijalarning aniqligi emas, balki vaqtini tejashga o‘z e’tiborlarini qaratadilar. Tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llashda sezilarli ortda qolish mavjud bo‘lsa ham, psixologik testlarga ega bo‘lish ularni qo‘llash konkret muassasa uchun tanlov metodikalarini ishlab chiqish maqsadida kasbiy faoliyat psixologiyasi bo‘yicha konsultantlarga murojaat etish imkoniyati mavjud.

Kadrlar tanlash metodikalarini qo‘llashda aniq ustunliklar mavjud bo‘lsada, oxirgi tadqiqotlarda individuumning psixologik holatiga bu metodikalarning natijasi negativ ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Ma’lum bo‘ldiki, nomzodlar konkret ish talablariga javob beruvchi tanlov metodikalariga katta e’tibor qaratar ekanlar. Bu fakti hisobga olish tashkilotlarga belgilangan foya keltirishi mumkin. Masalan, professional vazifani bajarish testi mavjud bo‘lgan metodikalar nomzodlarga o‘z kasbiy tayyorgarligini baholashga imkoniyat beradi, buning natijasida kadrlar oqimi pasayadi, yaxshi motivatsiyalashgan insonlarda esa noqulay vaziyatlar yuzaga kelishini minimallashtirgan holda yuqori natijalarga erishishni stimullashtiradi. Bunga qarama-qarshi ravishda nomzodlarning ish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lмаган tanlov jarayonlarini ular adolatsiz deb biladilar va ularga bu jarayonlar yoqmaydi.

So‘nggi yillarda kadrlarni tanlashda nomzod bilan suhbat o‘tkazish ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida baholanmoqda. Biroq bu jarayonda suhbat o‘tkazuvchi tomonidan ham, nomzod tomonidan ham o‘zaro noto‘g‘ri fikrlarning shakllanib qolishi ehtimoli juda ko‘p tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilmoqda. Bunday muammolar an’anaviy, tuzilmaga ega bo‘lмаган suhbatlarda ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. 1981 yilda atribusiya nazariyasiga tayangan holda Xerriot an’anaviy kadrlar tanlash suhbatlarining juda past validligi va ishonchlilagini qayd etib o‘tadi va buning sababini qatnashchilarning o‘z rollarini yetarlicha tushunmasliklari, suhbat o‘tkazuvchilarning nomzodlar xulq-atvori haqida noto‘g‘ri xulosaga borishlari bilan bog‘laydi. Shuningdek, bu yerda nomzod yoki suhbat o‘tkazuvchining fundamental atribusiya xatosini, ya’ni boshqaning xulq-atvorini shaxsllik omillariga bog‘lashini ta’kidlab o‘tish lozim. Masalan, suhbat o‘tkazuvchi, ya’ni kadrlarni tanlash bilan shug‘ullanuvchi

mutaxassislar ko‘pincha nomzodlarning suhbat paytidagi bezovtalanishlarini ulardagi yuqori bezovtalanish, besaranjomlik, bexotirjamlik bilan bog‘lashadi, vaholanki, ko‘pincha nomzodlar uchun ishga olish paytidagi suhbatning o‘zi stress hisoblanadi va bezovtalanish bunday hollarda tabiiy. Xerriot va Rotvell (Herriol and RothweU, 1991) tadqiqotlarida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, kadrlarni tanlash bilan shuhullanuvchi mutaxassislar nomzod juda ko‘p o‘zi haqida gapirganini qayd etsalar, aksincha ishga da’vogar nomzod ulardan tashkilot va vakant lavozimi haqida gapirib berishlarini kutar ekan. Nomzodlar o‘zлari haqida qanchalik kam ma’lumot bersalar, suhbat tkazuvchilarga ular shunchalik kam savol bergenlar. Nomzodlar qanchalik kam savol bersalar ularni mazkur lavozimga layoqatli deb topilish imkoniyatlari shunchalik yuqori bo‘lar ekan. Bu shuni ko‘rsatadiki, inson haqidagi fikr ko‘pincha uning xulq-atvori rolli (*in-role*) yoki rolli emas (*out-ofgole*li) bilan belgilanadi. Rolli xulq-atvor aloxida ahamiyatga ega nomalar, shartsharoitlarga amal qilishdan iborat, inson xulq atvori uning shaxsiy afzal bilganlari ta’sirida harakat qilishida namoyon bo‘ladi. Biroq suhbat o‘tkazish vaqtidagi qoidalar yetarlicha aniq emas va turli tashkilotlarda turlicha bo‘lishi mumkin, natijada suhbatda qatnashuvchi tomonlar bir-birlarini o‘rnatilgan qoidalarni buzgan deb hisoblashlari mumkin. Rolli va roldan tashqari xulq-atvor verbal xulqda (nimani gapirayapti), noverbal xulqda(imo-ishoralar tili), artikulyativ xulqda (masalan, ovozning balandligi, nutq tezligi va x.k.) va tashqi ko‘rinishda (masalan, kiyimida) namoyon bo‘lishi mumkin. Xulq-atvorning mazkur barcha shakllari ishga joylashtirish haqida qaror qabul qilishda yoki tashkilot yoxud nomzod tomonidan rad javobining berilishida katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Verbal, noverbal va artikulyatsion xulq-atvor muhimligini qarab chiqishni maqsad qilib qo‘yan tadqiqotlar real suhbatlarni kuzatibyu shuni aniqladiki, kadrlarni tanlashda hal qiluvchi qaror ko‘pincha gapirilayotgan gap asosida chiqarilar ekan. Nomzodning o‘zini xotirjam tutishi va tashqi ko‘rinishi ham ma’lum ahamiyatga ega ekan. Biroq qaror qabul qilishda ko‘z qarashlariga qarab ham xulosa chiqarilar ekan, masalan nomzodlar suhbat paytida ko‘zlarini olib qochsalar, kam kulsalar va behalovat o‘tirsalar ko‘pincha ishga qabul qilinmas ekanlar. 1990 yilda Nil Anderson va Viv Shakletop tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nomzodning ishga qabul qilinishida uning noverbal xulqi, ayniqsa ko‘z qaralari, mimikasi, qo‘l harakatlari, tanasini ushlashi muvaffaqiyat keltirganini isbotlagan. Bundan tashqari nomzod suhbat o‘tkazuvchiga qanchalik yokishi u bilan mos kelishi ham muhim rol o‘ynagan.

Kadrlar tanlashda qo‘llaniladigan metodikalar klassifikatsiyasida kasbiy bilimlarga testlari ham muhim o‘rin tutadi. Bunda nomzodning kasbiga oid bilimlari ko‘لامи baholanadi. Mazkur testlar yordamida eg muhim kasbiy bilimlarning ikki turi baholanadi:

**Ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan texnologik bilimlar, ish samarasini ta’minlovchi jarayonlar va baholovchi mezonlarni bilish, bular nomzoddagi tajriba hamda qobiliyatlar va uning kasbiy erishuvlari o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘indir. Biroq kasbiy bilimlar borasidagi testlar konkret lavozim va uning turlari uchun maxsus belgilangan bo‘lishi kerak. Masalan, kemasozlik zavodidagi**

**payvandlovchi mashinasozlik zavodidagi payvandlash uchun mo‘ljallangan qurilma va texnologiyani qo‘llamaydi.**

Yuqorida ta’kidlanganidek, zamonaviy kadrlar tanlash psixologiyasida aasessment-markaz turli tashkilotlar va ishlab chiqarishda kadrlarni tanlashda ommaviylashib bormoqda, ular 60%ni tashkil etmoqda.

Assessment-markazlar faqatgina kadrlarni tanlashda emas, balki ishchilarni attestatsiya qilish, xizmat pillapoyasidan ko‘tarishda ham qo‘llanilmoqda. Mazkur metodning bunday ommaviylashuvini uning doirasida qo‘llaniladigan turli-tuman baholash metodlari, bir nechta ekspertlarning ishtirok etishi nomzod haqida har tomonlama va obektiv tasavvurlarni to‘plab berishi bilan bog‘lash mumkin. Ta’kidlash joizki assessment-markazlar tanlash jarayonini tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Bunda karlarni tanlashdagi barcha asosiy tanlov metodlari integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi(namunaga oid ishni bajarish testi, tuzilmaviy suhbat, qobiliyatlar, bilim, ko‘nikma va malakalar hamda shaxslilik sifatlarini aniqlash bo‘yicha yozma test), ularning natijasidahar bir nomzodga uning umumiy reytingini ko‘rsatuvchi bayonnaoma tuziladi. Mazkur metod yordamida 6 yoki 8 kishidan iborat guruhlarda rahbarlar va psixologlar ishtirokida ikki uch kunlarda ba’zida hafta davomida saralash ishlari olib boriladi. Bunda guruhda baholashning ustunligi nomzodlarning guruhiy dinamikasida namoyon bo‘ladi va bunda nomzod faoliyatining turli tomonlarini baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Yana bir metodlar klassifikatsiyasi kognitiv testlardir. Juda ko‘p mutaxassislar fikricha, kognitiv testlar konkret tashkilot sharoitlariga yo‘nalgan va yetarlicha darajada ishonchli bo‘lishi kerak. 1970-yillarning oxirlarida Djeka Xanter va Frenk Shmidt ishlari psixologlarga kadrlar tanlashda qo‘lanishi mumkin bo‘lgan ishonchli kognitiv testlar majmuasini qo‘llash imkonini berdi. Biroq bunda muammo tug‘ilishi mumkinki, agar kadrlar saralash bilan shug‘ullanuvchi shaxs professional psixolog bo‘lmasa kognitiv testlar natijalarini interpretatsiya qilishi juda mushkul bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, ba’zi vaziyatlarda kadrlarni saralashda kognitiv testlarni qo‘llash o‘rinsiz bo‘ladi, masalan, oliy o‘quv yurtlari talabalarini ishga saralashda. Bundan tashqari, umumiy aqliy qobiliyatlar testlarini qo‘llash haqida qaror qabul qilishga diqqat bilan qarash lozim.

Biografik ma’lumotlar metodi ham kadrlarni saralashda keng qo‘llaniladigan metodlar sirasiga kiradi. Mazkur metoddan ham faqat uning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlar bor. Boshqa metodlardan farqli tomoni shundaki, hayot davomidagi ma’lum hodisalar yoki nomzodning xususiyatlari bilan bo‘lajak kasbiy faoliyat o‘rtasidagi statistik aloqadorlik hisobga olinadi. Biografik ma’lumotlarni ikkita asosiy usul orqali olinadi: anketalarning standart blanklari va biografik so‘rovnomalar. Bu ikki metodlar o‘rtasidagi asosiy farq olinadigan axborot soni va tipidadir. Anketalarning standart blanklarida ma’lumotlar ko‘laming yetarlicha chegaralangan krinishi beriladi, masalan yosh, oilaviy ahvol va avvalgi ish joylari haqidagi ma’lumotlar. Biografik so‘rovnomalar asosi da esa nomzod hayoti haqida to‘liq va batafsil ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Mazkur so‘rovnomalar shuningdek ba’zi psixologik komponentlarni,

masalan nazorat lokusini, nomzodning mustaqilligi, intiluvchanligini ham aniqlab berishi mumkin, shu tariqa biografik so‘rovnama shaxslik testlari rolini ham bajarishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy rekrutmentda kadrlarni saralash metodlari klassifikatsiyasi juda keng ko‘lamga va mazmunga ega bo‘lib, ularning soni yildan-yilga ortib bormoqda.

#### **4. Kadrlarni psixologik saralash mezonlari**

Kadrlar tanlash muammosini ilmiy jihatdan amerikalik olim F.Parsons o‘rgangan bo‘lib, 1908 yilda u quyidagi tamoyillarni ishlab chiqadi(1,4):

- 1) inson o‘z individual sifatlari, eng avvalo kasbiy axamiyatli qobilyatlar bo‘yicha aynan bitta kasbga mos keladi.
- 2) kasbiy muvofaqqiyat va kasbdan qoniqish individual sifatlar va kasb talablarining mos kelishi bilan bog‘liq.
- 3) Kasbiy tanlov anglangan jarayon bo‘lib, bunda insonning o‘zi yoki kasbiy konsultant psixologik yoki fiziologik sifatlar majmuasini belgilaydi va uni kasb talablari bilan solishtiradi.

Kasbiy saralash xarakteristikalari ichidan F.Parsons avvalambor, anglanganlik va ratsionallikni ajratadi hamda ularni individdagi qobiliyatlar, qiziqishlar va qadriyatlar hamda ularni turli kasblarda amalga oshirish imkoniyati o‘rtasidagi kelishuv sifatida tushunadi.

Aynan mana shu nazariya asosida juda keng professiografik material to‘plandi va tahlil qilindi, kasblar klassifikatsiyasi ishlab chiqildi, kasbiy tanlash va insonning u yoki bu kasb talablariga mos kelishi darajasini aniqlash maqsadida kasbiy saralash prinsiplari va sxemalari ishlandi.

Kadrlarni saralashdagi yirik va tub o‘zgarishlar XX asrning 20-yillarida yuz berdi, bunda ishlab chiqarishda Teylor tomonidan ilgari surilgan mehnatni tashkil qilish tizimi keng qo‘llanildi. Teylor tadbirkorning maksimal daromadini har bir ishchining maksimal muvaffaqiyati bilan bog‘lashni ta’minlash zarurligini ta’kidlovchi konsepsiyanı ilgari suradi. Teylor konsepsiysi asosida insonlarni boshqarish mehnatni tashkil etish va uning samaradorligini oshirishning eng muhim masalasi yotadi. Teylor alohida e’tiborni kadrlarni izlash va saralash, shuningdek rahbar kasbiy

kompetensiyasini baholashga qaratadi. Teylor tizimida to‘rtta asosiy prinsipni ajratish mumkin(1,3,4):

1. Butun personalning malaka va ko‘nikmalarini umumlashtirish klassifikatsiyalash;
  2. Ilmiy o‘rnatilgan belgilar asosida qat’iy saralashni amalga oshirish;
  3. xodimlarni rag‘batlantirishning izchil o‘ylab chiqilgan tizimi;
  4. ishchilar va boshqaruvchi o‘rtasida mehnat hamda mas’uliyatni taqsimlash.
- Teylor fikricha, inson ishlab chiqarishda aniq talablarga, qat’iy iyerarxiya va mehnatning izchil taqsimlanishiga ega bo‘lgan tuzilmaviy muhitga tushishi kerak. Bunda moddiy manfaatdorlikni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mehnatning ratsional motivi sifatida qo‘llab, ishning optimal rejimiga hamda ishlab chiqarish samaradorligiga erishish mumkin. Ma’lumki, AQSH, Germaniya, Fransiyada Teylor tizimi asosida kadrlarni tanlashning xususiy tizimlari ishlab chiqilgan. Ratsional yondashuv hali xanuz zamonaviy boshqaruvda, ayniqsa konveyerli texnologiyalarda keng qo‘llanilmoqda. F.Teylarning “ilmiy menejment” konsepsiysi asosida M.Veberning mehnatni tashkil etishning sotsiologik nazariyasi, A.Fayolning administrativ nazariyasi va L.Gyulik, Dj. Muni hamda L.F.Urvik(3) tomonidan boshqaruvning sintetik konsepsiysi ishlab chiqildi. Mazkur yondashuvlarni klassik yondashuvlar deb baholasa bo‘ladi. M.Veberning sotsiologik konsepsiyasida tashkilot shaxssiz mexanizm hisoblanib, asosiy qoidasi aniq va xatosiz ishlash hamda bunda maksimal daromad olishdir. Veber nazariyasi asosida qo‘yidagi holatlar ilgari suriladi:

- 1) tashkilot o‘z maqsadlariga erishish usullarini tanlashda

mustaqillikka ega;

- 2) individlar bir-birini o‘rnini bosadigan bo‘lishi kerak;
- 3) tashkilotdagi mehnat individ mavjudligining asosi bo‘lishi kerak;
- 4) individ xulq-atvori aniq va bitta sxema orqali belgilab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

A.Fayolning administrativ konsepsiyasida 14 ta “maksim” ajratiladi, masalan, mehnatning taqsimlanishi, yagona rahbarlik prinsipi, umumiy manfatlarning xususiy manfaatlardan ustunlik qilishi, shtatlar jadvalining muqimligi va x.k.

L.Gyulik, Dj. Muni va L.F.Urvik ishlab chiqarishni tashkil etishning uchta prinsipini taklif etadilar: mutaxassislikka yo‘naltirish, nazorat va yagona rahbarlik.

Insoniy munosabatlar konsepsiyasiga E.Meyo tomonidan ilgari surilgan mashhur Xotorn eksperimentlari asos bo‘ldi.

Mazkur eksperimentlar davomida ishlab chiqarishning turli omillari o‘rganildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mehnatni tashkil etishning obektiv omillari ishlab

chiqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega emas ekan. Tadqiqotchilar ishchilar uchun kutilmaganda ular mehnati sharoitlarini yaxshiladilar – ish davomida qo'shimcha tanaffuslar tashkil qilishdi, kompaniya hisobiga ikkinchi nonushta berishdi, ish kunini qisqartirishdi. Ishlab chiqarish samaradorligi oshib bordi. Biroq mazkur imtiyozlarni bekor qilishganda ishlab chiqarish samaradorligi pasaymadi. Ishchilardan nima uchun ular yaxshi ishlashda davom etayotganlarini so'rashganda ular "axir siz bizlar haqimizda shuncha qayg'urib, g'amxo'rlik qildingiz-ku" deb javob berishdi. Shunday xulosaga kelindiki, mehnat samaradorligiga rahbarlik usullari va o'zaro munosabatlar maromi ta'sir ko'rsatar ekan. E.Meyo tomonidan olib borilgan keyingi eksperimentlarda odamlarning ijtimoiy xulq-atvori faqatgina turli guruhiy normalar funksiyasi ekanligi ma'lum bo'ldi. Qizig'i shundaki, F.Taylor ham guruhiy ishning mazkur fenomeniga e'tibor qaratgan edi.

Ma'lumki, kadrlarni saralashda eng avvala uning motivlarini hisobga olish muhimdir. Xulq-atvor va faoliyat motivatsiyasi muammosi psixologiyadagi yetakchi muammolardan biri hisoblanadi. Uni tadqiq etish psixologiya nazariyasi uchun ham, amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya jahon psixologiyasida keng o'rganiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, motivatsiya borasidagi E.G'oziyev, Z.Freyd, X.Xekxauzen, K.Levin, Dj.Atkinson, T.Merfi, A.A.Fayzullayev va boshqalar ishlari mavjud.

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi borasida Kornadt (1990), X.Xekxauzen (1990), M.Myurrey(1998), V.Orlov,(1990), Mak-Kelland(1998) boshqalar tadqiqotlar olib borganlar(13,14).

Ko'pgina mualliflar ishlarida motiv extiyojlarning aks etishi va namoyon bo'lishi sifatida qaralgan. Motivatsiya sohasi o'z ichiga undashning barcha turlarini qamrab oladi: motivlar, extiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, maqsadlar, mayllar va x.k. Kengroq ma'noda olib qaraganda motivatsiya umuman xulq-atvor determinatsiyasidir.

Psixolog-tadqiqotchilar ishlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ular motivatsiyani tushunish va unga ta'rif berishda motivatsiyaning dinamik va mazmuniy tomonlari birligi haqidagi holatdan kelib chiqadilar.

E.G'oziyev fikriga ko'ra insonlarga aloqador motiv va motivatsiya tushunchalari qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlarini o'z ichiga oladi, chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustakovkalar va boshqalar.<sup>9</sup>

S.L.Rubinshteyn (1990) fikricha "motivatsiya bu psixika orqali amalga oshiriladigan determinatsiyadir... bu uning aks ettilrilishi vositasida inson xulq-atvorining subektiv determinatsiya qilinishidir"<sup>10</sup>.

Insonlar faoliyat motivatsiyasini o'rganish psixologiyaning ko'pgina yo'nalishlari ichida eng qiziqlarisi hisoblanadi, chunki faoliyat natijalari ko'pincha insonni faoliyatga nima undashiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ijod motivi sifatida

<sup>9</sup> Э.Фозиев, А.Жабборов. Фаолият ва хулқ-атвор мотивацияси. Т. 2003. 11-бет

<sup>10</sup> С.Л.Рубинштейн. Основы общей психологии. М. 1990. 232-бет

insonning faoliyat natijalarini yaxshilashga intilishi tushuniladi, u muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi deb ataladi.

Y.M.Orlov fikricha, bu muammoda insonning fundamental ijtimoiy extiyojlaridan biri – muvaffaqiyatga erishish extiyoji yotadi. Bu extiyoj insonning ilgari erishgan darajasidan o‘zib ketishda, avval bajargan ishini bu safar yaxshiroq bajarish, muammoni originalroq yechishga intilish borasida doimiy o‘zo‘zi bilan musobaqlashish ketadi. Bu extiyoj insonni uzoqroq maqsadlarni ko‘zlashga va ularni amalga oshirishda izchil xarakat qilishga undaydi.

Muvaffaqiyatga erishish extiyojlari ulug‘ bo‘lgan shaxslar “erishuvchi shaxslar” deb ataladi, bunday odamlar qandaydir faoliyatning avvalgi va keyingi bajarilish darajasi o‘rtasidagi tafovutlarni idrok etishdan qoniqish hosil qiladilar, chunki bu tafovut ular uchun emotsiyonal jixatdan alohida ahamiyat kasb etadi.<sup>11</sup>

Inson hayot tarzi, uning kasbi, bo‘sh vaqtida nima bilan shug‘ullanishiga bog‘liq ravishda muvaffaqiyatga erishishga extiyoj keng diapazonda namoyon bo‘lishi mumkin. Y.M.Orlov fikricha “Erishuvchi shaxs ixtiro, ratsionalizatorlik taklifi, yangi nazariya yaratish ustida mavqe uchun yoki rasmiy tarzda yoxud moddiy rag‘batlantirish uchun ishlamaydi, balki bu faoliyat unga birinchi navbatda ulkan qoniqish berishi uchun ham harakat qiladi. Bunday odamlar faoliyati har oim ham tan olinmaydi va mukofotlanmaydi.

Muvaffaqiyatga erishish extiyojlarini shakllanishi haqida gap ketganda shuni ta’kidlash joizki, bu extiyoj ijtimoiy extiyojdir. Olimlar muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining shakllanishida bir qancha omillarni sanab o‘tadilar.

Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatdan qochishga motivlashtirilgan odamlar xulq-atvori quyidagicha tafovutlanadi. Muvaffaqiyatga erishishga yo‘nalgan odamlar odatda o‘z oldilariga faoliyatda muvaffaqiyat deb hisoblanadigan ijobiy maqsad qo‘yadilar. Ularda intilish aniq namoyon bo‘ladi, qanday bo‘lmasisin ular o‘z faoliyatlarida faqat muvaffaqiyatga erishishga harakat qiladilar shunday faoliyatni izlaydilar, unga faol kirishadilar, qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan vositalarni va harakatlarni ma’qul tanlaydilar. Bunday odamlarda kognitiv sohada odatda muvaffaqiyatni sobitlik bilan kutish mavjud. Qandaydir ishga kirishganda ular albatta muvaffaqiyatni hisobga oladilar va unga erishishlariga ishonadilar. Ular qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun yo‘naltirilgan harakatlarining qo‘llab-quvvatlanishini kutadilar, bular bilan bog‘liq ishlar ularda ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari ular uchun o‘zlarining barcha zaxiralarini to‘la ishga solish va e’tiborini qo‘yilgan maqsadga qaratish xosdir. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi ustunlik qilgan odamlar o‘zlarini boshqacha tutadilar. Ularda faoliyatdagi aniq maqsad muvaffaqiyatga erishishda emas, muvaffaqiyatsizlikdan qochishda namoyon bo‘ladi. Ularning barcha fikrlari va harakatlari ana shunga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Dastlab muvaffaqiyatsizlikka motivlashgan inson o‘zida ishonchsizlikni namoyon qiladi, muvaffaqiyatga erishishiga ishonmaydi, tanqiddan qo‘rqadi. Ayniqsa

<sup>11</sup> Ю.М.Орлов. Потребность в достижении. Хрестоматия по общей психологи. М. 1998 й. 65-бет

muvaffaqiyatsizlikka uchrash extimoli bo‘lgan ishlar bilan unda salbiy emotsiyal kechinmalar bog‘liq bo‘ladi, u faoliyatdan ko‘ngli to‘lmaydi, faoliyat unga malol keladi. Natijada u g‘olib emas, omadsiz bo‘lib qoladi. X. Xekxauzen(1994) fikricha, muvaffaqiyat motivatsiyasi ustunlik qilgan odamlar tez, lekin kam foyda beradigan hamda uzoq muddatli, lekin katta foyda beradigan ish o‘rtasida tanlash yuzaga kelganda ko‘pincha ikkinchisini tanlaydilar, muvaffaqiyatga moyilligi past odamlar esa hozirgi ishga bog‘lanib qoladilar. Shuningdek, ta’kidlanadiki, muvaffaqiyatga motivlashganlar “katta maqsadlar”ga e’tiborlarini to‘playdilar, ular uzoq vaqt ni o‘z ichiga olgan, rejalashtirishni taaqozo etadigan, qaror qabul qilish jarayonini o‘z ichiga olgan topshiriqlarni afzal ko‘radilar. Ular muvaffaqiyatga birdaniga erishishni xush ko‘rmaydilar, binobarin ular yetarlicha kuta oladilar. Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyalari yetakchilik qiladigan odamlarda o‘z muvaffaqiyatlari va omadsizliklarini tushuntirishda ham tafovutlar kuzatiladi. Muvaffaqiyatga intiluvchi o‘z yutug‘ini o‘z qobiliyatlariga bog‘liqligini ta’kidlasa, muvaffaqiyatsizlikdan qochishga intiluvchilar o‘z qobiliyatlarini qarama-qarshi holatda tahlil qiladilar. Muvaffaqiyatdan xavfsiraganlar o‘z muvaffaqiyatlarini tasodify holatlarga bog‘lb tushuntiradilar, muvaffaqiyatga intiluvchilar esa o‘z omadsizliklarini shunday tushuntiradilar. M.SH. MagomedEminov(1996) fikricha, motivatsiyaning ma’lum mexanizmlari mavjud bo‘lib, u mo‘ljallarni amalga oshirishni boshqaruvchi va nazorat qiluvchi vazifalarni bajaradi. Ularga quyidagilar kiradi: ratsional strategiyalar, emotsiyal ta’sirlar, vaziyatni nazorat qilish vaqt ni taqsimlashni nazorat qilish. Bunda muvaffaqiyatga intilish motivi mavjud sinaluvchilar o‘zini o‘zi nazorat qilishning quyidagi usullarini qo‘llaydilar:

- 1)amaliy faollik – harakatning ahamiyatini ko‘tarishga yo‘naltirilgan ratsional strategiya;
- 2)dolzarb vaziyatda bilish va emotsiyal jarayonlarni yo‘nalishini ushlab turishga majbur qiluvchi o‘z o‘ziga berilgan yo‘riqnomalar;
- 3)faollikka yo‘naltirilgan emotsiyal nazorat (o‘z-o‘zidan qoniqmaslik, jaxl va x.k.).

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlariga ega bo‘lgan sinaluvchilar o‘zini o‘zi nazorat qilishni quyidagi usullaridan foydalanadilar:

- 1)umumiyl maqsadning ahamiyatini qadrsizlantiruvchi ratsional strategiyalar;
- 2)vaziyatning noaktual jabxalariga chalg‘imaslikka majbur qiluvchi o‘z-o‘ziga yo‘riqnomalar;
- 3)relaksatsiyaga (xotirjam bo‘lish, o‘z-o‘ziga ishonch va x.k.) yo‘naltirilgan emotsiyal nazorat. Erishish motivi shaxsning barqaror xarakteristikasi sifatida birinchi marotaba G.Myurrey tomonidan ajratilgan va nimanidir tez hamda yaxshi qilishga, qandaydir ishda ma’lum darajaga erishishga intilish sifatida tushunilgan. Keyingi tadqiqotlar jarayonida bu motivning D. Mak-Klelland va X. Xekxauzen tomonidan o‘rganilishi ikki mustaqil motivatsion tendensiya aniqlandi: muvaffaqiyatga initilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish. Erishish motivi bu xolatda inson o‘z imkoniyatlari

darajasini oshirishga qanchalik intilishini ko'rsatadi. Rossiya psixologiyasida erishish motivatsiyasi M.SH.

Magomed-Eminov, T.V. Kornilova, I.M. Paley va boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Mamlakatimizda E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullayevlar bu muammo yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar.

G. Myurrey fikricha, muvaffaqiyatga erishish extiyoji quyidagi tushunchalar bilan xarakterlanadi: qandaydir qiyin ishni bajarish; jismoniy obektlar, odamlar yoki g'oyalarga nisbatan boshqarish, manipulyatsiya qilish, tashkil qilish; buni iloji boricha yolg'iz o'zi va tez qilish; to'siqlarni yengib o'tish va muvaffaqiyatga erishish, takomillashish, boshqalar bilan raqobatlashish va ulardan o'zib ketish, iqtidorini amalga oshirish va bu bilan o'zini o'zi hurmat qilishni oshirish.

M.SH. Magomed-Eminov muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini affektiv va kognitiv jarayonlarning yagona integratsiyalashgan funksional tizimi sifatida baholaydi, bu tizim faoliyat jarayonini uning butun amalga oshirilish jarayoni davomida boshqarib turadi. Faoliyatni motivatsion boshqarish jarayonida maxsus vazifalarni bajaruvchi tuzilmaviy komponentlarni sanab o'tish mumkin: dolzarblashtirish motivatsiyasi (faoliyatga undash va tashabbus ko'rsatish) seleksiya motivatsiyasi (maqsadni va unga mos harakatni tanlash) amalga oshirish motivatsiyasi (harakatning bajarilishi va mo'ljalni amalga oshirishni nazorat qilishga qaratilgan), keyingi motivatsiya (haraktani to'xtatishga va bir harakatni boshqasi bilan almashtirishga yo'naltirilgan jarayonlar). Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, erishish motivatsiyasini dolzarblashtiruvchi asosiy mexanizmlardan biri vaziyatni emotsiyal-motivatsion baholash bo'lib, u vaziyatning motivatsion ahamiyatliligi va erishish vaziyatida baholash kompetentligi asosida shakllanadi. V.N. Vilyunas (1989) fikricha muvaffaqiyat emotsiyalarini funksional belgilash shundan iboratki, ular maqsadga birlamchi undashni kuchaytiradi va qo'llab-quvvatlaydi, muvaffaqiyatsizlik emotsiyalar esa bu undovchini ushlab turadi yoki inkor etadi.

Chet el psixologlaridan Dj. Atkinson (1999) muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining birinchi rasmiylashtirilgan modelini ilgari suradi, bu model mazkur sohada ishlab chiqilgan keyingi modellarga asos vazifasini o'tadi. Atkinson yondashuvining manbalari K. Levin maydon nazariyasiga borib taqaladi. Atkinson oldinga ahamiyatli qadam tashlaydi, ya'ni u kutilma - qadriyat o'zgaruvchilariga uchinchi motivatsion o'zgaruvchini qo'shadi. Bu motivlardagi individual tafovutlarning xulq-atvor dinamikasiga ta'sirini hisobga olish imkonini beradi. Dj. Atkinson bo'yicha maqsadga erishishga yo'naltirilgan xulq erishishning natijaviy tendensiyasiga ko'ra aniqlanadi, bu tendensiya muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish tendensiyalarining birgalikdagi o'zaro ta'sirida yuzaga keladi. Muallif motivlarni shaxsni umumlashgan nisbatan turg'un dispozitsiyalari sifatida tushunadi. Muvaffaqiyat extimolining o'sishi uning qadriyatini oshiradi va aksincha. Dj. Atkinson K. Levin va boshqalarning ma'lum chegaralarda muaffaqiyat qadri topshiriq murakkabligining chiziqli funksiyasi ekanligi haqidagi g'oyalarini rivojlantiradi: topshiriq murakkabligi

ortib borgan sari uning qadri ham ortib boradi. Inson o‘ziga oson tuyulgan ishni bajarishdan katta xursandchilik his etmaydi va aksincha juda qiyin ishni bajarganda o‘zi uchun juda katta g‘ururni his qiladi.

V.I.Stepanskiy (1998) faoliyatni boshqarishga muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasining ta’sirini o‘rgana turib, shunday xulosaga keladiki, erishish extiyoji muvaffaqiyatga erishish intilishga yagona undovchi emas va uni ana shu intilish jadalligi orqali o‘lhash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shuningdek, uning fikricha, aniq ifodalangan muvaffaqiyatga muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish bilan birgalikda ham kechvishi mumkin, ayniqsa muvaffaqiyatsizlik subekt uchun og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lsa.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kadrlarni psixologik saralashda shaxsning motivatsion sohasini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi, zero kadrlarning faqatgina birlamchi ehtiyojlari, ya’ni yaxshi maosh, qulay ish o‘rniga ega bo‘lish ehtiyojlaridan tashqari yuqori darajali ehtiyojlar, xususan, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ham kadrlar tanlash psixologiyasidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib, juda ko‘p tadqiqotchilar mazkur muammo borasida tadqiqotlar olib borganlar. Hozirgi vaqtda uchta nazariya mavjudki, ular insonni harakatga undovchi motivlarni tushuntirishga harakat qiladi:

- 1) Muvaffaqiyatga erishish extiyoji nazariyasi; 2) Atribusiya nazariyasi;
- 3) Maqsadga erishish nazariyasi.

Mazkur nazariyalarni muxokama qilib chiqamiz.

1) Muvaffaqiyatga erishish extiyoji nazariyasi: mazkur nazariya ham shaxslilik, ham vaziyatli omillarni xulq-atvorning eng muhim ko‘rsatkichlari sifatida hisobga oluvchi majmuaviy modeldan iborat. Bu nazariyani beshta komponent tashkil qiladi:

a) shaxslilik omillari va motivlar. Har qanday inson uchun muvafatsiyatga erishishning ikkita asosiy motivi xarakterlidir, bular muvafatsiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari. Muvafatsiyatga erishish motivi u yoki bu harakatni bajarishdan qoniqish yoki g‘ururni his etish imkoniyati sifatida ta’riflansa, muvaffaqiyatsizlikdan qochish – muvaffaqiyatsizlik natijasida uyat yoki kamsitilishni his qilishdir. Mazkur nazariyaga asosan bizning xulq-atvorimiz ana shu motivlarning o‘zaro mutanosibligi orqali aniqlanadi. Xususan, yuqori muvaffaqiyatlarga erishgan insonlar uchun muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining yuqori ko‘rsatkichlari va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasining past ko‘rsatkichlari xosdir. Ular o‘z qobiliyatlarini baholashni yoqtiradilar, muvaffaqiyatsizlik haqida o‘ylab o‘tirmaydilar. Yuqori muvaffaqiyatlarga erishmagan shaxslar uchun esa, muvaffaqiyatga erishishning past ko‘rsatkichlari va muvaffaqiyatsizlikdan qochishning yuqori ko‘rsatkichlari xosdir. Ular doim muvaffaqiyatsizlik haqida o‘ylaydilar va undan qo‘rqadilar.

b) vaziyatli ta’sirlar. Shaxsning xarakterli xususiyatlarining o‘zi asosida xulq atvorni aniq prognoz qilish mumkin emas. Vaziyatni e’tiborga olish zarur. Muvaffaqiyatga erishish extiyoji nazariyasi ikkita momentni o‘z ichiga oladi: vaziyatda

muvaffatsiyat extimoli va muvaffaqiyatning undovchi ahamiyati. Muvaffaqiyat extimoli kim bilan musobaqalashishga va topshiriqning qiyinligiga bog‘liq bo‘ladi.

v) natijalovchi tendensiyalar. Muvaffaqiyatga erishish extiyoji nazariyasining uchinchi komponenti natijalovchi bixevoiristik tendensiya bo‘lib, u inson muvaffaqiyatga erishish moti darajalarini ma’lum vaziyatga nisbatan qarab chiqish bilan belgilanadi. Mazkur nazariya muvaffaqiyatning 50 ga 50 ehtimolli prognozlashda samaralidir. Yuqori muvaffaqiyatlarga erishgan odamlar bunday vaziyatdan ilhomlanadilar, chunki ularga teng keladigan raqiblar bilan musobaqalashish yoki yengil bo‘lmagan vazifalarni bajarish yoqadi. Katta muvaffaqiyatlarga erishmagan insonlar yengil vazifalarni yoqtirishadi, chunki ularning fikricha bunda muvaffaqiyat kafolatlangan. Ba’zida ular juda qiyin vazifalarga intiladilar, chunki ulardan hech kim muvaffaqiyat kutmaydi. Muvaffaqiyat extimoli 50ga 50 bo‘lganda ular haddan tashqari hayajonlanish va bezovtalanish his qiladilar, bu esa zaif qatnashish extimolini oshiradi. Ular bu vaziyatdan qocha olmasalar, muvaffaqiyatsizlikdan qochish ehtiyojining yuqoriligi tufayli hayajonga tushib qoladilar

g) emotsiyonal reaksiyalar (g‘urur va sharmandalik). Yuqori muvaffaqiyatlarga erishadigan odamlar ham, erishmaydiganlar ham tabiiyki, g‘ururni his etishni ma’qul ko‘radilar, biroq ularning shaxslilik xususiyatlari vaziyatli omillar bilan turlicha o‘zaro ta’sirga kirishadi, bunda yo g‘ururda yoxud sharmandalikda ko‘proq diqqatni to‘plashga majbur qiladi. Birinchilari ko‘proq g‘ururda, ikkinchilari esa sharmandalikda o‘z e’tiborlarini to‘playdilar.

d) Muvaffaqiyatga erishish xulqi. Muvaffatsiyatga erishish ehtiyoji nazariyasining beshinchi komponenti avvalgi to‘rtta komponent xulqqa qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Katta muvaffaqiyatlarga erishgan odamlar ko‘proq musobaqaviy topshiriqlarni izlaydilar, oraliq tavakkalni yoqtiradilar va baholovchi vaziyatlarda yaxshiroq qatnashadilar. Katta muvaffaqiyatlarga erishmaydigan odamlar musobaqaviy vaziyatlardan qochadilar.<sup>12</sup> 2) atributiv nazariya:

Bu nazariya odamlar o‘z muvaffaqiyatlari va yutqazishlarini qanday tushuntirishlariga asoslangan. Mazkur nazariyaga asosan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni har qanaqa tushuntirishning minglab variantlarini bir nechta kategoriya bo‘lish mumkin. Asosiy kategoriya bu yerda muqimlik nisbatan doimiy yoki doimiy bo‘lmagan omil), kauzallik yoki sababiylilik (ichki va tashqi omil) va nazorat (nazorat ostida bo‘lgan yoki bo‘lmagan omil). Sportchilar o‘z natijalarini qanday tushuntirishlari ularning kutilmalarini va emotsiyonal reaksiyalariga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

3)maqsadga erishish nazariyasi:

Maqsadga erishish nazariyasiga muvofiq, uchta omil o‘zaro ta’sir etgan holda inson motivatsiyasini belgilab beradi: erishish maqsadlari, ta’sirchanlik va erishish xulqi.

<sup>12</sup> Гогунов Е.Н. Психология физического воспитания и спорта: учебное пособие для студентов высш. пед. учеб заведений./ Гогунов Е.Н., Мартъянов Б.П. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. 47-49-бетлар

<sup>13</sup> Ўша ерда. 49-бет.

Inson motivatsiyasini tushuntirish uchun uning uchun muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik qanday ahamiyatli ekanligini aniqlash zarur.<sup>13</sup>

Shunday qilib, tom ma'noda motivatsiya – bu keng tushuncha bo'lib, o'z ichiga harakatlar yo'nalishi va jadalligini boshqarish jarayonini oladi. Motivatsiya haqida real tasavvur olish uchun sport faoliyatiga nomotivatsion ta'sirlarni anglash zarur, shuningdek motivatsion omillarning tez o'zgarish imkoniyatini aniqlashni o'rganish lozim. (Y.A.Kolomeysev, 2004).

Motiv – ma'lum faollikka, extiyojlarni ma'lum usul bilan qondirishga undash. Agar extiyoj faollik manbai bo'lsa, motivlar bu faollikka ma'lum yo'nalish beradi va insonni mazkur yo'l doirasida ushlab turadi. Motivlar nima uchun aynan u yoki bu maqsadlar qo'yilayotganligini, ularga erishishga intilish kuchayayotganligini tushunish imkonini beradi. Sport faoliyati uchun motivlarning turli-tumanligi xarakterlidir. Bu jismoniy va ruhiy zo'riqishlar bilan tushuntirilishi mumkin, inson nima uchun zo'riqayotganini bilishi zarur. Xersbergning kasbiy ehtiyojlar klassifikatsiyasi ham motivatsion-gigiyenik model sifatida baholaib, unga ko'ra ishdan qoniqish quyidagi omillarga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi: muvaffaqiyatlar (malaka) hamda muvaffaqiyatning tan olinishi; shunchaki ish (ishga va berilgan tpshiriqqa qiziqish); mas'uliyatlilik;

■ xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish; kasbiy o'sish imkoniyati. Mana shu omillarning xammasini Xersberg "motivatorlar" deb ataydi.

Ishdan qoniqqanlikka quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

- boshqaruv usuli; tashkilot va ma'muriyat siyosati; mehnat sharoitlari;
  - ish joyidagi shaxslararo munsoabatlar;
  - mehnat haqi; ish muqimligiga ishonmaslik; ishning shaxsiy hayotga ta'siri.
- Mazkur tashqi omillar "kontekst omillari" yoki "gigiyenik" omillar nomiga ega bo'ldi. Kadrlarni saralash mezonlari haqida gap borar ekan, ta'kidlash joizki, motivatsion sohadan tashqari, har bir kasb uchun zarur bo'ladigan maxsus shaxslilik xususiyatlari, qobiliyatlar, ko'nikma va malakalarni egallahsga layoqat darajalari ham hisobga olinadi. Masalan, umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun qo'yiladigan talablarga kelsak, emotSIONAL barqarorlik, sabr-toqatlilik, kasbiy kompetentlilik, bolalar psixologiyasini yaxshi bilish, kommunikativ qobiliyat takt, empatiya va boshqa xususiyatlarni keltirish mumkin. Umuman sotsionomik tipdag'i kasblarda, ya'ni "subekt-subekt" tizimiga asoslangan kasblarga ishga kiruvchilarda ana shu xislatlar birinchi o'rinda talab etilishi hech kimga sir emas. Xuquq-tartibot organlariga ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga o'ziga xos talablar qo'yiladi, masalan, shaxslilik xususiyatlaridan tashqari yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish, stressga barqarorlik, qat'iyatlilik, mardlik, kutilmagan vaziyatlarda harakat qila bilish, bir qator kognitiv xususiyatlar talab etiladi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan firma va kompaniyalarda jamoada ishlay olish qobiliyat, kommunikativ xususiyatlar, tadbirkorlik, stressga barqarorlik va shunga o'xshash zarur xislatlar nomzodda bo'lishi afzal ko'riladi.

## **5.Kadrlarni saralash metodlarini amaliyotda tatbiq etish, ularni amalga oshirish tartibi va algoritmi**

Odatda kadrlarni saralash birgina emas, balki ularni atroflicha o‘rganishga mo‘ljallangan bir necha usullari mavjud. Nomzodlarni saralashning kompleks metodlari o‘zida quyidagilarni qamrab oladi:

- Oldindan saralash (belgilangan shaklda nomzod haqidagi axborotlar to‘plash, dastlabki suhbat va intervyu);
- Nomzod haqida axborot to‘plash (o‘zga kishilar yordamida);
- Shaxslilik so‘rovnomalari;
- testlar: intellekt, maxsus qobiliyatlar, qiziqishlar, kasbsha yaroqlilik va boshqalar;
- kadrlarni guruhiy metodlari;
- muammoni hal etish;
- ishni sinab ko‘rish;
- o‘zini o‘zi qayd etish; □ suhbat, intervY.

Metodlar kadrlikka nomzodning tanlashga yondashuvga bog‘liqdir. Ular har xil bo‘ladi. Masalan, bugungi kun tajribajalarda amerikancha va yaponcha yondashuv mavjud (26)

### ***Amerika firmalari:***

Nomzodni talab etiladigan ish o‘rniga mos kelishi;

-lavozim, majburiyat, mehnat sharoitiga; mehnatdagi xulq-atvorga mosligi. ***Yapon firmalari:***

-xodimning ta’lim olganlik va shaxslilik imkoniyatlariga yo‘naltirilgan; Kadrlarni saralash ham tashqi, ham ichki bo‘ladi.

Kadrni ichki saralash mavjud mehnatga munosabatini o‘zgarishiga qarab amalga oshiriladi:

- ichki joylashuv, kadrning maqsadli rivojlanishi, rezervlarni shakllantirish va foydalanish;
- ishni tashkil etishdagi o‘zgarishlar; yuqori darajali tatbiq etish, ko‘p smenali ish tartibi.

Kadrlarni tashqi saralash yo‘li:

- xodimni ijara haqidagi shartnomasini tuzish;
- saralashda vositachilik, verbovka, traditsion metodlar, e’lon, mehnat birjasini orqali yangi mehant shartnomalarini tuzish orqali.

### ***Dastlabki intervyu***

Bo'sh o'rirlarga nomzodlarni izlash dastlabki suhbat- kadrlar xizmati (axborot almashinish bilan boshlanadi (kotib), kadrlar bo'limi inspektori, kadrlar bo'yicha menedjer) bilan lavozimga da'vogar o'rtasida axborot almashishinish tarzda amalga oshiriladi. Dastlabki intervyu orqali amalga oshirilgan ma'lumotlar nomzodning bo'sh o'ringa mos qobiliyatga egami yoki yo'qligiga bog'liqdir.

Dastlabki suhbatning yana bir maqsadi nomzodning ish va muassasaga bo'lgan qiziqishi bilan bog'liqdir.

Dastlabki suhbat, nomzodning o'zi haqidagi ma'lumotlar shaklini to'ldirishidan oldin yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Suhbat odatada kadrlar sarashlashning markazi va asosiy metodi sanaladi. Suhbatni amalga oshirish bir qator faktorlarga bog'liq bo'ladi. Suhbatni o'tkazishga tayyorgarlik uchta ta'sir ko'rsatuvchi manbalarni hisobga olib amalga oshiriladi:

- nomzod tomonidan;
- ish beruvchi tashkilot tomonidan;
- interver tomonidan.

### **Suhbatni tashkil etishda ishtirok etuvchilardan talab etiladigan jihatlar**

<b>Nomzod tomonidan</b>	<b>Muassasa tomonidan</b>	<b>Intervyuer tomonidan</b>
-----------------------------	-------------------------------	---------------------------------

1) yoshi, jinsi, millati boshqalar salomatligi .	2)	1) Tashkilotning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari .	Jins, yosh, millat va boshqalar Ahvoli.
3) ma'lumot darajasi 4) ish tajribasi 5) kasbiy qiziqishi.		2) Boshqaruv tizimida xodimlarni saralash jarayonidagi o'rni.	Psixologik xarakteristikalar: intellekt, motivatsiya va boshqalarga qaratilgan .
6) Mavqega intilishi.		3) Saralash tizimida suhbatning o'rni.	Ishga talabni idrok etish Nomzod bilan ilk tanishuv.
7) psixologik xarakteristikalar: intellekt, motivatsiya va boshqalarga qaratilgan .		4) Kadrlarni saralashda suhbatdan amaliy foydalanish. 5) Jismoniy shartsharoitlar: suhbatga vaziyatni qo'layligi, konfidensiallik, suhbatlashuvchilar miqdori va boshqalar . 6) Suhbatning strukturali tiplari.	Intervyuning maqsadi. Bu toifa suhbatlarni o'tkazish tajribasi Qaror qabul qilish vakolati.
8) Saralash suhbatiga ishtirok etish tajribasi.		7) Ushbu vakansiyaga qanchalik tez to'ldirish.	
9) Nomzodning ish, kompaniya va boshqalarga munosabati			

Nomzod bilan intervyu atroflicha o'ylab rejalashtirilgan bo'lishi lozim.

### **Intervyu tiplari.**

Kadrlarni saralash maqsad va vazifalarga bog'liq tarzda har xil intervyu tiplari bo'ladi:

- strukturalashgan (bir qator qayd etib boriladigan savollar to‘plami asosida);
- strukturiralashmagan (erkin shaklda o‘tkziladigan);
- emotsional zo‘riqishli sharoitda intervyu (maxsus stressli vaziyat tashkil etiladi);
- panelli (maxsus tuzilgan komissiya o‘tkazadigan); □ guruhiy (nomzodlar guruhi bilan intervyu); □ bittama bitta.

Intervyudan tashqari kadrlarni saralashning yana bir qator metodlari mavjud. Ular quyidagi javdaldagi tarzda amalga oshiriladi.

### 1-jadval

#### Kadrlarni saralashda har xil usullarni tashqi qo‘llanish chastotasining foiz hisobida

Saralash usullari	Маълакасиз ходимлар	O‘qitish uchun saralan gan yoshlar				Маълакали ходимлар	Раҳбарликка тайинлангаётган ходимлар	Har xil rahbarlik lavozimi uchun xodimlar tarkibi			
		Техник	Савдо-сотик	Малакат	Ёш мутахассислар			Кўйи	Ўпра	Юкори	
Nomzodlarning arizasini baholash	80	93	99	89	97	95	98	97	93		
Qo‘srimcha ma’lumotlartartavsiyalar	12	6	4	14	19	11	37	64	68		
Kadrlar bo‘limi tomonidan rejalashtirilgan suhbat	19	48	62	39	60	68	57	58	49		
Kadrlar bo‘limi tomonidan rejalashtirilmagan suhbat	52	28	28	41	41	28	40	47	35		
Mutaxassislik bo‘yicha rejalashtirilgan suhbat	11	15	20	21	32	32	36	37	35		
Mutaxassislik bo‘yicha	52	25	19	56	65	40	53	48	45		

rejalashtirilmagan suhbat									
Guruhdagi suhbat yoki diskussiya	0	18	35	1	10	33	17	12	11
Shaxsni testdan o‘tkazish	2	10	10	3	6	7	7	8	5
Psixofizik xarakteristikalar	5	39	40	5	5	11	4	3	2
Aqliy qobiliyatlar	2	28	35	0	5	8	4	2	0
Biografik so‘rov	9	10	12	12	11	17	16	15	15
Ishni bajarishini sinab ko‘rish	8	27	12	22	17	12	9	9	8
Tibbiy ekspertiza	71	70	60	72	54	53	52	53	53

Yuqorida holatlardan ko‘rinayapdiki kadrlarni saralash bilan bog‘liq vaziyatlarda ko‘proq nomzodlarning arizasiga alohida e’tibor qaratilar ekan yoki kadrlar bilan bog‘liq suhbatni amalga oshirilishi belgilovchi rol o‘ynar ekan.

## 2-jadval

### Kadrlarni muassasa ichida saralashda qo‘llaniladigan metodlarning qo‘llash chastotasi foiz hisobida

Saralash usullari	Malakasiz xodimlar	Malaqali xodimlar	ÝPracha salohiyati xodimlar	Ёш мутахассисларни	Har xil rahbarlik lavozimi uchun xodimlar tarkibi		
					Кўйи	Ўрга	Юқори
Suhbat (intervyu)	70	78	91	72	83	84	77
Bevosita rahbarning tavsiyasi	64	73	70	48	86	83	74
Xodimlarning fikri	36	43	66	59	73	72	57

Topshiriqlarni sinov muddatli bo'yicha bajarishi	14	32	34	26	40	34	20
Ishni bajarishini sinab ko'rish	8	18	11	5	5	3	2
Shaxsni testdan o'tkazish	20	18	7	7	5	7	8

Kadrlarni saralash bilan bog'liq jahon tajribasida bir xillikni kuzatish qiyin. Shu sababli biz o'rgangan ma'lumotlarda jahon tajribasida quyidagi holatlarni keltirib o'tish mumkin bo'ladi.

### 3-jadval

**Jahon mamlakatlarining ayrimlarida kadrlar saralash bo'yicha foydalanaladigan metodikalarning ahamiyatlik ko'rsatkichi (foiz hisobida)**

Metodikalar	Mamlakatlar (%)	
	Fransiya	Angliya

Qobiliyat testlari	49	70
Shaxslilik testlar	42	64
Baholash markazlari	19	39
Grafologiya	77	3
Astrologiya	25	0

Agar yuqoridagi baholash darajalaridan kelib chiqib va psixodiagnostikada foydalaniladigan qobiliyatlarni baholash metodlarini quyidagi javdal bo'yicha keltirib o'tamiz:

4-jadval


	<b>Qobiliyatlar</b>	<b>Muhim baholash metodlari</b>
1.	Iqtidor: <input type="checkbox"/> intellekt <input type="checkbox"/> ko'rish o'tkirligi <input type="checkbox"/> reaksiya va boshqalar	Intellekt testlari, motorikani baholash testlari va sensor qobiliyatni baholash testlari
2.	Iqtidor: intellekt ko'rish o'tkirligi reaksiya va boshqalar	Interaktiv metodlar (suhbat, guruhda diskussiya o'tkazish )
3.	Motivatsiya: <input type="checkbox"/> tavakkal qilishga tayyorlik <input type="checkbox"/> «birdan harakatlanishga tayyorlik» va boshqalar	1. Natijalarga erishganlik motivatsiyalarini baholash testlar 2. Nomzodning hujjatlari 3. Intervyu
4.	Shaxslik xususiyatlari: Emotsional	1. Testlar ( so'rovnomalar) 2. Stress-intervyu

	barqarorlik va boshqalar	
5.	Kasbiy qobiliyatlar va bilimlar	1. Testlar (ishni bajarishini sinab ko‘rish) 2. Nomzodning hujjatlari (diplomni bahosiga va boshqalar)
6.	Kasbiy tajriba	1. Nomzodning hujjatlari (mehnat faoliyati) 2. Suhbat

Xodimlikka nomzodlarni izlash va ularni topish bilan bog‘liq holatni quyidagi tartibda amalga oshirish muhimdir:


### 1-sxema. Nomzodlarni saralash mazmuni

Nomzodni izlash: Ushbu mutaxassisiga  
bo‘lgan talabni aniqlash



Номзодларни саралашнинг навбатдаги ҳолатини эса уларнинг саралаш босқичларини қуидаги тартибда амалга оширишини мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

### **2-схема. Номзодларни саралаш босқичлари**







**1.Xodim bahosi:104-80 %**

**2.Bo‘lim boshlig‘i:98-75%**

**3. Muassasa rahbari \_\_\_\_\_**

### **O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni faollashtirish metodikasi (N. PRYAJNIKOV)**

Metodikaning maqsadi-yuqori sinf o‘quvchilarida kasb-hunar mehnatiga tayyorligining anglashini rivojlantirishdan iborat.

Metodikadan guruhiy hamda individual maslahatlarda foydalanish mumkin. Guruhda ish olib borish o‘quvchining kasb-hunarni tanlashga tayyorligini aniqlashda qo‘l keladi. Individual tarzda ish olib borilganda esa o‘quvchining kasb-hunarga qobiliyatini, biror bir faoliyatga motivatsiyasini, biror bir kasb-hunarni tanlovini yoki shaxsiy anglash darajasini yoritish imkonini beradi.

“Tayyor bo‘l!” metodikasini boshqa faollashtiruvchi so‘rovnomalar singari hech qachon keskin psixodiagnostik vosita sifatida qarash yaramaydi. Uning asosiy maqsadi –insonning o‘zini bilishi va shaxsiy imkoniyatlari haqidagi fikrlarini faollashtiradi, shunday yoki o‘zgacha o‘z taqdirini o‘zi muvaffaqiyatli belgilashini ta’minlaydi.

#### **Metodikani o‘tkazish tartibi**

O‘quvchilar psixologning yordamida toza oq varaq kataklarida javoblar blankasini chizadi. So‘ngra psixolog o‘quvchilarga yo‘riqnomani tushuntiradi. U o‘quvchilarga har xil mehnat harakatlari aks ettirilgan ro‘yxatini taqdim etishini aytadi. O‘quvchilar o‘zining kamolotining ushbu bosqichida harakatlardan har birini muvaffaqiyatli bajara olishini baholashlari kerak. Bunda o‘zini o‘zi baholash uchun 0 dan 10 gacha bo‘lgan ball shkalasidan foydalaniladi. Agar u yoki bu harakatni bajarish o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘dirsa, unga past ball qo‘yadilar. Mabodo ular bu harakatni yengil bajara olaman deb hisoblasalar, aks holda yuqori ball beradi. Bu yerda o‘quvchilarning xohish-istaglariga emas, balki ularning imkoniyatlari va qobiliyatları haqida so‘z borayotganligiga e’tibor qaratishlari zarur bo‘ladi. Barcha ballar “o‘zini o‘zi baholash” grafasidagi tasdiq raqamining o‘ng tomoniga yozib qo‘yiladi.

Psixolog “Mehnat harakatlari ro‘yxati”ni o‘qiydi, o‘quvchilar javoblar blankasida ushbu harakatlardan har birini bajarishga qanchalik tayyor ekanliklarini baholaydilar.

Boshqa faollashtiruvchi metodikalar bilan qanday ishlashda psixolog alohida tasdiqlarni oydinlashtirishi va sharhlashi mumkin. Mazkur metodikani sharhlash bunday holga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan “zamonaviy testlardan” farq qiladi. Bir qator tasdiqlarni o‘qishda, masalan, “Iflos, isqirt” ishni bajarish (noxush hid, chang, shovqun kuzatiladigan (№17)) o‘quvchilar maqsadga muvofiq aynan ularning qobiliyatları haqida so‘z borayotganligini esga tutgan holda baholashlari to‘g‘ri keladi. Hattoki, agar “iflos” ish (yoki boshqa yaqqol o‘ziga jalb qilmaydigan mehnat harakatlari) kimgadir juda noxush, biroq u hammasi shunday bo‘lsa ham ularni yengil bajara olsa yuqori ball qo‘yishi kuzatiladi. Aksincha, agar biror bir harakat yoqsa-yu, ammo uni hozircha yaxshi bajara olmasa, javoblar blankasida past ball qo‘yadilar.

So‘ngra psixolog har bir mehnat harakati bo‘yicha qizlar va o‘smirlar uchun alohida mo‘ljallangan taxminiy meyorlarni o‘qiydi. O‘quvchilar bu vaqtda javoblar blankasidagi “Meyorning muvofiqligi” grafasida ballarni ushbu meyoriga mosligiga qarab belgilaydilar. Agar ularning ko‘rsatkichi meyorga mos kelsa “0” qo‘yadilar, meyordan katta bo‘lsa- “+1”, agar meyordan kam bo‘lsa, “-1” qo‘yadilar. Masalan, agar birinchi savolga o‘smirlardan birortasi o‘z imkoniyatini olti ballda baholadi, ushbu savol bo‘yicha o‘smirlar uchun meyor 4 dan 8 gacha bo‘lgan ball intervaliga muvofiqli, u holda “0” qo‘yiladi.

So‘ngra o‘quvchilar o‘z ballarining (+1, -1, 0) algebraik yig‘indisini hisoblaydilar va javoblar blankasining pastki qismida yozib qo‘yadilar. Shu tarzda olingan natija ham hamma uchun umumiy bo‘lgan meyor bilan taqqoslanadi. Bunday meyor -5 dan +6 ballgacha bo‘lgan natijalardan iborat. (Albatta o‘zini o‘zi yuqori yoki past baholash haqidagi xulosalar shartli xarakterga ega, axir bir qator o‘smirlar har xil harakatlarni muvaffaqiyat bilan bajarishga qobiliyatlidirlar. Ayniqsa metodikadagi keltirilgan meyorlar kamolotdan yiroq va qanchalik o‘smirni o‘z-o‘zini bilishini faollashtirish uchun psixodiagnostika uchun shunchalik xizmati tegmaydi.

Biroq bu xulosalar keyinchalik o‘quvchining aniq kasb-hunarga tayyorligini umumiy baholashida, o‘zini o‘zi baholash haqidagi xulosalarga kelishida qo‘l keladi.

Psixolog sinfga murojaat qilib, o‘quvchilarni tayyorliklarini tekshirib ko‘rishlari uchun kasb-hunar nomini aytishlarini so‘raydi. Natijada doskada 8-12 kasb-hunarlar ro‘yxati shakllantiriladi.

So‘ngra “Kasblar menyusi” yordamida metodikada shunday kasblar mayjudligi aniqlanadi. Agar mavjud bo‘lsa, kasb-hunarlar yozilgan qatorida ro‘yxatdan tartib raqami qo‘yiladi. Mabodo, ana shu kasb o‘smirni qiziqtirsa-da, ro‘yxatda bo‘lmasa, o‘quvchi bilan kelishgan holda unga yaqin bo‘lgan kasb-hunar ko‘rib chiqiladi.

“Kasblar menyusi”da inson faoliyatiga an’anaviy bo‘lmagan bir qator faoliyat turlari masalan, daydi, tilanchi, kvartira o‘g‘risi, fohisha, reketir, narkotik sotuvchi kasblari ham kiritilgan. Biroq bugungi kunda o‘spirinlar orasida aynan ushbu yo‘llar bilan pul topishga qiziqadiganlar mayjud. Psixolog bu “kasb-hunarlar”ga e’tibor qaratishi hamda pedagok bilan birgalikda o‘spirinlar bunday faoliyat turlarini muhokama qilishi lozim. O’smirlar bilan ushbu kasb-hunarlar to‘g‘risida so‘hbatlashishdan qo‘rmasligi kerak. Axir ular o‘z davralarida ushbu masalalarni jonli muhokama qilishadi. Yaxshisi ushbu muhokamani professional psixolog o‘zining nazorati ostiga olishi lozim.

### **Metodikani bajarish uchun namuna**

So‘ngra psixolog kasbga tayyorlikni aniqlashni misol asosida tushuntiradi. O‘quvchilar psixologning ortidan mos hisoblashni amalga oshiradilar. Keyin ularning o‘zлari qiziqadigan kasblariga tayyorliklarini mustaqil aniqlaydilar. Har bir o‘quvchi o‘zining kasbga tayyorligini kamida to‘rta kasb-hunar bo‘yicha tekshirib ko‘rishi mumkin. Javoblar blankasining o‘ng qismi to‘rta teng bo‘lakka ajartiladi (1jadval) va ularning har bir biror bir kasbga tayyorlikni baholaydi.

Quyida “dasturchi” kasbiga tayyorlikni batafsil hisoblanishi “dasturchi” kasbiga tayyorlikni hisoblash namunasi” jadvalida keltirilgan.

Boshlanishida blankada kasbning nomlanishi- “dasturchi” yoziladi. So‘ngra “Kasblar to‘plami” ro‘yxatidan “dasturchi” kasbining mehnat harakatlariga muvofiq keluvchi raqami va bu harakatlarning muvaffaqiyatli bajarish uchun ahamiyatini balli ifodasi izlab topiladi. Barchasi javoblar blankida mos grafada yozib qo‘yiladi.

So‘ngra harakatning ahamiyatlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda o‘quvchi o‘z blankasida oldin qo‘ygan javobini yozib qo‘yadi. Masalan, birinchi mehnat harakati (asbob-uskunadagi ko‘rsatkichlarni kuzatish)-7 ball, uchinchi (hisob-kitobni bajarish)- 5 ball; o‘n sakkizinchи (monoton harakatni ko‘chirish)-3 ball va hakozo. So‘ngra ahamiyatlilik ko‘rsatkichlari o‘smirlarning o‘zini o‘zi baholash ballariga muvofiq ko‘paytiriladi. So‘ngra olingan natijalar yig‘indisi topiladi. O‘smirning kasbga tayyorligining umumiyo‘ ko‘rsatkichi foizli ifodalanib, javoblar varaqasining past qismiga yozib qo‘yiladi. Agar u 60–70% dan past bo‘lsa, u o‘quvchining ushbu kasbga tayyorligiga shubha uyg‘otadi.

Shuningdek, o‘smirning o‘z-o‘ziga bergen bahosini hisobga olish zarur. Agar u yuqori bo‘lsa, “dasturchi” kasbiga tayyorgarlik bo‘yicha olingan natijasi tuzatuvchi koeffitsiyent 0.7 ga ko‘paytiriladi. Agar past bo‘lsa, 1,3 ga, meyorda bo‘lsa hech qanday tuzatishni amalga oshirish shart bo‘lmaydi. Keltirib o‘tilgan misolda yuqori bo‘lmagan tayyorgarlik ko‘rsatkichi, 47 ga teng bo‘lib, u 1,3 tuzatish koeffitsiyentiga

ko‘paytirilgan va natijada 61,1 % olindi. Bu “Dasturchi” kasbiga yaxshi tayyorgarlikni bildiradi.

O‘quvchilar ham shu tarzda o‘zlari qiziqadigan boshqa kasblarga tayyorliklarini mustaqil hisoblab topadilar. Ba’zan kimdadir 6-8 ta va undan ortiq kasblarni ko‘rib chiqish xohishi paydo bo‘lib qoladi (u holda o‘quvchilar javoblar blankasida qo‘srimcha varaq qo‘shib hisoblashni bajaradi). Bunday holatda individual tartibda kasblarga qiziquvchi o‘smirlarning ko‘rsatkichlarini hisobga oladi.

### **Individual tarzda ish olib borilganda**

Individual maqsadda metodikadan foydalanishda (yoki 3-5 kishilik mikroguruh bilan ishslashda yoki) o‘tkazishning umumiy tartibi saqlanib qoladi, ammo ahamiyatli qo‘srimchalar qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘quvchilarga u yoki bu harakatlarni bajarish imkoniyatlari (“uddalayman”)ni baholabgina qolmay, balki bu harakatlarni bajarish xohishlari (“xohlayman”) va hattoki bunday harakatlarni bajarishning zarurligini baholashi tavsiya qilish tarzda kengaytiriladi. O‘quvchining har bir mehnat harakatlarini psixolog o‘qigandan keyin javoblar varaqasining uchinchi ustunchasida 0 dan 10 ballga bo‘lgan shkaladan foydalanib muvofiq keladigan o‘zini o‘zi baholash qo‘yiladi. Afsuski, yakuniy jamlanmaga kelish uchun, xususan, metodikadagi o‘zini o‘zi baholashni anqilash uchun o‘quvchilarning qobiliyatlariga bog‘liq namunaviy meyorlar taqdim etiladi («Namunaviy meyorlar» javdaliga qaralsin). Biroq xohish-istiklari bo‘yicha psixolog o‘zining mintaqasi uchun shunday meyorlar olishi mumkin (Bunday meyorlarni olish uchun quyidagi qo‘llanmalarni tavsiya etiladi: Slovar-spravochnik po psixologicheskoy diagnostike. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Kiyev: Naukova dumka, 1989; Obshaya psixodiagnostika / Pod red. A.A. Bodaleva, V.V. Stolina. M.: Izdvo MGU, 1987.)

Individual ishlarni baholashda faqat qobiliyatlar emas, balki xohishistak va ushbu ko‘rinishdagi ishni bajarish zarurligi ham baholanadi.

#### 1-jadval Javoblar blanki

<b>Harakat raqamlari</b>	<b>O‘z- o‘zini baholash</b>	<b>Meyorga muvofiqlik</b>	<b>To‘rta kasb-hunar</b>	
1				
2			1. _____	2. _____
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				

14		
15		
16		
17		
18		
19		
20		
21		
22		
23		
24		

3. \_\_\_\_\_ 4. \_\_\_\_\_

116

25		
26		
27		
28		
29		
30		
31		
32		
33		
34		
	Jami	

---

## Mehnat harakatlari ro‘yxati

1. Asbob-uskunalarining ko‘rsatkichlarini, ekrandagi axborotlarni kuzatish.
2. Matn bilan ishslash (ko‘p o‘qish, nimanidir o‘rganish).
3. Hisob-kitoblarni bajarish (EHMDa, mikrokalkulyatorda, aqlda).
4. Ko‘p chizish, rasm chizish.
5. Yozishmalar yuritish, kompyuterda matn kiritish.
6. Ko‘p so‘zlash, auditoriya oldida ma’ruza qilish, odamlar bilan suhbatlashish.
7. Xizmat ko‘rsatishga shaylik, mijozlarga yoqish va xizmat ko‘rsatish.
8. Mehnat tartib intizomiga va subordinatsiyaga rioya qilish (bo‘ysunish qoidalariga).
9. Texnikani boshqarish (mashinada, stanokda, agregatlarda).
10. Nimanidir qo‘lda yoki oddiy moslamalar yordamida qayta ishslash.
11. Ko‘pincha ochiq havoda, tabiat qo‘ynida (har qanday sharoitda) ishslash
12. Ishning borishiga ko‘ra ko‘p yodga olish .
13. Ko‘pincha safarga borib-kelish (xizmat safari, ekspeditsiya).
14. O‘zgaruvchan vaziyatlarni tez sezuvchanlik, diqqatni taqsimlay olish o‘quvi.
15. Nimani va kimnidir tekshirish, nazorat qilish, baholash, diagnoz qo‘yish.
16. Ehtiyyotkor bo‘lish va kelajakni ko‘zlab ish ko‘rish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish (aql bilan tavakkal qilish).
17. «Kir, iflos» ishni bajarish (noxush hidli, chang, shovqun

---

kuzatiladigan joylarda)

18. Bir xil, monoton ishni ko‘chirish.
19. Istehzo va qo‘pollikka chidamlilik.
20. Uzoq jismoniy yuklamalarni boshdan kechirish  
(ko‘p yurish, har xil harakatlarni bajarish, bosimni,  
vibratsiyani ko‘chirish, temperaturani ko‘tarilib tushishi ).
21. Tashkillashtirish o‘quvi, odamlarni boshqarish.
22. Xorijiy tilda so‘zlashish.
23. Nizoli vaziyatlardan chiqish, o‘z sha’nini  
himoya qilish o‘quvi.

24. Boshqalarni va o‘zini aldamaslik (bunday gapirish  
hammaga berilmagan).
25. Hamma narsani yuragiga yaqin olmaslik o‘quvi  
(sizning ishingiz to‘fayli kimgadir yomon bo‘lishidan  
xayajonlanmaslik).
26. Ko‘pincha kechasi va dam olishlarsiz ishslash.
27. Muhim qarorlarni mustaqil qabul qilish o‘quvi  
(ularning yakuniga ham mustaqil javob berish).

28. Hamkasblari bilan hamkorlikda bo‘lish o‘quvi, jamoada ishlash (janjalllarsiz va fitnasiz).
29. Xotirjam va vazmin fikrlash.
30. O‘zini doimo kuzatish, mashq qilish, shug‘ullanish va yaxshi ish formasida bo‘lish.
31. Muqaddas narsaga ishonish (buyuk g‘oyalar, xudoga, sevimli kishiga, rahbarga)
32. Ishga doimo nimadir yangilik kiritish va noodatiy fikrlash.
33. Go‘zallikni yaratish, go‘zallikni qadrlash o‘quvi.
34. Uddaburon bo‘lish, tez ishslash o‘quvi.

## **6-AMALIY MASHG‘ULOT. INTELLEKTUALLIK TESTLARINI XORIJIY PSIXOLOGIYADA QO‘LLASHNING ZAMONAVIY BOSQICHI.**

Ko‘pchilik psixologlar hozirgi kunda intellekt testlari shaxslarning ta’lim darajasiga va ularning tabiiy qobiliyatlariga bog‘liq bo‘lgan muayyan intellektual ko‘nikmalarning shakllanish darajasini o‘lchashlarini ye’tirof yetadilar. Test natijalarida birini ikkinchisidan ajratish mumkin yemas.

Test ballarining atrof-muhitga bog‘liqligi ularning nomutanosibligi, o‘zgaruvchanligini bildiradi. Buni tushunish testning asosiy maqsadi o‘zgarishiga olib keladi. Agar ilgari intellektual testlar bo‘yicha o‘lchovlar ko‘pincha mavzularni toifalarga ajratish va uzoq muddatli prognozlar uchun ishlatilgan bo‘lsa, yendi G‘arb psixologlari orasida yorliqlarni yopish tendensiyasini rad yetish mavjud. Intellektual test natijalariga ko‘ra shaxslarning qattiq, o‘zgarmas tasnifi og‘ir salbiy oqibatlarga olib keldi, chunki past 1 () bolaga nisbatan kamsuqumlik belgisi qoldirdi, boshqalarning unga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirdi va shu bilan rivojlanishning noqulay sharoitlarini saqlab qolishga yordam berdi.

Hozirgi kunda aqliy testlar asosan maktab faoliyatini bashorat qilish va o‘quvchilarni har xil turdagи maktablar bo‘ylab tarqatish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, Amerika Qo‘shma Shtatlarida bir bola iqtidorli uchun mакtabga olish uchun, u Stenford-Binet sinov kamida 1C olish kerak.

Lekin bu tor sohada ham 1C tahminlarga asoslangan bashoratlar) har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Nemis psixologlar, mакtab qobiliyatsiz nisbatan intellektual test bir vaqtning o‘zida amal Amerika tadqiqotlar tahlil so‘ng, 1C o‘lchash asosida degan xulosaga keldi), u cheklangan darajada mакtab yutuqlarini bashorat qilish faqat mumkin, test natijalari va mакtab muvaffaqiyat o‘rtasidagi o‘rtacha bog‘liqlik, odatda atrofida joylashgan, chunki 0.50 ‘. Bu ko‘rsatkich 0.25 aniqlash koyeffitsiyentiga mos keladi, ya’ni mакtab yutug‘idagi o‘zgaruvchilarning faqat 25% razvedka testlarini bajarishdagi farqlar bilan tushuntiriladi.

Shunday qilib, aqliy testlar asosida mакtab yutuqlarini baholash va bashorat qilish turli xil qo‘srimcha omillar ta’siri tufayli qiyinlashadi, ular orasida yeng muhimmi oilaning ta’siri va yeng muhimi, talaba shaxsining ta’siri. Barcha bu 1C ortiq mакtabda akademik bajarish katta ta’sir ko‘rsatadi).

1C) ning predmetli qiymatining pasayishi ko‘pgina psixologlar tomonidan ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, A. Anastasi tomonidan aytiganidek, hatto D. test balini sinab ko‘rish vaqtida shaxsning aqliy rivojlanishiga yetarli baho berish yetarli yemas. Buning uchun test natijalarini boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar bilan to‘ldirish lozim: kuzatishlar, biografik ma’lumotlar, o‘qitish metodlarini tahlil qilish va boshqalar.:

- testlarni bajarishda mavzuning o‘qitilganlik darajasi haqida;
- testni yakunlash motivatsiyasi haqida;
- sinov paytida hissiy holat haqida;
- yekperimentator shaxsining sinov ballariga ta’siri to‘g‘risida; - testdan oldingi mavzu faoliyati haqida va boshqalar.

Atrof-muhitning aqliy sinov natijalariga ta’siri shunchalik kattaki, ular yordamida ko‘p yoki kam muvaffaqiyatlidir. Prognoz qilish uchun psixologlar maxsus yekologik indekslarni joriy yetishga harakat qiladilar. Bu uzoq maxsus testlar orqali aniqlangan deb atalmish o‘quv qobiliyatlarini o‘rtacha darajasi va qator kollejlari o‘rtasida keng farq qiladi, deb ma’lum qilindi. Ammo psixologlarning fikricha, kollejlар psixologik iqlim, nazariy va amaliy yo‘nalishning o‘ziga xos og‘irligi, o‘quvchilarning sinfdan tashqari, rejadan tashqari ishlarda ishtiroy yetish darajasi, jamoat faoliyatiga qiziqish va xalqaro muammolar va boshqa ko‘plab ko‘rsatkichlar bilan farqlanadi[1]. Shu bois amerikalik psixologlar ta’lim muassasalarining xususiyatlarini hisobga oluvchi indekslarni joriy yetishga harakat qilmoqda.

Oilaviy muhit sharoiti, xususan, o‘quvchilarning ijtimoiyiqtisodiy darajasini hisobga olishda ham xuddi shunday tendensiyalar kuzatiladi. Bu maqsad turli ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar uchun-yeng oddiy va xom dan, faqat bir o‘zgaruvchini jalb (masalan, ota yoki ota-onalar ta’lim darajasi ishg‘ol haqida ma’lumotlar), ko‘proq nozik va tabaqlashtirilgan uchun, ota-onalar nafaqat xususiyatlarini o‘z ichiga olgan, balki bunday uy hajmi sifatida axborot, zamonaviy qulayliklar mavjudligi, kitoblar mavjudligi, jurnallar, gazeta, non-rasmiy ta’lim shakllari (masalan, musiqa darslari). Shunday qilib, B. ga ko‘ra. Otaonalarning ta’lim darajasi hisobga olinsa, 7 va 16 yoshdagi razvedka testlari bo‘yicha ballar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar 0,58 dan 0,92 gacha oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, qo'shimcha manbalardan olingan ma'lumotlarni hisobga olgan holda va test natijalari bo'yicha ko'plab ta'sirlarni hisobga olgan holda, ba'zi ko'nikmalar va qobiliyatlarning haqiqiy holatini tavsiflash uchun aqlii testlardan foydalanishingiz mumkin. Bundan tashqari, intellektual test natijalariga ko'ra, siz odamning aqliy rivojlanishidagi o'zgarishlarni kuzatishingiz mumkin.

O'sish yoki kamayishga yordam beradigan ko'plab sharoitlar mavjud bu ko'rsatkich atrof-muhitdagi tasodifiy siljishlar natijasida ham, rejalashtirilgan tashqi aralashuvlar natijasida ham o'zgarishi mumkinligini ta'kidlash muhimdir. Psixologlar bolalarda sezilarli hodisa va yezilgan (£1) quyidagi sabablarga ko'ra sabab bo'lishi mumkin, deb topdik:

- oila tuzilishidagi o'zgarishlar
- - oila daromadining oshishi yoki kamayishi, - yangi yashash joyiga o'tish —
- bolalar bog'chasiga qatnash va hokazo.

IQ ning o'sishi kompensator o'quv dasturlarining natijasi bo'lishi mumkin, uning asosiy maqsadi turli hayot sharoitlarida bolalarning aqliy rivojlanish darajalarini maxsus tayyorgarlik yordamida birbiriga yaqinlashtirishdan iborat yedi. Birinchi kompensator dasturlar 1960-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy darajasi past oilalarning bolalari uchun qo'shma Shtatlarda yaratilgan. Hozirgi kunda yosh bolalarning aqliy rivojlanishini rag'batlantirishga va shu bilan noqulay muhitning mакtab ta'limiga ta'sirini cheklashga harakat qiluvchi qator kompensator dasturlar ustida ishslash bo'yicha tajriba ko'p.

Bunday dasturlardan foydalanishning dastlabki natijalari 1968yilda chop yetilgan "yerta o'rganish" to'plamida ma'lum qilingan. Shunday qilib, Peabody loyiha dasturi foydalanish natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim rivojlantirishda ishtirok bolalar nazorat guruhi bilan solishtirganda test sinovlari bo'yicha sezilarli darajada yuqori ball topildi (shu yekologik parametrlari bilan bolalar, shu jumladan,, lekin kim ta'lim ishtirok qilmadi). Bu bolalar maktab ta'limining boshlanishida o'z ustunliklarini saqlab qoldilar.

Bu muammo haqida ba'zi ma'lumotlar L tomonidan berilgan. U 3-4 oylik bolalarga qo'llaniladigan kompensator mashg'ulotlarga urinib ko'radi, onalar 70 ostida IQ ballari bor edi. Maxsus tarbiyachilar tomonidan olib borilgan mashg'ulotlar 4 yil o'tib 135 ga yaqin ayrim bolalarda 84-116 meyorda IQ ball olish imkonini berdi. O'rtacha ularning ko'rsatkichlari nazorat guruhidagidan 33 ball yuqori bo'ldi. Ushbu

tadqiqot ham qiziqarli, chunki u bilvosita genetik komponentning va atrof-muhitning iq ga nisbatan ta'siri haqida savol beradi. Intellektual test natijalari asosida odamlarning shaxsiy farqlarida ta'lim va tarbiyaning muhim ahamiyati tasdiqlanadi.

Test maqsadlariga qaytadigan bo'lsak, progressiv psixologlar miqdoriy indeksni ta'minlovchi vosita, madaniy aralashuv darajasining ko'rsatkichi, disfunksional ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat sifatida testlarga katta umid bog'laganliklarini qayd yetamiz. Va bu noqulay muhitlardan bolalar yaxshi-off oilalarning bolalar maktab faoliyatini yaqinlashish imkonini beradi dasturlari va o'qitish usullari bunday tuzatish birinchi qadamdir.

## **7-AMALIY MASHG‘ULOT. KOMPYUTER PSIXODIAGNOSTIKASI.**

### **Amaliy mashg‘ulotning amalga oshirish tartibi:**

*1.Taqdim etilayotgan materiallar bilan tanishing va kompyuter psixodiagnostika, psixodiagnostika rivojlanishining hozirgi tendensiyalari bo‘yicha tahliliy material tayyorlang.*

*2. Kasbiy faoliyattingizda foydalanilgan yoki kompyuterda dasturlashtirilgan diagnostika metodikalardan xabardor bo‘lgan ma’lumotlaringiz asosida ularning ro‘yxatini shakllantiring.*

So‘nggi yillarda psixologlarning amaliy ishlarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu esa "qalam va qog‘oz"ning an‘anaviy test usullariga nisbatan kompyuter psixodiagnostik vositalidan foydalanish sezilarli darajada oshganligi bilan bog‘liq. Psixodiagnostikada kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, asosan, aniq disiplinlerarası ishlarni talab qiladi, asta-sekin kompyuter psixodiagnostikasi deb ataladigan mustaqil tadqiqot sohasida shakllandи.

Kompyuter psixodiagnostikasining asosiy maqsadlari psixodiagnostik vositalar, jumladan, kompyuter psixodiagnostik metodlarini yaratish hamda tajribaning tubdan yangi turlari va yeksperimental psixologik axborot bilan ishlash usullarini ishlab chiqishdan iborat. Kompyuter psixodiagnostikasining asosiy vazifasi psixologlarni yangi axborot texnologiyalari asosida yaratilgan yuqori sifatli psixodiagnostik vositalar bilan ta’minlash deb hisoblash mumkin.

Kompyuter psixodiagnostikasi sohasidagi tadqiqotlarni ikki yo‘nalish: psixodiagnostika va kompyuter fanlari kesishgan joylarda joylashgan disiplinlerarası xavfsiz ravishda kiritish mumkin. Ikki fanning ijodiy integratsiyasi psixodiagnostik tadqiqotlarning yangi sifati va amaliy psixologlar uchun butunlay boshqacha ish uslubiga olib keldi.

Eng umumiy shaklda axborot deganda har qanday ma’lumotlarning mazmuni (ma’nosи), axborot texnologiyalari esa axborotni qayta ishlash uchun ishlatiladigan texnologik yelementlar (qurilmalar, usullar) majmui tushuniladi. Hozirgi kunda psixodiagnostikada ma’lumotlarni tahlil qilish, bilimlar injeneriyasi va Internet texnologiyalari kabi axborot texnologiyalari faol qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalarning har biri o‘ziga xos psixodiagnostik vazifalarning asosi bo‘lib,

kompyuter psixodiagnostikasi sohasidagi ishlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

1.Ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyasi asosida an’anaviy psixometrik paradigma doirasida psixodiagnostik metodlarning qurilishi.

2.Psixosemantik metodlarning qurilishi va ma’lumotlar tahlilining predmet paradigmasi asosida psixosemantik eksperiment doirasidagi predmetlarni o‘rganish.

3.Psixologning ish tajribasi yordamida fanlarning test natijalarini kompyuterga "tikkan" holda izohlaydigan bilimlar injeneriyasi texnologiyasi asosida kompyuter psixodiagnostik metodlarini ishlab chiqish.

4.Stimul materialining taskilotchisi sifatida kompyuterdan foydalanadigan kompyuter psixodiagnostik metodlarini yaratish, ya’ni adaptiv, o‘yin, masofaviy va multimediali test tizimlarini amalga oshirish.

5.Kompyuter yordamida psixodiagnostika san’atini o‘rganish.

Bu holat psixologlar uchun ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi va ularga yangi muammolarni qo‘yadi. Eng katta qiyinchilik-tadqiqot maqsadlariga, kompyuter psixodiagnostik vositalariga javob beradigan yetarli tanlovdir. Shu munosabat bilan ko‘pincha savollar beriladi: fanlarni o‘rganish natijasida qanday usullar va qanday maqsadlarda eng yaxshi foydalanilsa, qanday kompyuter psixologik xulosalarni olish mumkin va kompyuter psixodiagnostik vositalari psixologning amaliy ishida qanday foydali bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda eng muhim ta’sir test natijalarini qayta ishlash uchun kompyuter imkoniyatlardan foydalanish hisoblanadi.

Eng oddiy darajada, eng zamonaviy testlar (masalan, m test).Lusher test, D. Gilford-Sullivan,, Sondi test, Amthauer testi, YE. Landolt testi) asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash mashinasini uchun moslashtirilgan bo‘ladi. G‘arbda ba’zi sinov noshirlar allaqachon foydalanuvchilar sinash uchun tegishli xizmatlarni taqdim qilish uchun zarur asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Bundan tashqari, kompyuter disklari tobora kengayib bormoqda, ular yordamida test foydalanuvchilari natijalarini shaxsiy kompyuterlarida qayta ishslashlari mumkin. Kelajakda diagnostik so‘rov ma’lumotlarini qayta ishlash funksiyasi texnik qurilmalarga tobora ko‘proq ko‘chirilishini taxmin qilish xavfsizdir.

Kompyuterlar, shubhasiz, psixologik diagnostikaning barcha jabhalarida misli ko‘rilmagan takomillashishlarga yo‘l ochishiga qaramay, ayrim hollarda ulardan foydalanish olingan ko‘rsatkichlardan noto‘g‘ri foydalanish va talqin qilishga olib kelishi mumkin. Tegishli yehtiyot choralarini ko‘rish istagi tufayli G‘arbda hozir

kompyuterlar yordamida test o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqishga katta ye'tibor berilmoqda. Hozirgi vaqtida kompyuterlardan turli sohalarda va test sinovlarining turli bosqichlarida foydalanish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar to'plami ishlab chiqilgan.

